

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ZIYOVUDDIN XOSHIMOV,  
ANVAR ISLOMOV,  
AKRAM YADGAROV**

**EKOLOGIK MENEJMENT**

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimioiy fanlar, biznes va huquq

**Ta'lif sohasi:** 340000 – “Biznes va boshqaruv” ta'lif  
sohasning

**Ta'lif yunalishi:** 5340100 – “Iqtisodiyot” (ekologiya)

**TOSHKENT – 2011**

Ziyovuddin Xoshimov, Anvar Islomov, Akram Yadgarov. Eklogik menejment. O`quv qo`llanma. – T.: TDIU, 2011. -207 бет.

Eklogik menejment fani yangi fanlar qatoridagi fanlardan xisoblanib, bevosita tabiat va tabiiy fanlar bilan bog'liq raishda rivojlanib, iqtisodchi ekolog kadrlarni taylorlashda xamda soha buyicha malakali mutaxassislar tayyorlashining zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur qo`llanma iqtisodchi ekolog kadrlarni muayan bilimlarni egallashlariga ko`maklashadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida eklogik menejmentning umumiy va xususiy qonuniyatları, eklogik balans, ekolgik xisob va ekolgik audit, ekolgik kontroling va ekolgik indikatorlar, korxonalarining eklogik menejmenti va atrof-muhit muhofazasi kabi masalalar bayon etilgan.

Qo`llanma talabalar, aspirantlar va o`qituvchilarga, shuningdek, ekolgiya iqtisodiyoti bilan qiziquvchilarga mo`ljallangan.

**Mas'ul muharrir:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, «Iqtisodiyot» fakulteti dekani, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor Q.A. Dadaboyev.

**Taqrizchilar:** Toshkent davlat agrar universiteti, "Fermer xo'jaligini boshqarish" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor G'.A. Samatov;

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori, prof. A. Abirqulov

## **АННОТАЦИЯ**

Настоящий учебный пособие на сегодняшний день предназначена очень актуальным вопросам, в природе когда совершается техногенные явления, приводит к её уменьшено и управляет экологическим механизмом.

В производстве и сфере услуга применение экологического менеджмента приводит развитие этого предмета.

Фактически учебное пособие предназначена для уменьшения недостатков, в развитие экологического управление и является одним из первых учебников в латинском языке.

## **ANNOTATION**

The Present scholastic allowance for present-day day is intended very actual questions, in nature when is made tehnological phenomena's, brings about her(its) is reduced and controls the ecological mechanism.

In production and sphere service using of ecological management brings the development of this subject. Practically scholastic allowance is intended for reduction defect, in development ecological management and is one of the first textbook in Latin language.

## KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloxtolgaga asolangan tarkibiy uzgarishlarni amalga oshirish bugungi iqtisodiy siyosatning muxim yunalishidir. Tabiiyki ushbu xol, mamlakatning tabiiy va iqtisodiy saloxiyatidan oqilona foydalanish, atrof-muxit xolatini xisobga olish va boshqarishga extiyoj tugdiradi. Mustakillik yillarida Uzbekistonda bu borada kator tadbirlar amalga oshirilib, u milliy iqtisodiyotni islox qilishning ajralmas tarkibiy kismiga aylandi. Shu bois, mazkur soxa chuqr bilim, amaliy kunikma va tajribaga ega bulgan kadrlarga extiyoj sezmoqda.

«Ekologik menejment» fani ayni shu maqsadlarga xizmat kilib, u turli darajada-korxonadan umummilliy va global darajalargacha ekologik-iqtisodiy ierarxiyada yuzaga keladigan ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning echimini topishga xizmat qiladi. U tabiatdan foydalanishni strategik rejalashtirish, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining ekologik xavfsizligini, resursslarni tejashni asoslab beradi.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Biz bugun 2010 yil yakunlarini baholar ekanmiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etishimiz zarur. Shuni yana bir bor eslatib o'tmoqchimanki, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi// 21.01.2011.

Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko‘ra, bu dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri ekani albatta barchamizga mamnuniyat bag‘ishlaydi. Keyingi o‘n yilda, ya’ni 2000 yilga nisbatan taqqoslaganda, 2010 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb ikki barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi”<sup>2</sup>.

«Ekologik menejment» usullari tegishli strategiyalar, dasturlar ishlab chikishni va ularni amaliyatga joriy etishni uz ichiga oladi. Ekologik xatarlar va taxdidlarni anglash xozirgi zamon ekologik muammolarining mazmuni va moyiyatini chukur bilish, tushunish va ularni boshqarishning ekologik-iqtisodiy usullarini tula uzlashtirib olishni talab qiladi. Ushbu kursda ekologik menejmentning nazariy va amaliy masalalari, predmeti va vazifalari, konuniyat va tamoyillari xamda ekologik boshqaruv tizimlarining tashkiliy tuzilishi masalalari asoslab beriladi. Fanni uqitish maqsadi va vazifalari. Mazkur kursning maqsadi talabalarga fanning nazariy asosalari, qonuniyatatlari va tamoyillari, asosiy instrumentlari, ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, korxonalar menejmenti, strategik ekologiya menejmenti yunalishlari, shuningdek, ekologik menejmentning asosiy tushunchalarining ekologik-iqtisodiy talqini, Uzbekistonda ekologik menejment va uni takomillashtirish buyicha bilimlar berishdan iborat.

«Ekologik menejment» kursining asosiy vazifasi-talabalarda ekologik menejment yunalishida chuqr ekologik-iqtisodiy fikrlash,

---

<sup>2</sup> Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq su’zi//G. 2011 yil.

tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, uzining mustaqil va ilmiy asoslangan fikr-muloxazalarini, xulosalarini, tavsiyalarini aniq bayon etishga urgatish, ekologik menejmentning nazariy va amaliy muammolari echimini topishda etarli darajada nazariy-metodologik asoslarni egallash, mavjud ekologik vaziyatni, xududiy xususiyatlarni xisobga olib ularga mos ekologik menejment yunalishlarini amalga oshirish kunikmalari va malakalarini shakllantirish, ekologik boshqaruv sohasini yetuk mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat.

## **I - Mavzu. «EKOLOGIK MENEJMENT» FANINING PREDMETI, OB'EKTI VA TURLARI**

### **1.1. «Ekologik menejment» fanining mazmuni va moxiyati**

### **1.2. Ekologik menejment turlari**

### **1.3. Ekologik menejment tizimi**

«Ekologik menejment» fanining mazmuni va moxiyati. «Menejment» (management) suzi inglizchadan uzbek tiliga boshqaruvni tashkil qilish, boshqarish xokimiyati va san'ati ma'nolarida tarjima qilinadi. Bugungi kunda menejment korxona (tashkilot) ga raxbarlik qilish va uni boshqarish buyicha muvofiq lashtiruvchi faoliyat turi, boshqaruv jarayoni va boshqa ma'nolarda ham qullaniladi. Shu nuqtai nazardan «Ekologik menejment» umumiy menejment tizimining bir qismi bulib, u menejmentning boshqa sohalaridan atrof-muxit bilan uzaro uzviy bog'liqligi orqali tubdan farq qiladi.

«Ekologik menejment» iqtisodiy ierarxiyaning turli buginlari - korxona, tuman, viloyatlar iqtisodiyotidan to respublika va global

iqtisodiyotgacha yuzaga keladigan ekologik-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish va ayni vaqtda xilma-xil tabiiy resurs xamda ekologik muammolar echimini boshqaruvchi usullar majmui xisoblanadi.

«Ekologik menejment» fani ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda boshqsaruvchiga tabiatdan foydalanish va tabiat muxofazasini boshqarish soxasida ilmiy asoslangan tanlovnini tugri amalgalashni va maqbul qaror qabul qilishni urgatadigan fandir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha buginlarda ekologik xatar va xavfni muvaffakiyatli boshqarish malakasini, mavjud ekologik-iqtisodiy imkoniyatlarni amalgalashni ekologik iqtisodiy bohqaruv usullarini egallagan yuqori malakali ekolog-menedjerlarni tayyorlashdan iborat.

«Ekologik menejment» ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining ekologik xavfsizlik darajasini oshirish, resurslarni tejash va ekologik xatarni eng kam miqdorga tushirish usullarini asoslab, quyidagilarni amalgalashni imkonini beradi:

- a) korxonalar va kompaniyalarga xarajatlarni aniqlash, yangi ekologik bozorlarni uzlashtirish va shu asosda raqobatbardoshlikni oshirish;
- b) mintaqalar va mamlakatlarga xozirgi xamda kelgusi avlodlarning manfaatlarini xisobga olgan xolda tabiat, atrof-muxit muxofazasi sifatini oshirish;
- v) tabiatda biologik xilma-xillikni asrash, tabiiy resurslarni muxofazalash.

**«Ekologik menejment» fanining predmeti** ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishdir. U ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq bulib, ijtimoiy-iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayonining ishlab

chiqarish, ishlab chiqarilgan maxsulotni taqsimlash, uning muomalada bulishi va iste'mol qilinishi fazalarida ishtirok etadi. Ekologik-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish tabiat ob'ektlari (ekotizimlar)ni asrash, yaxshilash, tiklash va ulardan samarali foydalanish xamda muxofaza qilishga yunaltiriladi. Ayni paytda zamondoshlarimiz va kelajak avlodlari uchun atrof-muxitni maksimal darajada asrash maqsadini kuzlaydi. Shu nuqtai nazardan ushbu fanning predmeti ekologik-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini, turli ob'ekt va sub'ektlarni boshqarishni, ekologik boshqarishning boshqa xilma-xil yunalishlarini (xodimlarni boshqarish, mintaqaviy boshqarish, boshqarish madaniyatini uz ichiga oladi).

**«Ekologik menejment» fanining tadqiqot ob'ekti** turli miqyos va darajadagi ekologik va ekologik-antropogen tizimlar xisoblanadi. Bu erda korxonalarning tabiat muxofazasi muammolari va ularning mintaqaviy, umummilliy va xalqaro muammolar bilan uzaro ta'sirini kurib chiqish markaziy tadqiqot ob'ekti bulib xizmat qiladi. Shu urinda, ta'kidlash joizki, ushbu ob'ektlar va ularda ekologik vaziyatlarning shakllanishi kuplab omillar (ekologik axborot va axborot madaniyati, ekologik ongning rivojlanish darjasи, umumiy biznes, madaniyat va etika, ekologik siyosatni amalga oshirish, milliy biznes va ekologik siyosatning global iqtisodiyot va siyosatga integratsiyasi darjasи va b.) ta'sirini uzida aks ettiradi. Xar bir mamlakat va uning mintaqalari uchun xos bulgan omillar ekologik boshqaruvni tashkil etishning aniq shakllariga, ularning samaradorligiga ta'sir kursatadi. Ekologik boshqaruv ishini bajaruvchi idoralar, tashkilotlar

va ularning mas'ul xodimlari ekologik menejmentning sub'ektlari xisoblanadi.

**Ekologik menejment sub'ekti** (boshqaruv idorasi, raxbarlar, mas'ul xodimlar) qatoriga mamlakat miqyosida Uzbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, Uzbekiston Respublikasi Prezidenti, Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kiradi. Ular uz vakolatlari doirasida ekologik muammolar yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi va ularni amalga oshiradi. Atrof tabiiy muxitning davlat boshqaruvi Vazirlar Maxkamasi, Tabiatni muxofaza qilish qumitasi va maxalliy xokimiyat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Ekologik menejment turlari. «Ekologik menejment» tizimi uz mazmuniga kura quyidagi uchta turga bulinadi:

- 1) Menejment tarmogi;
- 2) Fan;
- 3) Uquv fani soxasi.

Ekologik menejment umumiyligi menejmentning tarmogi sifatida ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning ixtisoslashgan tarmogi xisoblanadi. U uz navbatida umumiyligi va tarmoq «Ekologik menejment» lariga bulinadi. Bunday bulinish korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tashkil etishda ularning atrof-muxit bilan uzaro ta'siri xususiyatlarini xar tomonlama xisobga olish bilan bogliqdir (faoliyatni tashkil etishning «ekologik soxasi»). Umumiyligi «Ekologik menejment» mamlakat buyicha ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish tizimini uz ichiga oladi va mamlakat ekologik tizimlaridan maqsadga muvofiq foydalanish, ularni asrash va muxofazalashni ta'minlash

maqsadlariga xizmat qiladi. Tarmoq ekologik menejmenti er, suv, usimlik, xayvonot olami, er osti boyliklari, atmosfera, aloxida muxofaza qilinadigan ob'ektlar va komplekslardan foydalanish, ularni asrash va muxofaza qilishni boshqarish tizimidan tashkil topadi.

Bulardan tashqari ushbu yunalishga xalqaro ekologik munosabatlar menejmenti xam kiradi. Bu tizimning «Ekologik menejment» mamlakatning ma'muriy-xududiy va tarmoqlar buyicha boshqarilishi ierarxiyalariga mos tushadi. Iqtisodiyotning xilma-xil tarmoqlari korxonalari va tashkilotlari ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning uziga xos «Ekologik menejment» tizimini amalga oshiradilar.

**«Ekologik menejment» tizimi** ekologik-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish siyosati va maqsadlarini urgatishga, shuningdek, ushbu maqsadga erishishga xizmat qiladi. U korxonaning sifat menejmenti, moliya faoliyati menejmenti yoki ekologik menejmenti tizimini uz ichiga oladi. Ekologik menejment tizimi ekologik siyosatning ishlab chiqish, joriy etish, amalga oshirish, taxlil qilish va dolzarbligini quvvatlash uchun zarur bulgan tashkiliy tuzilishni, rejalashtirish, mas'uliyatni taqsimlash, amaliy usullar, protsedura jarayonlari, resurslarni qushib oladi. Lekin bularning xammasi keng predmetga ega bulgan «Ekologik menejment» fani tizimini ifodalay olmaydi.

«Ekologik menejment» fan sifatida «Umumiy menejment» fanining tarmogi bulib, u ekologik menejment tugrisidagi bilimlar tizimi xisoblanadi. Fanning predmeti bulib, axborotlariga qushimcha ravishda

tadqiqot usullari, amaliyot, rivojlanish tarixi, ekologik munosabatlarni boshqarish, ilmiy axborot manbalari bilan ishlash, ekologik - ijtimoiy munosabatlar va boshqalarni qamrab oladi. «Ekologik menejment» fani nazariy «Ekologik menejment», aniq amaliyot tajribalarini uz ichiga oladi va shunga mos xolda umumiylashtirishni qamrab oladi. «Ekologik menejment» soxalariga bulinadi.

«Ekologik menejment» uquv fani sifatida «Ekologik menejment»ning fan sifatidagi tizimiga mos tushadi. Ularning farqi bulg'usi ixtisoslashish extiyoylariga bog'liq.

### **Qisqacha xulosalar**

«Menejment» (management) inglizcha suz bulib, uzbek tilida boshqaruvni tashkil qilish, boshqarish xokimiyyati va san'ati degan ma'nolarni anglatadi. «Ekologik menejment» umumiylashtirishning bir qismi bulib, u menejmentning boshqa soxalaridan atrof-muxit bilan uzaro uzviy bogliqligi orqali tubdan farq qiladi. «Ekologik menejment» fani ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda tabiatdan foydalanish va tabiat muxofazasini boshqarish soxasida ilmiy asoslangan tanlovnii tugri amalga oshirish va tegishli qaror qabul qilishni urgatadigan fandir.

Predmeti - ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishni qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, u ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq bulib, ijtimoiy-iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazasida ishtirok etadi.

Ob'ekti - turli miqiyos va darajadagi ekologik va ekologik-antropogen (ekologik iqtisodiy) tizimlar xisoblanadi. Bu erda korxonalarining tabiat muxofazasi muammolari va ularning mintaqaviy, umummilliy va xalqaro muammolar bilan uzaro ta'sirini kurib chiqish markaziy tadqiqot ob'ekti bulib xizmat qiladi.

Ekologik menejmentning sub'ektlari - ekologik boshqaruv ishini bajaruvchi idoralar, tashkilotlar va ularning mas'ul xodimlaridir. Bundan tashqari ekologik menejment sub'ekti (boshqaruv idorasi, raxbarlar, mas'ul xodimlar) katoriga mamlakat miqiyosida Uzbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, Uzbekiston Respublikasi Prezidenti, Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasi kiradi.

Ekologik menejment umumiyligi menejmentning tarmogi sifatida ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning ixtisoslashgan tarmogi xisoblanadi. U mamlakat buyicha ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish tizimini uz ichiga oladi va mamlakat ekologik tizimlaridan (landshaftdan) maqsadga muvofiq foydalanish, ularni asrash va muxofazalashni ta'minlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Ekologik menejment fan sifatida «Umumiyligi menejment» fanining tarmogi bulib, u fan predmetiga qushimcha quyidagi mustaqil mavzularni qamrab oladi: tadqiqot usullari, amaliyot, rivojlanish tarixi, turli manbalar, ekologik munosabatlarni boshqarish, ilmiy axborot manbalari, tushunchalar apparati, ekologik ijtimoiy munosabatlar va boshqalar.

«Ekologik menejment» fani nazariy «Ekologik menejment», aniqligining amaliyot tajribalarini uz ichiga oladi va shunga mos xolda umumiyligi nazariy,

tarmoq, amaliy «Ekologik menejment» soxalariga bulinadi. Ekologik menejment uquv fani sifatida «Ekologik menejment»ning fan sifatidagi tizimiga mos tushadi. Ularning farqi bulgusi ixtisoslashish extiyojlariga bog'liq.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. «Menejment» tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Boshqarish san'ati deganda nimani tushinasiz?
3. «Ekologik menejment» fani nimani o'rganadi?
4. Uning menejmentning boshqa tarmoqlaridan asosiy farqi nima bilan belgilanadi?
5. «Ekologik menejment»ning ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari urtasidagi aloqadorligini tushintiring.
6. Ekolog-menedjerlarning vazifasi nimadan iborat va ularni tayyorlash zaruriyati nimada?
7. «Ekologik menejment»ning predmeti, ob'ekti, sub'ekti va ular bir-biridan qanday farq qiladi?
8. Ijtimoiy-iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayonining turtta fazasini asoslab bering.
9. Ekologik-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning muxim yunalishlari nimalardan iborat.
10. Ekologik menejmentni turlarga ajrating.
11. Tarmoq ekologik menejmenti nimani tadqiq qiladi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” –T.: 2011.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.
6. http: www.murman.ru <http:G`G`www.murman.ru> (ecology) comitet
7. www. ecology, com.
8. www. ecology and sociaty.org <http:G`G`sociaty.org>.
9. www. ecologycenter.org <http:G`G`ecologycenter.org>.

## **II-Mavzu. «EKOLOGIK MENEJMENT» FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQALARI, TADQIQOT USULLARI VA VAZIFALARI**

- 2.1. «Ekologik menejment» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va uzaro bog’liqligi.**
- 2.2. Ekologik menejmentning tadqiqot usullari.**
- 2.3. Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida ekologik menejmentning maqsad va vazifalari.**

«Ekologik menejment» fani ko’plab ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy, tabiiy, texnika, kibernetika va boshqa fanlar bilan uzviy aloqada. «Ekologik menejment» dastavval «Atrof-muxit iqtisodiyoti» («Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti»), «Iqtisodiy ekologiya» («Ekologiya iqtisodiyoti») fanlari bilan yaqindan bog’liq. Ular ushbu fanning eng muxim nazariy asosi bulib xizmat qiladi. Bir qator iqtisodiy fanlar - «Makroiqtisodiyot», «Mikroiqtisodiyot», «Statistika», «Strategik rejalarshirish va bashoratlash», «Mintaqaviy iqtisodiyot», «Mexnat iqtisodiyoti», «Iqtisodiy kibernetika», «Qishloq va suv xujiligi iqtisodiyoti», shuningdek, «Geografiya», «Biologiya», «Ekologiya», «Geologiya», «Tuproqshunoslik», «Texnika va texnologiya» fanlari bilan chambarchas bog’liqdir. Ularning yutuqlaridan foydalanish «Ekologik menejment» muammolarining makbul echimini topishga xizmat qiladi.

«Ekologik menejment» bilan «Ekologik xuquq» fanlari urtasida yaqin aloqalar mavjud bulib, ular muayyan muammolar echimini xuquqiy asosda xal etishga yordam beradi. «Sotsiologiya», «Psixologiya», «Mexnat fiziologiyasi» ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishda juda katta rol uynaydi. Kibernetika ekologik menejmentda axborotlarni qayta ishslash, axborot tizimini takomillashtirish, boshqarish jarayonini kompyuterlashtirishga va avtomatlashtirishga keng yul ochib beradi. Kursatilgan aloqador fanlarning nazariy ishlanmalari «Ekologik menejment» ning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida muxim rol uynaydi.

Shu sababdan aloqador fanlarni mukammal urganish va ularning yutuqlaridan samarali foydalanish ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning sir-asrorlarini chukur anglashga va ekologik menejment samaradorligini oshirish imkonini beradi.

«Ekologik menejment» ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishni bilish va o'rganishda turli usullar kombinatsiyasidan foydalanadi va ularni keng miqiyosda qullaydi. Ushbu tadqiqot usullarining uziga xos xususiyatlari «Ekologik menejment» ning uziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun «Ekologik menejment»ning predmeti xisoblangan ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish kompleksi ularni «Ekologik menejment» yunalishida tartibga solish usullari kombinatsiyasida uz ifodasini topadi.

Ekologik menejment predmetiga bog'liqligiga qaramasdan, bu usullarning uzi xam ma'lum mustakillikka ega, chunki usulning uziga xos xususiyatlari aniqlanmasa, ekologik boshqarishning ushbu umumiyligini menejmentning mustaqil tarmogiga aylantirishga asos xam bulmaydi. Predmet va usul ma'lum birlikka va umumiylikka ega bulishi kerak. Ta'sir kursatish usullarining tartibga solinadigan ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan ajralib qolishi «Ekologik menejment» yunalishida tartibga solish samaradorligiga salbiy ta'sir kursatadi.

«Ekologik menejment» da jamiyat va tabiat o'rtaсидаги munosabatlarni boshqarishni uygunlashtirishga yunaltirilgan boshqarishni ekologiyalash usuli asosiy xisoblanadi. Bu usul umumekologik yondashuvlarni differentsiyalangan ob'ektlar buyicha yondashuvlar bilan

birga qo'shib olib borishga asoslanadi. Chunki, «Ekologik menejment» yunalishida xar bir tabiat ob'ektini boshqarishni tartibga solish ushbu tizimning saqlab qolinishi manfaatlari nuqtai nazardan amalga oshiriladi, lekin ayni paytda ushbu ob'ektning xususiyatlari ham hisobga olinadi. Boshqarishni ekologiyalash usuli «Ekologik menejment» predmetining o'ziga xosligidan kelib chiqadi va u tabiatdan foydalanishni boshqarishning xar qanday turi tabiat qonunlarini qullash bilan uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Bu ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tabiat qonunlariga buysunisi kerak, ya'ni tabiiy muxitga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bulgan har bir xarakat ekologiyalashtirilishi lozimligini ko'rsatadi. Chunki tabiiy muxitda sodir buladigan kuplab tabiiy jarayonlarning kechishini inson uzgartirishga qodir emas.

«Ekologik menejment» da ekologik imkoniyatlar va xatarlarni taxlil qilish, atrof-muxit sifatini boshqarish moddalari, ekologik samaralarni optimallashni boshqarish, ekologik barqaror rivojlanish modelini ishlab chikishning boshqarishning ekologiyalash usullarini keng qullashga asoslanadi. Bu muammolar echimini topishda umumfalsafiy (dialektika usuli va b.), me'yoriy usullar, ekspert baxolash, tarixiy usul, taqqoslash, tizimli usullar, tarkibiy va vaziyatli yondashuvlar, modellashtirish, iqtisodiy-matematik yondashuv, monografik tadqiqot, kuzatish va tajriba usullari, sotsiologik kuzatuv usullaridan keng foydalilanadi. «Ekologik menejment» da kursatilgan kuplab usullar maxalliy, mintaqaviy, milliy,

global miqiyoslarda ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishni tadqiq etishda uzaro bog'liq holda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga utish sharoitida «Ekologik menejment»ning maqsad va vazifalari O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolga erishishining Prezident I.A.Karimov asarlarida ishlab chiqilgan va asoslab berilgan davlatni boshqarish tamoyillari, bozor munosabatlariga utish tamoiillariga, shuningdek, mamlakatning ekologik me'yoriy-xuquqiy aktlariga asoslanadi. Ular ekologik ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning maqsad va vazifalarini belgilashda asosiy manbasi bulib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz va xalqaro miqiyosda e'tirof etilgan va Uzbekistonning uziga xos tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini xisobga olib bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan davlatni boshqarishning turt asosiy tamoyili, bozor munosabatlariga utishning besh tamoyili «Ekologik menejment» yunalishlari va istiqbollarini xam belgilab beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Uzbekistonda davlatni boshqarishning quyidagi turt tamoyili ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilmoqda:

- demokratiya tamoyili;
- iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash tamoyili;
- yuksak ma'naviyat tamoyili;
- milliy xavfsizlikni ta'minlash tamoyili.

«Ekologik menejment» da Uzbekistonda bozor munosabatlariga utishning quyidagi besh tamoyili raxbariy axamiyatga ega:

- iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi;
- davlat asosiy isloxoitchi;

- qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish;
- bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich utib borish.

Ushbu tamoyillarga va yaratilgan xuquqiy bazaga asosan mamlakatda «Ekologik menejment» ning anik mexanizmlari shakllanayotir. Shu munosabat bilan «Ekologik menejmyont»ning asosiy maqsadi ekologik siyosatdan kelib chiqadi va u boshqarishning ekologik maqsadlarini belgilab beradi.

«Ekologik menejment» maqsadlari birinchi navbatda qonunchilik aktlarida, turli texnologiyalar variantini qullashga, nomoliyaviy va eksplutatsiya talablariga, biznes extiyojlariga, shuningdek, manfaatdor tomonlar qarashlariga bog'liq holda aniqdanadi. Bunda ekologik ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning foydalilagini maksimallashtirish tamoyiliga asoslanib, samarasiz foydalanish va ishlab chiqarishni kamaytirish va xarajatlarni minimallashtirish imkonini bermaydigan ishlab chiqarishni bartaraf etish maqsadga erishishning eng maqbul yulidir.

Ekologik maqsadlarga asoslanib, ularni amalga oshirish buyicha vazifalar belgilanadi. Shu munosabat bilan «Ekologik menejment» fanining asosiy vazifasi bozor iqtisodiyotiga utish sharoitida xalq xujaligini boshqarish tarkibida ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish xususiyatlarini kompleks taqiq etish xisoblanadi. Bunda quyidagi vazifalarni xal etish maqsadga mivoviq:

- «Ekologik menejment»ning nazariyasi va amaliy ekologik-iqtisodiy muammolarni;

- «Iqtisodiyot va Menejment» fanlari nazariyasining xozirgi darajasiga asoslanib yoritish va asoslab berish;
- ekologik boshqarish usullarini Uzbekistonning tabiiy-ekologik, madaniy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirib kullash va bunda ilgor xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, jaxon iqtisodiyotidagi globallashuvni, shuningdek, Uzbekistonda demokratik, ijtimoiy yunaltirilgan jamiyat kurishning shakllanishi xususiyatlarini xar tomonlama xisobga olish;
- «Ekologik menejment» ning samarali usullarini kullash asosida va soxada peshkadam xorijiy kompaniyalarining amaliy tajribalarini xisobga olib, ekologik muammolarni xal etishga mamlakat va xorijiy biznesni faol jalg qilish yollarini ilmiy asoslab berish.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib, menejer-ekologlar kasbiy tayyorgarligi va vakolatlariga quyidaagi talablar quyiladi:

- Boshqaruv mexnatining tabiiy-ekologik jarayonlar va tabiatdan foydalanish, tabiat muxofazasiga nisbatan mazmun va moxiyatini tugri tushunish;
- Menejer ekologiya, tabiatdan foydalanish va atrof-muxit muxafazasi soxalaridagi lavozim va fukntsional vazifalarini bilishi;
- Odamlar (xodimlar) va jamoani boshqarish san'atini egallashi va tashkilotchilik kobiliyatiga ega bulishi;
- Tashqi aloqalarni yulga quyish maxoratiga ega bulishi;

- Ma'naviy etuklik, uz-uzini tugri baxolash qobiliyati, tegishli xulosalar chiqarishga qodirligi, malakasi, bilimi va kasbiy maxoratini tuxtovsiz oshirishi;
- Boshqaruv jarayonida zarur buladigan ekologik monitoring asboblari, axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish maxoratiga ega bulishi.
- Ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish samardorligini ta'minlay olishi.

### **Qisqacha xulosalar**

«Ekologik menejment» xuquqiy, tabiiy, texnika va texnologiya, kibernetika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. «Atrof-muxit iqtisodiyoti» («Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti»), «Iqtisodiy ekologiya» («Ekologiya iqtisodiyoti») fanlari «Ekologik menejment»ning muxim nazariy asosi bulib xizmat qiladi.

«Ekologik menejment» tadqiqot usullar qatoriga umumfalsafiy, tizimli, me'yoriy, modellashtirish, kuzatish va tajriba usullari va boshqalar kiradi. Maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha butimlarda ekologik xatar va muvaffaqiyatli boshqarish malakasini, mavjud - ekologik-iqtisodiy imkoniyatlarni amalga oshirishning ekologik iqtisodiy boshqaruv usullarini egallagan yukori malakali ekolog-menedjerlarni tayyorlashdan iborat.

Vazifasi -korxonalar va kompaniyalarga xarajatlarni aniqlash, yangi ekologik bozorlarni uzlashtirish va shy asosda rakobatbardoshlikni oshirish; mintakalar va mamlakatlarga xozirgi xamda kelgusi avlodlarning

manfaatlarini xisobga olgan xolda tabiat, atrof-muxit sifatini oshirish, tabiatda biologik xilma-xillikni asrash, tabiiy resurslarni muxofazalashdan iborat.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. «Ekologik menejment»ning fundamental asosini tashkil etuvchi fanlarni ayting.
2. «Ekologik menejment»ning asosiy ilmiy-tadqiqot usullarini ta'riflang.
3. Boshqarishni ekologiyalash nima?
4. Bozor iqtisodiyotiga utish sharoitida «Ekologik menejment» ning maqsadi va vazifalarini ta'riflang.
5. Menejer-ekologlarga kasbiy tayyorgarlik va vakolatlar buyicha qanday talablar quyiladi?
6. «Ekologik menejment»ning samarali usullari deganda nimani tushinasiz?
7. Boshqaruv jarayonining ekologik monitoringi nima?
8. Boshqaruv jarayonida axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning zaruriyati nimada?
9. Boshqaruv jarayonida tabiiy-ekologik, tabiatdan foydalanish va tabiat muxofazasi konuniyatlarini xisobga olish zaruriyatini izohlab bering.
10. Atrof-muxit sifatini oshirish, biologik xilma-xillikni asrash, tabiiy resurslarni muxofazalashning iqtisodiy aspektlarini tushintirib bering.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” –T.: 2011.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2010.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.
6. http: www.murman.ru <http:G`G`www.murman.ru> (ecology) comitet
7. www. ecology. com.
8. www. ecology and sociaty.org <http: sociaty.org>.
9. www. ecologycenter.org <http: ecologycenter.org>.

### **III- Mavzu. MENEJMENT UMUMIY NAZARIYASIDA «EKOLOGIK MENEJMENT» NING O’RNI VA XUSUSIYATLARI**

- 3.1. Menejment umumiyl nazariyasida ekologik menejmentning o’rni.**
- 3.2. «Ekologik menejment» fan sifatida shakllanishi.**
- 3.3. Ekologik menejmentning uziga xos xususiyatlari.**
- 3.4. Menejment umumiyl nazariyasida ekologik menejmentning o’rni.**

Menejment nazariyasi va amaliyoti uzoq tarixga ega va u jamiyat hayoti va faoliyatini maqbul usullar va yunalishlarda boshqarishga ob'ektiv extiyojning oshib borishi bilan bog'liq xolda evolyutsion tarzda rivojlangan, turli davrlar va mamlakatlarda uziga xos kurinish va shakllarga, turli mazmun va samaradorlikka ega bulgan. Asta-sekin boshqaruv tugrisidagi ta'limot shakllangan va rivojlangan. Bunda boshqaruvdagi tajribani umumlashtirish maqbul va samarali usullarni topish va tiklash muxim rol uynagan va ular menejment nazariyasi va amaliyoti uchun asos bulib xizmat kilgan.

Menejment tadqiqotchilari XIX asrning oxiridan XX asrning birinchi yarmigacha bulgan davrda boshqarish ta'limotida quyidaagi turt yunalish (maktab) shakllanib rivojlanganini aniklaganlar: Ilmiy menejment (1885-1990). AQShda shakllangan. Asoschilari - F.Teylor, G.Emerson va boshqalar. Ularning boshqaruv ta'limotiga qushgan xissalari: mexnatni tashkil etish va uni boshqarishning ilmiy asoslangan yunalishini ishlab chiqish (boshqaruvning mumtoz maktabi); boshqarish va mexnatni tashkil qilishning kompleks tizimi, mexnat unumдорлиги tamoyillarining asoslab borilishi va b.

Mumtoz yoki ma'muriy menejment (1920-1950). Frantsiyada shakllangan. Asoschilari - A.Fayol, M.Veber va boshqalar. Ular boshqaruv tamoyillari, vazifalari, samaradorligi shartlari, faoliyat turlarini mivoviqlashtirish, nazorat qilish yunalishlarini tizimli yondashuvga asoslab taqiq etganlar.

«Insoniy munosabatlar maktabi» (1950 yildan xozirgacha). AQShda shakllangan. Asoschilari - E. Meyo, D. Mak-Gregar, R. Maykert va boshqalar. Ular boshqaruvda inson omilini xar tomonlama taqiq etib, «insoniy munosabatlar» ta'limotini ishlab chiqqanlar.

Miqdoriy tizimli yoki zamonaviy menejment (1950 yillardan xozirgacha). Asoschilari - G. Saymon, P. Dureker, E. Deyl va boshqalar. AQShda shakllangan. Ular kup jixatdan zamonaviy menejmentga asos bulgan tizimli yondashuv, vaziyatli yondashuv, funktsional yondashuv, miqdoriy yondashuvlarni va boshqalarni ishlab chiqdilar. Shunday qilib, umumiylar menejment nazariyasi va amaliyotida turli davrlarda boshqaruvning tashkiliy tarkibi, strategik rejallashtirish, strategik rejallashtirishdan strategik boshqaruvga utish kontseptsiyalari ishlab chikildi va ular turli darajada amaliyotga tatbiq etildi. Shu munosabat bilan menejmentning muxim va uziga xos tarmogi - «Ekologik menejment» soxasida ham nazariy modellardan amaliyotga tomon evolyutsion rivojlanish sodir bulganligini ta'kidlash lozim. Shuni aytish kerakki, menejment nazariyasi va amaliyotining uzoq davom etgan evolyutsion rivojlanishi davrida «Ekologik menejment» yunalishi shakllangan menejment ta'limotlari tarkibida deyarli rivojlanmadи.

«Ekologik menejment» ning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi maxalliy, mintaqaviy. mamlakatlar va global miqiyosda ekologik vaznyatning keskinlashuvi. atrof-muxit ifloslanishi va degradatsiyasining kuchayishi davriga tugri keladi. XX asrning 70-yillaridan boshlangan «Yangi ekologik davr» atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishga

mas'uliyatli munosabatda bulishning kuchayishi, sunggi uch un yillikda tabiatdan foydalanish va tabiatni muxofaza qilishni boshqarish soxasida xilma-xil ma'muriy nazorat va iqtisodiy dastaklar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan, ajralib turadi.

Ekologik menejment nazariyasi va amaliyotining umumiyligi menejmentdan asosiy farqi shundaki, u asosan XX asrning oxirida G'arb mamlakatlarida ekologik siyosat tarkibida ekologik boshqaruv instrument tizimi sifatida shakllandi va rivojlandi. Ekologik menejmentning faoliyat yunalishi va fan sifatida shakllanishining asosida xozir xam qullanilishi davom etayotgan qator fundamental nazariyalar va kontseptsiyalar yotadi. Ular qatoriga bozor muvaffakiyatsizligi, tashqi ekologik samara, tabiiy resurslarga va ekologik ne'matlarga aniq mulkchilik xuquqini belgilash talablari, iqtisodiyotga va tabiatdan foydalanishga davlat aralashuvining muvaffakiyatsizligi tugrisidagi goyalar tushunchalari kiradi.

Tashqi ekologik samarani internatsionallash va ushbu muvoffaqiyatsizlikni neytrallashtirish buyicha yondashuvlar katta amaliy ahamiyatga ega bulib, ular ekologik tartibga solishning amaliyotda qullaniladigan instrumentlari va mexanizmlarining muxim xususiyatlarini belgilab beradi.

Tashqi ekologik samaraning mavjudligi (uning bir turi atrof tabiiy muxitga ifloslanishning etkazadigan iqtisodiy zarari xisoblanadi) bozor muvoffaqiyatsizligiga olib keladigan optimal individual va ijtimoiy bozor echimlari urtasidagi tafovutlarni tushuntirish imkonini beradi.

Bozor muvaffaqiyatsizliklarini tashqi ekologik samarani internatsionallash vositasida tuzatish quyidaagi asosiy usullarda amalga oshirilishi mumkin:

- R. Kouza yechimi asosida;
- A. Pigu ekologik soliqlari yoki ularning turlaridan foydalanish yuli bilan;
- iqtisodiy-huquqiy yondashuv doirasida ekologik mas'uliyat asosida xuquqiy vositasida tashqi samarani internallashtirishdir.

Ekologik tartibga solish usullarini asoslab berish nuqtai nazaridan, eng avvalo, R.Kouzaning tabiiy resurslar va ekologik ne'matlarga mulkchilik xuquqining noaniqligi kabi sabablarni tug'ridan-tug'ri bozor muzokaralari asosida davlatning bevosita aralashuvlari neytrallashtirish imkoniyatlari borligi tug'risidagi xulosalari fundamental axamiyatga ega.

Bu yondashuvni faqat bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlar uchungina emas, balki tabiiy resurslarga mulkchilik xuquqlarini uzgartirish tugallanmaganligini xisobga olib, bozorga utish iqtisodiyotiga ega bulgan mamlakatlarga xam qullah muxim axamiyatga ega. U atrof-muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanishni tartibga solishda davlat interventsiyasini (aralashuvini) maqsadga mivoviqlashtirishga, davlat ishtirokini asosan mulkchilik xuquqlari spetsifikasi (tasnifi) va ularga amal qilishni nazoratlash bilan cheklash imkonini beradi.

Tug'ridan-tug'ri bozor muzokaralari amaliyotda loyixa-investitsiya faoliyatida keng qullaniladi (masalan, transport tizimlarini ratsionalallashtirish, mintaqalar iqtisodiyotini ekologik qayta tuzish loyixalarida va boshqalar). Uning kamchiliklari qatoriga amaliy

axamiyatga ega bulgan ba'zi nazariy muammolarning echimi topilmaganligi kiradi.

Masalan, bozor muzokaralari qatnashchilari monopoliya muomalasi elementlarining namoyon bulishi, kelajak avlodlar manfaatlariga amal qilishning muximligi va boshqalar buyicha nazariy masalalar xal etilmagan.

A. Piguning ifloslantiruvchilarni soliqqa tortish buyicha modeli kupchilik mamlakatlarda atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalandshning nisbatan uylab amalga oshirilayotgan boshqaruva mexanizmini shakllantirish uchun asos bulib xizmat qildi. Shu bilan bir qatorda ekologik muammolarni ekologik eksternaliyani internallashning xilma-xil instrumentlarini qullash vositasida xal etish xam keng tarqalgan.

### **Qisqacha xulosalar**

Menejment nazariyasi va amaliyotining shakllanish davri tadqiqotchilar tomonidan turt yunalishda taxlil qilinadi: Ilmiy menejment (1885-1990). AKSH da F. Teylor, G.Emerson va boshqalar tomonidan shakllantirilgan. Ular boshqaruva ta'lilotini: mexnatni tashkil etish va uni boshqarishning ilmiy asoslangan yunalishini ishlab chikish, boshqarish va mexnatni tashkil qilishning kompleks tizimi xamda mexnat unumдорлиги tamoyillariga urgu berishgan.

Mumtoz yoki ma'muriy menejment 1920-1950 yillarda Frantsiyada A. Fayol, M. Veber va boshqalarning ilmiy taqiqrtlari asosida shakllangan. Ular boshqaruva tamoyillari, vazifalari, samaradorligi shartlari, faoliyat

turlarini mivoviqlashtirish, nazorat qilish yunalishlarini tizimli yondashuvga tayanganlar.

«Insoniy munosabatlar maktabi» 1950 yildan xozirgacha davom etayotgan AQSH maktabi xisoblanadi. E. Meyor, D.Mak-Gregar, R.Maykert va boshqalar boshqaruvda inson omilini xar tomonlama taqiq etish, «insoniy munosabatlar» ta'limotini ishlab chikishni muxim tamoyil deb qarashadi.

Miqdoriy tizimli yoki zamonaviy menejment xam «Insoniy munosabatlar maktabi» singari 1950 yillardan xozirgacha davom etayotgan ilmiy maktab bulib, uning asoschilari - G. Saymon, P. Dureker, E. Deyl va bonhalardir.

«Ekologik menejment» ning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi maxalliy, mintaqaviy, mamlakatlar va global miqiyosda ekologik vaziyatning keskinlashuvi, atrof-muxit ifloslanishi va degradatsiyasining kuchayishi bilan bog'liq xolda XX asrning 70-yillaridan boshlandi. Bu, «Yangi ekologik davr» - atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishga mas'uliyatli munosabatda bulishning kuchayishi, sunggi uch un yillikda tabiatdan foydalanish va tabiatni muxofaza qilishni boshqarish soxasida xilma-xil ma'muriy nazorat va iqtisodiy dastaklar ishlab chiqilishi va amaliyatga joriy kilinoshining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Bozor muvaffakiyatsizliklaridagi tashki ekologik samarani internatsionallash vositasida tuzatish R. Kouza echimi, A. Pigu ekologik soliklari yoki ularning turlaridan foydalanish yuli xamda iqtisodiy-xuquqiy

yondashuv doirasida ekologik mas'uliyat xuquqi vositasida tashki samarani internallash usullarida amalga oshiriladi. A. Piguning ifloslantiruvchilarni soliqqa tortish buyicha modeli kupchilik mamlakatlarda atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishning nisbatan uylab amalga oshirilayotgan boshqaruv mexanizmini shakllantirish uchun asos bulib xizmat qildi.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” –T.: 2011.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.

## **IV-Mavzu. EKOLOGIK BOSHQARUV INSTRUMENTLARI**

### **4.1. Ekologik boshqaruv instrumentlari.**

### **4.2. Ekologik boshqaruv instrumentlari evolyutsiyasi.**

### **4.3. Ekologik siyosatning rivojlanish bosqichlari.**

Hozirgi vaqtida qullanilayotgan ekologik boshqaruv instrumentlari, ilgari qayd qilinganidek, ekologik siyosat doirasida asta-sekin

shakllanganligi va ma'muriy-nazorat va iqtisodiy dastaklarning etarli darajada muvozanatlashganligi bilan xarakterlanadi.

Atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishni boshqarish soxasi, boshqa soxalardan xalqaro miqiyosda kelishilgan tamoyillarning kuchli ta'sir etishi bilan ajralib turadi. Bunga BMT ikkinchi Jaxon konferentsiyasining atrof-muxit va rivojlanishga bagishlangan konferentsiyasi qarorlari (Rio-de-Janeyro, 1992), ushbu qarorni tasdiqlagan va ma'lum darajada rivojlantirgan Barqaror rivojlantirish buyicha Jaxon sammiti (Yoxansburg, 2002) xizmat qildi.

Barqaror rivojlantirish buyicha Jaxon sammitida «ifloslantiruvchi tulaydi» yondashuvi, barqaror rivojlanish va extiyotkorlik talablari ishlab chiqildi. Bu tamoyillar kupchilik mamlakatlar milliy ekologik va tabiiy resurs qonunchiligining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan va ularga kiritilgan. Shu bilan bir qatorda bu mexanizmlar turli mamlakatlarda xal etilayotgan ekologik muammolar, qullanilayotgan boshqarish va tartibga solishning milliy modeli, siyosiy, tarixiy, madaniy va boshqa omillarning uziga xos xususiyatlarga egaligi bilan farq qiladi.

Ekologik boshqaruvinstrumentlari evolyutsiyasi. Barqaror rivojlantirish buyicha Jaxon sammitida muxokama qilindi va umumiytendentsiya sifatida ifodalangan ekologik siyosat instrumentlari evolyutsiyasida bir necha bosqichlar ajratilib kursatiladi (1-jadval).

Birinchi, dastlabki bosqich (1970-1983 y) uchun ekologik siyosat va «Ekologik menejment» da quyidaagi tamoyillar etakchi urinni egallagan:

- «Ifloslantiruvchi tulaydi», ya'ni ifloslantiruvchi tabiiy muxit muxofazasiga etkazilgan zararni tulash va shunga mos xarajatlarni koplashga mas'uldir (javobgardir);
- tabiiy muxitning mavjud sifat darajasini yomonlashtirmaslik;
- ifloslanishni tusish («eksportga» yul quymaslik) va uning paydo bulish joylarida nazorat qilish («quvurning oxiri» texnologiyasini qullah asosida);
- amalga oshirsa buladigan texnologiyalardan eng yaxshisini qullah;
- ifloslanishning «shart bulmagan» shakllarining oldini olish.

Bu bosqichda atrof-muxitni muxofazalash nuqtai nazaridan qishloq xujaligi, sanoat va transport, shuningdek yuqori axoli zichligiga ega bulgan sanoat rayonlari iqtisodiyotining maqsadli sektorlari bulgan mintaqaviy idoralar tomonidan korxonalarga etkaziladigan emissiya standartlari, shuningdek, emissiya standartlariga javob beradigan ifloslanish darajasiga maxsus ruxsatnomalar berish ekologik siyosatning asosiy instrumentlari qatorida bulgan.

Bular aksariyat ma'muriy-nazorat mexanizmlari bulib, unda asosiy qarorlar asosiy ijrochilar-steyk-xolderlar fikrlari va manfaatlarini xisobga olmay yuqoridan-pastga qarab qabul qilingan edi.

Ekologik siyosat soxasida hal etilmagan muammolardan quyidaagilarni kursatish mumkin. Umumiylashtiruvchi mas'uliyatning yuqligi qator xujalik yurituvchi sub'ektlarga atrof-muxit muxofazasida ishtirok etishdan uzini olib qochish imkonini berdi.

### 1 -jadval<sup>3</sup>

#### **Ekologik siyosat instrumentlari evolyutsiyasi**

<b>№</b>	<b>Bosqichlar, maqsadlar yunalishi</b>	<b>Ekologik siyosatning asosiy vazifasi</b>	<b>Boshqaruv qarorlari usullari (uslubi)</b>	<b>Asosiy instrumentlar</b>
1	1970-1983. Tabiatdan foydalanish va atrof-muxit muxofazasi soxasining shakllanishi: axoli salomatligi muxofazasi maqsadlarida ekologik axvolni yaxshilash	Atmosfera xavosi va suv resurelari ifloslanishini kamaytirish va sifatini yaxshilashni qullab-quvvatlash, tuproq ifloslanishini kamaytirish	Yukoridan-pastga: steyk-xolderlar manfaatlarni xisobga olmagan xolda milliy ekologik qonunchilik va sifat standartlarini shakllanishi	Milliy va Evropa ekologik qonunchiligi, mintaqaviy xokimiyatning tabiatdan foydlanuvchilarni litsenziyalashi, «quvur oxiri» texnologiyasi
2	1984-1989. Ifloslanishni bartaraf qilishni ragbatlantirish: axoli salomatligini va ekotizimlarni saqlashni xisobga olib atrof-muxitni muxofazalash	Atmosfera xavosi, tuproq-er, suv resurslari va bioxilma-xillikni saqlash, ATM ifloslanishini bartaraf etish	Steyk-xolderlarni texnologiyani va vaqt chegarasini tanlash erkinligini berish yuli bilan ekologik dasturlarni ishlab chiqish va bajarishga jalb etish	Ifloslantiruvchi moddalarni buyicha standartlar; «masuliyat va extiyotkorlik dasturi» (RCP), atrof-muxit muxofazasi buyicha agentlik (ERA) ekoloogik protseduralarning qattiq qullanilishi
3.	1990-1999. Ekologiyadagi tadbirlarni ragbatlantirish: avvalgi choralar parallel ravishda global darajada atmosfera xavosi sifati uchun mas'uliyat qabul qilish.	Xalqaro soxalarga e'tiborni kuchaytirish: kislotali yomgirlar muammolari, iqlimning global isishi va azon ekranining kamayishi	Ekologik maqsad kursatkichlarini belgilash, ularni ishlab chiqish va amalga oshirish buyicha mintaqaviy xokimiyatga va kompaniyalarga muxtoriyat berish	Maqsadlarni quyish, maqsadli guruxlar, ekologik shartnomalar, instrumentlar, kichik va urta firmalarga umumiy qoidalari qullash
4	2000-xozirgi vaqtgacha. Barqaror rivojlanishga yondashuvlarni optimallash: atrof-muxit muxofazasi muammolarini tarmoqlararo echish usullarini topishga va mos manfaat olishga kumaklashish (aktsent)	Global bioxilma-xillik, energiya resurslari, mineral zaxiralaridan foydalanishni cheklash va boshqarishni yaxshilashga qushimcha e'tibor berish va boshqalar	Xalqaro va milliy darajada ekologik, iqtisodiy manfaatlarni uzaro moslashtirish, birlashtirishga yangi yondashuvlarni rivojlantirish, shu jumladan, munitsipial darajada	Global resurslar buyicha maq-sadlar quyish; tarmoqlararo ekologik formulalar, «upiruvchi» texnologiyalar; tugri baxolarni urnatish; iste'molchining mukobil, barqaror iste'mol usulini tanlash.

<sup>3</sup> Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.

Ekologik qonunchilik va uni amalga oshirish protseduralarining ichki nomuvofiqligi oqibatida ekologik muammolar bir soxadan boshqasiga kuchirilishining saqlanib qolishi va boshqalar.

Ikkinchchi bosqichda (1984-1989 yillar) ekologik manfaatlar soxasi jiddiy kengaytirildi, shu jumladan global ekologik muammolarga (kislotali yomgirlar, bioxilma-xillikni qullab-quvvatlash, ozon ekrani qisqarishi), birinchi bosqichda xal etilmagan masalalarga (chiqindilarni joylashtirish va utilizatsiyalash, tuproq va suv xafzalari ifloslanishi, shovqin bilan atrof-muxit ifloslanishi, axoli salomatligi uchun xavfsizlik standartlariga rioya qilish va b.) e'tibor kuchaydi.

Bu davrda boshqaruv qarorlarining yangi uslubi shakllana boshladi va u ifloslantiruvchilarni u yoki bu darajada bir xil guruxlarga (maqsadli guruxlarga) identifikasiyalash (aynan tenglashtirish) va ularning xar bir guruxi uchun eng keskin ekologik muammolarni echish usullarini muxokama qilish va ishlab chiqishga jalb etishda namoyon buldi.

Xususan, xukumat va xususiy korxonalar urtasida «ekologik» muzokaralar utkazish va bitimlar tuzish tajribalari tuplandi. Korxonalar e'tiboriga etkaziladigan atrof tabiiy muxitni ifloslanishiga ruxsatlar (litsenziyalar) saqlab qolningan xolda tegishli emissiya standartlarini joriy qilish kup darajada ifloslanishning bartaraf etilishi buyicha chorralarga yunaltirila boshladi. Emissiya standartlarini barcha xarakatidagi ifloslantiruvchi manbalarga, shuningdek, turli chiqindilar uchun etkazib berilishi qat'iy ahamiyatga ega buldi.

Instrumentlarning (iqtisodiy instrumentlarni xam qushib) kengaytirilgan majmuidan foydalanish yanada ochiqroq ekologik boshqarish uslubiga utish talablariga javob berdi.

Ular qatoriga quyidaagilar kiradi:

- mikrodarajada atrof-muxitni muxofaza qilishni boshqarishda qullaniladigan mas'uliyat va extiyotkorlik dasturi (RCP), moliyaviy ragbatlar, atrof tabiiy muxitni avariya xolatida ifloslantirish uchun ekologik javobgarlik tizimi, atrof tabiiy muxitga ta'sirni baxolash (ATMTB) kiradi.
- Ekologik qonunchilikdagi bushliq va nomivoviqliklarni bartaraf qilishga umummilliy atrof-muxitni muxofaza qilish tugrisidagi akt (ERA) yordam berdi.

Uchinchi bosqich (1990-1999 yillar) vazifalari va ekologik siyosatning yangi instrumentlari bir tomonidan, Chernobil (Ukraina), Bxopal (Xindiston) xalokatlari, boshqa tarafdan, 1987 yilda BMT, Atrof-muxit va rivojlanish buyicha Komissiyasining «Bizning umumiyl kelajagimiz» mavzuidagi xisoboti nashr qilinishi va ekologik siyosat buyicha birinchi Milliy rejaning qabul qilinishi (1989 yil) ta'sir ostida quyildi va puxta ishlab chiqildi.

Shu munosabat bilan quyidaagi aniq maqsadlar quyildi: ifloslanish buyicha chiqarib tashlashlarni 70-90%ga kamaytirish yuli bilan ekosamaradorlik darajasini oshirish, energetika resurslaridan foydalanish va SOGni chiqarish darajasini barqarorlashtirish, foydalanilgan materiallarni 75% gacha qayta davrlashtirishga erishish va boshqalar.

Ularga erishish uchun yopiq moddiy-xomashyo davrlarini shakllantirish, ishlab chiqarishning energiya sigimini kamaytirish va tiklanadigan energetika resurslarini qullash xisobiga barcha choralar bilan energiyani tejash rejalashtirildi. Milliy ekologik muammolar bilan bir qatorda xalqaro masalalar, ozon ekranini kamaytirishga olib keladigan parnik (issikxona) gazlari va freonlarni chiqarib yuborishni xam qushib, maxsus extiyoj soxasiga aylandi.

Bioxilma-xillik resurslarini muxofaza qilish maqsadida mamlakatning 15% xududi ekotizimlarining yuqori sifatini qullab-quvvatlash tugrisida qaror qabul qilindi. Shu davrda ochik va demokratik uslubdagi bohqaruvni va unga mos mexanizmlarni shakllantirish davom etdi. Atrof-muxit muxofazasi soxasida mintaqaviy va maxalliy xokimiyatlarga shuningdek, xususiy korxonalarga, shu jumladan, ekologik siyosat buyicha milliy rejalar vazifalarini bajarish va mivoviqlashtirish buyicha xam yanada keng xuquqlar berildi.

Bu xuquqlar, maqsadli kursatkichlarga erishishda vaqt ramkasini mustakil aniqlashga tegishlidir. Natijada ekologik tartibga solish mexanizmining markaziy elementi sifatida emissiya standartlarini saqlab qolish sharoitida «bajarish jarayonida urgatish» shaklidagi yangi boshqarish uslubi qaror topdi.

Turtinchi bosqich (2000 yildan xozirga qadar) uchun bir tomondan, ekologik muammolarni tarmoqlararo yondashuv asosida xal etishni izchil amalga oshirishning qaror topishi, boshqa tomondan, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar va maqsadlarni mivoviqlashtirishning samarali

mexanizmlarini qidirishning davom etishi xarakterlidir. Bu davrda ayrim korxonalar imkoniyatlariga asoslanish atrof-muxit muxofazasi va resurslarni tejash soxasida kordinal siljishlarni amalga oshirish uchun etarli emasligi ma'lum bulib qoldi.

Tabiat muxofazasini tarmoqlararo va sektorlararo asosda mivoviqdashtirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Shuningdek, xam ijtimoiy-iqtisodiy, xam ekologik farovonlikning yukori darajasiga erishish uchun integral yondashuvni amalga oshirish muximdir. Yuqorida taxlil kilingan ekologik siyosatning instrumentlari evolyutsiyasi Uzbekistan uchun xam katta kizikish uygotdi va ulardan mamlakatdagi ekologik menejmentning kuplab muammolari echimini topishda foydalanish mumkin.

### **Qisqacha xulosalar**

Atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishni boshqarish soxasida BMT ikkinchi Jaxon konferentsiyasining atrof-muxit va rivojlanishga bagishlangan konferentsiyasi, Barqaror rivojlantirish buyicha Jaxon sammitining xizmatlari ayniqsa katta. Barqaror rivojlantirish buyicha Jaxon sammitida ishlab chiqilgan «ifloslantiruvchi tulaydi» yondashuvi kupchilik mamlakatlar milliy ekologik va tabiiy resurs konunchiligining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. U ekologik muammolar, qullanilayotgan boshqarish va tartibga solishning milliy modeli, siyosiy, tarixiy, madaniy va boshqa omillarning uziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Barqaror rivojlantirish buyicha Jaxon sammitida muxokama qilindi va

umumiyligi tendentsiya sifatida ifodalangan ekologik siyosat instrumentlari evolyutsiyasi bir necha bosqichlar ajratiladi:

Birinchi bosqichning etakchi tamoyillari:

- A. «Ifoslantiruvchi tulaydi», ya'ni ifoslantiruvchi tabiiy muxit muxofazasiga etkazilgan zararni tulash va shunga mos xarajatlarni koplashga mas'uldir (javobgardir);
- B. Tabiiy muxitning mavjud sifat darajasini yomonlashtirmaslik;
- C. Ifloslanishni tusish («eksportga» yul kuymaslik) va uning paydo bulish joylarida nazorat qilish («kuvurning oxiri» texnologiyasini kullash asosida);
- D. Amalga oshirsa buladigan texnologiyalardan eng yaxshisini qullash;
- G. Ifloslanishning «shart bulmagan» shakllarining oldini olish.

Ikkinci bosqichda ekologik manfaatlar soxasi kengaytirildi: global ekologik muammolarga (kislotali yomgirlar, bioxilma-xillikni qullab-quvvatlash, ozon ekrani qisqarishi), birinchi bosqichda xal etilmagan masalalarga (chikindilarni joylashtirish va utilizatsiyalash, tuproq va suv xavzalari ifloslanishi, shovqin bilan atrof-muxit ifloslanishi, axoli salomatligi uchun xavfsizlik standartlariga rioya qilish va boshqa e'tibor kuchaydi.

Uchinchi bosqich vazifalari va ekologik siyosatning yangi instrumentlari quyidaagilarga bog'liq, buldi: Chernobil (Ukraina) voqealarini; Bxopal (Xindiston) xalokatlari; 1987 yilda BMT Atrof-muxit va rivojlanish buyicha Komissiyasining «Bizning umumiyligi kelajagimiz»

mavzuidagi xisoboti nashr qilinishi va ekologik siyosat buyicha birinchi Milliy rejaning qabul qilinishi.

Turtinchi bosqichning muxim yunalishlari - ekologik muammolarni tarmoqlararo yondashuv asosida xal etishni izchil amalga oshirishning qaror topishi, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar va maqsadlarni mivoviqlashtirishning samarali mexanizmlarini qidirishning davom ettirishdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Ekologik boshqaruv instrumentlari deganda nimani tushunasiz?
2. Ekologik boshqaruv instrumentlari bilan ekologik siyosat urtasida qanday bog'liqdik bor?
3. Ekologik boshqaruvning ma'muriy-nazorat va iqtisodiy dastaklariga nimalar kiritiladi?
4. Ekologik boshqaruvning iqtisodiy dastaklariga nimalar kiritiladi?
5. BMT ikkinchi Jaxon konferentsiyasining kun tartibidagi asosiy masala nimadan iborat bulgan?
6. Barqaror rivojlantirish buyicha Jaxon sammiti qachon va qayerda utkazilgan?
7. Ekologik boshqaruvning milliy mexanizmi qanday masalarni qamrab oladi?
8. Ekologik siyosatning rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering.
9. Birinchi bosqichda qaysi davrni qamrab oladi va uning bosh maqsadi nimalardan iborat?

10. Ikkinchi bosqichda ekologik manfaatlar soxasining kengaytirilishiga nima turtki bo'ldi?
11. Uchinchi bosqichning ajratilishidan maqsad nima va u qanday tamoyillarga asoslanadi?
12. Turtinchi bosqich mamlakatimiz uchun qanday axamiyatga ega?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" -T.: 2011.
2. Milliy ma'ruza. -T., O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, Z. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.
6. <http://www.murman.ru> <<http://www.murman.ru>> (ecology) comitet.
7. [www.ecology.com](http://www.ecology.com).
8. [www.ecologyandsociety.org](http://www.ecologyandsociety.org) <<http://www.ecologyandsociety.org>>.
9. [www.ecologycenter.org](http://www.ecologycenter.org) <<http://www.ecologycenter.org>>.

# **V-Mavzu. EKOLOGIK MENEJMENT INSTRUMENTLARINING TARKIBIY TUZILISHI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**5.1. Ekologik menejment instrumentlarining tarkibi.**

**5.2. Ekologik menejment instrumentlarining xususiyatlari.**

**5.3. Axloqiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlari.**

**5.4. Atrof muxit muxofazasi monitoring tizimlari.**

**Ekologik menejment instrumentlarining tarkibi.** Ekologik tartibga solish va ragbatlantirishning xozirgi mexanizmi goyat murakkab bulib, ular quyidaagi instrumentlar guruxini uz ichiga oladi:

1. Ekologik boshqaruvning ma'muriy-nazorat instrumentlari;
2. Atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishning iqtisodiy instrumentlari;
3. Ekologik menejmentning axlokiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlari.

Ekologik boshqaruvning ma'muriy-nazorat instrumentlari ham yuridik (korxonalar, tashkilotlar), ham jismoniy shaxslar faoliyatining ekologik natijalariga tutridan-tugri ta'sir kursatishga muljallangan bulib, ular konunlar va boshqa tartibga solish vositalari orqali amalga oshiriladi, bunda ushbu shaxslar tomonidan quyilgan maqsadlar, standartlar, reglamentlar va boshqalarga amal qilinishi va ularga erishilishi nazorat qilinadi.

Ekologik boshqaruvning ma'muriy-nazorat instrumentlariga quyidaagilar kiradi:

- Ekologik va tabiiy-resurs qonunchiligi, shuningdek, umumiyligida (fuqaro, jinoiy, ma'muriy qonunchilikda) ekologik talablar;
- Ekologik monitoring;
- Ekologik standartlar va me'yorlar;
- xarakatlanuvchi manbalarning ifoslantiruvchi moddalarni chiqarishi (tashlashi) me'yorlar va limitlari;
- chiqindilar (zaxarli) paydo bulishi va joylashishi me'yorlari;
- suv olish va urmondan foydalanish limitlari; bioresurslarni olishga (foydalanish, ovlash) kvotalar;
- aloxida muxrfaza qilinadigan xududlarni borib kurish me'yorlari;
- yovvoyi ov xayvonlarini ovlash, yovvoyi usimliklarni yig'ish me'yorlari;
- aniq joylarda ifoslantiruvchi faoliyat turlarini joylashtirishga, toksik (zaxarli) moddalar va og'ir materiallardan foydatanishga taqiqlashlar.

#### 4. Xo'jalik faoliyatini litsenziyalash:

- Atrof- tabiiy muxitga va odamlar salomatligiga ta'sir bilan bog'liq bulgan faoliyat;
- ekologik monitoring va nazoratni ta'minlovchi faoliyat.

#### 5. Ekologik sertifikatlash (markirovka).

#### 6. Atrof-muxitga ta'sirni baxolash (OVOS) va loyixalarning ekologik ekspertizasi.

#### 7. Ekologik va resurs maqsadli dasturlari.

#### 8. Ekologik audit.

Bu instrumentlar qattiq richaglarga (1,3,4 raqamdagilar) va yumshoq tartibga solishga (qolgan boshqa raqamdagilar) bulinadi. Bu instrumentlarning kupchiliga talabalarga ilgari utilgan maxsus uquv fanlaridan ma'lum (tegishli uquv qullanmalariga qarang). Ularning ayrimlariga ushbu uquv qullanmaning navbatdagi boblarida ta'rif beriladi.

Iqtisodiy instrumentlar ayrim korxonalar yoki umuman jamiyat uchun maqsadlar va ularga amal qilishning qattiq nazorati buyicha tug'ridan-tug'ri topshiriqlar bulmay, balki xujalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy manfaatlari va iqtisodiy xulq-atvoriga ekologik maqbul yunalishlarda bozor stimullari (rag'batlari) bilan ta'sir kursatish xisoblanadi. Bu xolatda iqtisodiy agentlarga ijtimoiy axamiyatga ega bulgan tabiat muxofazasi maqsadlariga erishishning samarali yollarini qidirishga katta erkinlik beriladi.

### **Iqtisodiy instrumentlarning tarkibi quyidaagilardan iborat:**

#### **1. Bozorga yunaltirilgan instrumentlar:**

- tabiiy resurs tulovlari va atrof-muxitni ifloslantirganlik uchun tulovlar;
- iqtisodiy oborot (aylanish)ga tushadigan tabiiy resurslarga bozor baxolari;
- tabiiy muxitni ifloslantirishga xuquqlarni sotib-olish sotish mexanizmlari;
- garovga quyish tizimlari;
- bozor baxosi korrektsiyasi va ishlab chiqaruvchilarni qullab-quvvatlash maqsadida intervatsiya (shu jumladan qayta davrlanayotgan chiqindilar uchun ham);
- bevosita bozor muzokaralari usuli.

#### **2. Moliya-kredit instrumentlari:**

- tabiat muxofazasi tadbirlarini moliyalashtirish shakllari va instrumentlari;
- atrof-muxit muxofazasining kredit mexanizmi, zayomlar, subsidiyalar;
- tabiat muxofazasi jixozlarining tezlashgan amortizatsiya rejimi(tartibi);
- ekologik va resurs soliqlari;
- ekologik xavfni sugurtalash tizimi.

Bu usullarning tarkibida bozor va moliya-kredit richaglari va ragbatlantirishlarini ajratish mumkin. Ular ushbu qullanmaning tegishli boblarida ta'riflanadi. Axloqiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlari ekologik tartibga solish va rag'batlantirishda kupincha yuqorida ta'riflangan birinchi va instrumentlar guruxi bilan bирgalikda qullanadi. Ular boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida tas'ir qilish yoki ishontirish, tug'ridan-tug'ri bevosita va bilvosita individual mas'uliyatlarini amalga oshirishda foydalaniladi.

**Aхлоқиј-ма'навиј та'сир ва исҳонтириш инструментлари** таркибига quyidaagilar kiradi:

- ta'lim va tarbiya;
- axborotlardan foydalanish;
- o'rghanish;
- ijtimoiy bosim;
- muzokara jarayonlari;
- ixtiyoriy bitimlar.

Bulardan atrof tabiiy muxit muxofazasi va tabiiyatdan foydalanishni samarali boshqarishni mikrodarajada tashkil etishda ixtiyoriy ekologik bitimlar birinchi navbatda qizikish uyg'otadi. Ixtiyoriy ekologik bitimlar

ekologik tartibga solish idoralari bilan firmalar urtasida xamkorlik tugrisidagi shartnama varianti xisoblanadi va ular standart buyruk (komanda) - nazorat va bozorga yunaltirilgan ekologik siyosat instrumentlariga quishmcha bulib xizmat qiladi.

Ekologik siyosat va kooperatsiyalashtirish soxasida iqtisodiy ekologik bitimlar (IEB) innovatsiya qarorlari misol bulib xisoblanadi. U (IEB) an'anaviy boshqarish yondashuvlarining cheklanganligini bartaraf qilishga muljallangan va xozirgi zamonning ekologik da'vatiga, shu jumladan, barqaror rivojlanish va ekologik, iqtisodii va ijtimoiy maqsadlarni mivofiqlashtirish talablariga javob tariqasida shakllangan.

Ixtiyoriy ekologik bitimlarning innovatsionligi shundaki, birinchidan, firmalar, tarmoqlar va boshqalar birlashib, yangi kuchga aylanadilar va ular bilan davlat xam xisoblashadi, ikkinchidan, xam siyosiy tuzilish, xam biznes ularining ikki strategiyasini anglay boshlaydi va umumiyligi boshqarishga uziga xos xissa qushish bilan ishtiroy etadi. Bunda davlat strategiyasi quyidaagicha bulishi mumkin:

- 1) atrof-muxit muxofazasi maqsadlarida biznes ishlariiga «buyruq» (komanda) instrumentini kuplab aralashtirish;
- 2) biznes bilan birgalikda (yoki biznes taklifini qabul qilish) uzaro kelishuvga asosan kelishilgan qarorni ishlab chiqish.

Biznes, uz navbatida, davlat tomonidan aralashuvga kutish va sabr-toqat bilan munosabatda bulish strategiyasi yoki kelishuvga asoslangan qarorni ishlab chiqish strategiyasini qabul qilishi mumkin. Ixtiyoriy ekologik bitimlar katta individual va ijtimoiy naf keltiradi: biznes uchun

ma'muriy-buyruqbozlik asoratlaridan qutulish va yangi ekologik vakolatlarga ega bulish imkonini beradi; tartibga soluvchi idoralar uchun esa xarajatlar va ziddiyatlarni kamaytirishga olib keladi.

Ixtiyoriy ekologik bitimlar tuzish rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 90-yillaridan amalga oshirila boshladi. AQSH da bunday bitimlar tuzish 1992 yilda «Atrof-muxit uchun sherikchilik» dasturi doirasida 1300 kompaniya bilan tuzildi. IEB tuzish, ayniqsa, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida keng tarqalgan. Turli maqsadlarni kuzda tutadigan bunday bitimlar asosan quyidaagi ikki xil shaklda tuziladi:

- muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar;
- ixtiyoriy dasturlar.

**Atrof-muxit muxofazasi monitoring sistemalari.** Atrof muxit muxofazasi va uni monitoringini tashkil etish milliy va mintaqaviy jixatdan muxim axamiyat kasb etadi. Shu bois, bu tizimni xalqaro darajada shakllantirish va kuzatish sistemalarini kengaytirish global maqsadlarga xizmat qiladi. Ayni maqsadlarga xizmat qilayotganlarning eng mashxurlari sifatida quyidaagilarni keltirish mumkin:

**Tabiatni muhofaza qilish butun dunyo monitoring markazi-  
World Conservation Monitoring Center (WCMC).** Tashkil topgan yili-1981 y. Ishtirok etuvchilar: MSOP, VVF. Maqsadlari:

- ilmiy tadqiqot va taxlil natijalariga asoslangan tulik va yangi axborotlarni taqdim etish yuli bilan tabiatni muxofaza qilish va barqaror rivojlanirish dasturlarini qullab-quvvatlash.

**Asosiy faoliyati:** - yuq bulib ketish xavfi ostida turgan usimlik va xayvonlar turlari buyicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- yashash joyi buyicha aloxida axamiyatga ega;
- quriqlash territoriyasi va xalqaro axamiyatga ega maydonlar buyicha;
- milliy axborot markazlarini yaratishda yordam kursatish;
- xalqaro elektron tarmoq orqali ma'lumotlarni taqdim etish va x.k.

**Resurslar xaqida global axborot ma'lumotlar bazasi** (TRID-YUNEP) -Global Resource International Database (CRID-UNEP) - Tashkil topgan yili: 1985 y. Ishtirok etuvchilar: BMTga a'zo mamlakatlar. Maqsadlari:-atrof-muxit xolati xaqidagi ma'lumotlarni yigish va tarqatish.

**Asosiy faoliyati:** -atrof-muxit buyicha ma'lumotlarni boshqarish yangi texnologiyalariga yul ochib berish;

- milliy darajada atrof-muxitni baxolash va boshqarish uchun davlatlarga GRID texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini yaratish;
- maxalliy, mintaqaviy va global miqiyosda ma'lumotlarni taxlil qilish usullari va tartibini yaratish;
- nisbiy izlanishlar utkazish va qaror qabul qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish.

**Axborot va atrof olamni kuzatish buyicha Evropa tarmoqi** - (European Environment Information and Observation Network). Tashkil topgan yili: 1990 y. Ishtirok etuvchilar: Evropa Soyuziga a'zo davlatlar. Maqsadlari:-atrof-muxitni muhafaza qilish xaqidagi xujjatlarni, yuridik adabiyotlarni, qonunchlk tug'risidagi axborotlari yig'ish, taxlil qilish.

**Asosiy faoliyati:** -milliy axborot tarmoqlarini birlashtirish, atrof-muxitni muxofaza qilishning ba'zi bir muammolari (suv, xavo va boshqa narsalarning sifati) buyicha axborot xamkorligini urnatish.

**Atrof-muxitni muxofaza qilish soxasidagi qonunlar buyicha axborot tizimi:**

-Environmental Low Information System (ELIS). Tashkil topgan yili: 1970 y. Ishtirok etuvchilar. MSOP a'zoligidagi tashkilotlar.

**Maqsadlari:** - atrof-muxitni muxofaza qilish xaqidagi xujjatlarni, yuridik adabiyotlarni, qonunchilik tug'risidagi axborotlarni yig'ish, taxlil qilish va tarqatish.

**Asosiy faoliyati:**

- bibliografik kursatkichlar sistemasini va fondda mavjud xujjatlar xaqidagi ma'lumotlar bazasini yaratish (xujjat turi, foydalanish soxasi, vakolat doirasi, qaysi tilda uqish mumkinligi, mazmuniga kursatmalar);
- qonun chiqarish aktlarida kursatilgan fauna va flora turlari ruy'xatini olib borish;
- quriqlash territoriyalari buyicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- xalqaro kelishuvlarga, Evropa xamjamiyatining ekologiya buyicha qonun chiqarishlariga axborot xizmatlarni taqdim etishga bagishlangan nashrlarni chop etish.

**Atrof-muxitga bagishlangan xalqaro axborot tizimi** (INFOTERRA) - International Environmental Information System (INFOTERRA). Tashkil topgan yili: 1977 y. Ishtirok etuvchilar: 149 mamlakat.

**Maqsadlari:** - axborot tarqatuvchi va foydalanuvchi orasidagi aloqani urnatishga yordam berish, atrof-muxit muammolariga bag'ishlangan ma'lumotlar bilan almashish. axborot resurslarini birlashtirish.

**Asosiy faoliyati:** - axborot, vositachilik va maslaxat xizmatlarini kursatish:

- uqish dasturlarini va kasb-xunarga tayyorlashni amalga oshirish;
- milliy va mintaqaviy koordinatsion markaz tarmoqlarini yaratish, ma'lumotnomasi, tezarus, maxsus nashrlarni chop etish.

**"Yerni urganish" axborot xizmati** - Eorthscon. YUNEP qoshidagi ob-xavo uzgarishiga ixtisoslashgan axborot bulimi -Information Unit on Climate Change UNEP.

**Atrof olam va tabiat resurslari buyicha xalqaro axborot xizmati**  
- International Environmental and Natural Resources Information service (INTERAISE). Atrof muxitni kuzatish va axborot tuplash buyicha Evropa tarmogi - European Environment Information and Observation Network va boshqalar.

Shunday qilib, dunyoda atrof-muxitning urganish monitoringiga juda kup e'tibor qaratilmoqda. Bu albatta tugri va mashxur jumlanisini ozgina uzgartirib quyidaagicha aytish mumkin: «axborot dunyoni qutqaradi». Tabiat bilan bog'liq xodisalarni tushunib etgandagina, atrof-muxit uchun xalokatga olib keladigan xamma faktorlarni bilish, zararli moddalarni tarqalishi va utish usullarini bilish, shuningdek tabiatni muxofaza qilish

bilan bog'liq savollarni echimini bilish bizga dunyoni qutqarishda yordam berishi mumkin.

Axborot sistemalari bugungi kunda juda muxim bulib qoldi, chunki xar qanday odam yoki tashkilot yoki uz uyidan chiqmasdan turib internet orqali xoxlagan ma'lumotni olishi mumkin. Tabiatni muxofazalovchi xar xil tashkilotlar orasidagi uzaro ta'sir anchagina soddalashdi va mustaxkamlandi. Atrof muxitni ximoya qilishga bagishlangan xattixarakatlarni boshqarish imkoniyati tugildi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ekologik tartibga solish va rag'batlantirish instrumentlari ma'muriy-nazorat, atrof - muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanish, xamda axloqiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlaridan iborat. Ma'muriy-nazorat instrumentlari qonunlar va boshqa tartibga solish vositalari orqali amalga oshirib, shaxslar tomonidan quyilgan maqsadlar, standartlar, reglamentlarga amal qilinish natijaga erishishni nazorat qilinadi va quyidaagilarga ajratiladi:

- Ekologik va tabiiy-resurs qonunchiligi. shuningdek, umumiyligida (fuqaro, jinoiy, ma'muriy qonunchilikda) ekologik talablar.
- Ekologik monitoring.
- Ekologik standartlar va me'yorlar:
- Xujalik faoliyatini litsenziyalash:
- Ekologik sertifikatlash (markirovka).
- Atrof-muxitga ta'sirni baxolash (OVOS) va loyixalarning ekologik ekspertizasi.

- Ekologik va resurs maqsadli dasturlari.
- Ekologik audit.

**Iqtisodiy instrumentlarning tarkibi** quyida agilardan iborat:

- Bozorga yunaltirilgan instrumentlar;
- Moliya-kredit instrumentlari.
- Axloqiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida tasir qilish yoki ishontirish, tugridan-tugri bevosita va bilvosita individual mas'uliyatlarini amalga oshirishda foydalaniladi. Axloqiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlariga ta'lim va tarbiya, axborotlardan foydalanish, urganish, ijtimoiy bosim, muzokara jarayonlari, ixtiyoriy bitimlar kiritiladi.

Ixtiyoriy ekologik bitimlar ekologik tartibga solish idoralari bilan firmalar urtasida xamkorlik tugrisidagi shartnoma varianti xisoblanib, u rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 90-yillaridan amalga oshirila boshladi. AKTL da bunday bitimlar tuzish 1992 yilda «Atrof-muxit uchun sherikchilik» dasturi doirasida 1300 kompaniya bilan tuzildi. IEB tuzish, ayniqsa, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida keng tarqagan. Turli maqsadlarni kuzda tutadigan bunday bitimlar -muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar va ixtiyoriy dasturlar shaklida tuziladi. Muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar tartibga soluvchi idoralar bilan firmalar urtasida ma'lum ekologik maqsadlarni amalga oshirish buyicha tuziladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Ekologik tartibga solish va ragbatlantirish instrumentlari deganda nimani tushinasiz?

2. Ekologik tartibga solish va ragbatlantirish instrumentlari qanday guruxlarni uz ichiga oladi?
3. Ekologik boshqaruvning ma'muriy-nazorat instrumentlarini ta'riflang.
4. Ekologik boshqaruvning ma'muriy-nazorat instrumentlarini tarkibini tushintiring.
5. Atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishning iqtisodiy instrumentlari deganda nimani tushinasiz?
6. Ekologik menejmentning axloqiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlari mexanizmini tushintiring.
7. Ekologik, tabiiy-resurs va umumiyligini qonunchilikka quyiladigan ekologik talablar.
8. Ekologik monitoring va uni utkazish tartibini tushintiring.
9. Ekologik standartlar va me'yorlar qabul qilish tartibi va mexanizmlari.
10. Xujalik faoliyatini litsenziyalashning moxiyati nimada?

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” –T.: 2011.
2. Milliy ma'ruza. -T., Uzbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. O'quv qullanma. T.: 2004.

## **VI-Mavzu. BARQAROR EKOLOGIK RIVOJLANISH VA EKOLOGIK MENEJMENT**

**6.1 Barqaror ekologik rivojlanish kontseptsiyasi.**

**6.2. Barqaror ekologik rivojlanish sharoitlari va uni boshqarish zaruriyati.**

**6.3. Tabiatni muxofaza qilish va uni boshqarishda xalqaro xamkorlik.**

**Barqaror ekologik rivojlanish kontseptsiyasi.** Ekologik muammolar uzoq muddatli xarakterga ega bulib, turli avlodlarning manfaatlariga daxldor. Shu sababdan global va mintaqaviy ekologik muammolar dunyoning barcha mamlakatlarida ekologik rivojlanishga qat'iy yangi yondashuv asosida xal etilishi mumkin. 1992 yilda Rio-de-Janeyro (Braziliya)da utkazilgan BMTning atrof-muxit va rivojlanishga bagishlangan Jaxon konferentsiyasida ishlab chiqilgan va dunyoning barcha mamlakatlariga tavsiya qilingan barqaror rivojlanish kontseptsiyasi ana shu talablarga javob beradi.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasiga mivoviq xozirgi xar bir avlod kelajak avlodlarga kamaytirilmagan tabiiy kapitalni qoldirishi kerak. Shunga mivofig barqaror rivojlanishga utishda xar bir mamlakatda boshqarish strategiyasini uzgartirish zarur. Bunda barqaror rivojlanish, atrof-muxit, iqtisodiyot, ijtimoiy adolat va xavfsizlik o'rtaсидаги о'заро aloqalar tula aks ettirilishi lozim. Barqaror rivojlanish strategiyasi tuzilishi quyidaagi uch soxani qamrab olishi darkor: iqtisodiyot, ekologiya (atrof-muxit) va ijtimoiy natijalar (adolat va muxofazalqilnganlik).

Shu asosda barcha mamlakatlar uchun kelajakda barqaror rivojlanishning oltita shartini ifodalash mumkin:

1. Tabiatdan foydalanishni, iqtisodiyotni, jamiyatning fe'l-atvorini boshqarishni qayta uzgartirish, eng avvalo, jamiyatning fe'l-atvorini qayta uzgartirish noosfera goyasiga asoslanib, barqaror rivojlanishga tomon xarakatning natijasi esa individual mas'uliyatni oshirish bilan bog'liq bulishi kerak. Bunda xokimiyat xususiy tashkilotlar, individlarning xulq-atvori tubdan uzgartirilishi talab qilinadi. Odamlar ongida ishlab chiqarish va iste'molning noratsional modelini cheklash va bartaraf etish goyasi xar tomonlama tushunarli tarzda mustaxkam urnashishi kerak.

2. Tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish va u bilan bog'liq xolda ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash xamda atrof-muxitga zararli moddalar chiqarishni keskin kamaytirishga asoslanib, iqtisodiyot samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot yuqori darajada samarador bulishi, uning samaradorligini doimiy ravishda oshirib borish esa xar bir mamlakat rivojlanishining asosiy ustuvor yunalishi bulishi kerak.

3. Tabiiy tizimlarni muxofaza qilishning yangi yondashuvi ifoslantiruvchilarni mutlaq (absolyut) xisobga olishga emas, balki nisbiy xisobga olishga va jamiyatga foyda keltirishni taqqoslashga asoslanishi kerak. Shunday yondashuv va talablar tabiiy resurslar iste'molchi xarakatining uzgarishiga va doimiy ravishda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligining oshishiga foydalanilmayotgan ichki xujalik imkoniyatlarini ishga tushirish imkonini beradi.

4. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi uzgarishlar shunday bulishi kerakki mulkchilik shakllari va faoliyat soxalaridan qat'i nazar barqaror rivojlanishga utish ularga foyda keltiradigan bulsin. Ushbu yunalishda fiskal siyosat xam uzgarishi va u soliqning bulg'usi faoliyat natijasini xisobga olib emas, balki maxsulot ishlab chiqarish, xizmat kursatish va tabiiy resurslarni tejash buyicha real natijalarga qarab amalga oshirilishi kerak.

Ekologik tizimlar va axoli sog'lomligi, atrof-muxitga inson ta'sirining uyg'unligi, tabiiy tizimlarning yashovchanligi va unumdarligi bilan belgilanadi. Bu esa doimiy ravishda tabiiy muxitni yaxshilashni, uning «ishchanligi» ni unumdarligini oshirib borishni talab qiladi. Atrof-muxitni muxofaza qilish umumiyligi rivojlanish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bulishi lozim va undan ajratilgan xolda kurilmasligi kerak. Tinchlik, iqtisodiy rivojlanish va atrof-muxit muxofazasi uzaro bog'liq va bulinmasdir.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va axolining kupchiligi extiyojlarini ta'minlash uchun qashshoqlik va dunyoning turli qismlarida yashash darajasidagi tengsizlikni bartaraf etish zarur. Ijtimoiyadolat tamoyilini qaror toptirish axolining daromadlar buyicha tengsizligini tugatish, farovonligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyatning barcha tabaqalari ekologik ne'matlar va muammolarni uzaro teng asoslarda bulib olishlari kerak. Iqtisodiy va ekologik muammolar buyicha qabul qilinayotgan qarorlar kelajak avlodlar farovonligi va manfaatlarini tula xisobga olishi lozim.

Barqaror rivojlanishning ushbu shartlari eng avvalo barqaror ekologik rivojlanishga utishni boshqarishni chuqur ilmiy asoslarda amalga oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Bunda zamonaviy bilim va yangi texnologiyalarni qullash boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy sharti bulib xizmat qiladi.

Tabiatni muxofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadidagi xalqaro xamkorlik. Bugungi kunda, tabiatni muxofaza qilish va borqaror rivojlanish, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam kursatish maqsadida minglab xalqaro xamkorlik tashkilotlari tuzilgan bulib, ular BMT qoshida yagona dastur asosida faoliyat olib bormoqda.

### **Ularga quyidaagi xalqaro tashkilotlar kiradi:**

- YUNSED - Atrof olam va rivojlanish buyicha BMTning konferentsiyasi (AORK) - United Nations Conference on Environment and Development (UNCED). 1989 - yilda tashkil topgan. Ishtirokchilari - BMTga a'zo davlatlar.

**Maqsadlari:** asosiy muammolar buyicha davlatlarning uzaro boglanishi; atmosferani ximoyalash; er va suv resurslarini muxofaza qilish; biotexnologiyaning yangi usullaridan foydalanish; atrof-muxitni inkirozga uchrashuvini tuxtatmoq.

**Asosiy faoliyati** - milliy xisobotlar va ish dasturlarini tayyorlash. PROON - Taraqqiyot buyicha BMT dasturi -United Nations Development Program (UNDP).

Tashkil topgan yili: 1965 - yil. Ishtirok etuvchilar: 189 ta davlat.

**Maqsadlari** :-tabiat resurslaridan ratsional foydalanishda va samarali iqtisodiyot qurishda rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish.

**Asosiy faoliyati:**

- tabiat resurslarini urganish, amaliy izlanshilar uchun joylarda uqish muassasalarini va material texnik bazalarni tashkil etish. KUR - barqaror taraqqiyot buyicha BMT komissiyasi -United Nations Commission on sustainable Development (CSD). Tashkil topgan yili: 1992 - y. Ishtirok etuvchilar: ovoz berish xuquqi bilan 53 ta davlat (Afrikadan 13, Osiyodan 11, Sharqiy Evropadan 6, Lotin Amerikasi va Karib xovzasidan 10, Earbiy Evropadan 13).

**Maqsadlari:** - milliy va xalqaro darajada barqaror taraqqiyot jarayoniga ta'sir kursatish. Asosiy faoliyati: atrof-muxitni muxofaza qilish muammolariga diqqatni jalg

etish; atrof-muxitni muxofaza qilish va rivojlantirish soxalaridagi BMT faoliyatini yaxshilashga yordam berish; seminar va konferentsiyalar utkazishni qullab-quvvatlash. VOZ - Sogliqni saqlash masalalari buyicha BMTning butun dunyo tashkiloti - World Health Organization (WHO) Soglikni saklash dunyo tashkiloti. Tashkil topgan yili: 1946 - y. Ishtirok etuvchilar: BMT ga a'zo davlatlar.

**Maqsadlari:** - atrof-muxitga salbiy ta'sirni nazorat qilish va boshqarish yuli bilan inson salomatligini yaxshilash va muxofaza qilish.

**Asosiy faoliyati:** - atrof-muxitni sog'lomlashtirish buyicha chora-tadbirlar utkazish, shuningdek, kamyoviy moddalardan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash, ifloslanish darajasini baxolash va nazorat qilish,

radioaktiv nurlanishdan ximoyalash, inson salomatligiga ob-xavo uzgarishini ta'sirini baxolash; atrof-muxitni va salomatlikni muxofaza qilish global strategiyasini yaratish.

MSOP -Tabiatni muxofaza qilish xalqaro birlashmasi - tabiatni muxofaza qilish butun dunyo birlashmasi - International Union for Natura Cinservetion (IUCN)-The World Conservation Union. IMO - Xalqaro dengiz tashkiloti (22.05.82 gacha BMTning ixtisoslashtirilgan vakolatxonasi - Xukumatlararo maslaxat beruvchi dengiz tashkiloti - Inter Governmental Meritime Consulative Organization) - International Maritime Organization (IMO). YuNIDO - sanoat rivojlanishi buyicha BMT dasturi - United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). ESKATO - Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va sotsial komissiya - Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (ESCAP).

FAO - Bugun dunyo oziq-ovqat tashkiloti - Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). YaO-Xalqaro mexnat tashkiloti nomidagi xalqaro mexnat xizmati International Labour Office. International Labour Organization. UNCTAD - Savdo-sotiq va rivojlanish buyicha BMT konferentsiyasi - Un Conference on Trade and Development.

Albatta, bu erda BMT ning xalqaro tashkilotlari tugrisidagi kupgina ma'lumotlari keltirilmagan, bu aloxida suxbat uchun mavzu. Men faqatgina faoliyatida u yoki bu jixatdan atrof-muxitni muxofaza qilish bilan bog'liq bulgan mashxurroq tashkilotlarni misol keltirdim. Biroq, ularning tabiatni muxofaza qilish ishiga qushgan xissasini ortiqcha baxolash juda qiyin,

chunki mana shu tashkilotlar raxbarligida xar xil fondlar, jamiyatlar va boshqa birlashmalar, tabiatni asrash uchun, tashkil topgan. Bundan tashqari, BMT soxasidagi tashkilotlar a'zolar soni jixatidan kup sonli xisoblanadi, chunki kup xollarda ular BMTga a'zo davlatlarni birlashtiradi.

Uzbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish yunalishlari. Uzbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratilayotir. Bunda dunyo mamlakatlarining sinovdan utgan ijobiy tajribalari va mamlakatimizning aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari xisobga olinib, barqaror rivojlanishga utishning «uzbek modeli» ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi muxim axamiyatga ega. Barqaror rivojlanishning tizimli sharoitini shakllantirishga jamiyat, boshqarish, institutsional tuzilishni demokratizatsiyalash asos qilib olingan.

Shu munosabat bilan Uzbekistonda 1997 - yilda milliy miqiyosda barqaror rivojlanishga xarakatni mivoviqlashtiruvchi milliy tuzilish tuzildi. 1998 - yilda BMT rivojlanish darsturining (PROON) faol yordami va qullab-quvvatlash bilan barqaror rivojlanish kontseptsiyasi, 1999-yilda esa barqaror rivojlanish strategiyasi tayyorlandi. 2002 - yil avgustda Uzbekistan Respublikasining XXI asr kun tartibi qabul qilindi. Shuningdek, mamlakatning qator mintaqalarida XXI asr kun tartibining maxalliy variantlari ishlab chiqilib, amalga oshirila boshladи.

Uzbekiston xukumatining «Ekologik menejment» nazariyasi va amaliyoti uchun bevosita axamiyatga ega bulgan muxim tashkiliy tadbiri Uzbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi buyicha Milliy tuzilishi

(BRMS) barpo etilishi xisoblanadi. Barqaror rivojlanish Milliy tuzilishiga quyidaagi vazifalar yuklangan:

- Orol xavzasi muammolari echimi buyicha (xalqaro, milliy, mintaqaviy darajada qabul qilingan qarorlarni xam qushib) xarakatlarni koordinatsiyalash (uzaro mivoviqlashtirish);
- Uzbekistonning BMTning iqlimning uzgarishi buyicha, qullash va qurg'okchilikka qarshi kurash buyicha, biologik xilma-xillikni saqlash buyicha, ozon qatlamini emiruvchi moddalar buyicha, transchegara suvlardan foydalanish buyicha va boshqa konvetsiyalariga a'zoligidan kelib chiqib, ushbu majburiyatni bajarishga mas'ul bulgan Milliy tuzilishlar faoliyatini koordinatsiyalash;
- Respublikaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga yunaltirilgan yangi konvensiya va bitimlarni tayyorlashni tashkil etish;
- Barqaror rivojlanish masalalari buyicha BMT, PROON, Jaxon banki, YuNEP, VOZ (Jaxon soglikni saklash tashkiloti), YuNISEF, YuNESKO, Er kengashi vakolatxonalari va boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar va dasturlar bilan uzaro xarakatlari;
- Barqaror rivojlanish buyicha dasturni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadigan Uzbekiston vazirliklari va muassasalari, xalqaro va boshqa moliya va iqtisodiy tashkilotlar faoliyatini koordinatsiyalash;
- Barqaror rivojlanish buyicha yillik Milliy ma'ruzalarni BMT ning barqaror rivojlanish buyicha Komissiyasiga tayyorlash va berish.

Uzbekiston BRMS ning kelgusidagi asosiy vazifasi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ekologik muammolarni xal etish buyicha maqsadli

davlat dasturlarini amalga oshirishga yordam berish va barqarorlikning umumtizimli jarayonlari monitoringini amalga oshirish xisoblanadi. Shu munosabat bilan BRMS ning tarkibiga kiradigan muxim vazifalardan biri milliy, mintaqalararo, mintaqaviy, maxalliy va xalqaro darajada atrof-muxitni boshqarish tuzilishini mustaxkamlashdan iborat. Barcha darajada tabiatdan foydalanish, iqtisodiyot va jamiyatni boshqarishni takomillashtirish barqaror rivojlanishni amalga oshirishning asosiy shartidir. Shu sababli boshqarishni kuplab ijtimoiy va tabiat muxofazasi vazifalarini joylarga berish bilan detsentralizatsiyalashni turli xududiy darajada barqaror rivojlanishni tartibga solishning global tizimiga integratsiyalash zarur.

### **Qisqacha xulosalar**

Ekologik menejment umumiyligi menejmentning ajralmas tarkibiy qismi bulib, u mustaqil faoliyat va fan sifatida boshqa soxalardan ancha keyin, fakat XX asrning oxirida tarkib topdi. Shu bilan bir qatorda umumiyligi menejmentning turli davrlarda shakllangan yunalishlari - ilmiy menejment, mumtoz yoki ma'muriy menejment, «insoniy munosabatlar maktabi», miqdoriy tizimli yoki zamonaviy menejment tarkibida ekologik boshqaruv nazariyasi va amaliyoti sezilarli uringa va salmoqqa ega bulmagan. Ularda ekologik boshqaruvning ayrim jixatlarigina kurib chiqilgan.

Ekologik menejmentning shakllanishi va rivojlanishi global, mamlakatlar, mintaqalarda ekologik axvol va vaziyatning keskinlashishi davriga XX asrning oxiriga tugri keldi.

Ekologik menejment nazariyasi va amaliyotining umumiyligi menejmentning boshqa soxalaridan farqi ekologik siyosat tarkibida ekologik boshqaruv instrumenti tizimi sifatida shakllandi va rivojlandi. Uning fundamental nazariya va kontseptsiyalari qatoriga quyidaagilar kiradi: bozor muvaffakiyatsizligi, tashki ekologik samara, tarkibiy resurslarga va ekologik ne'matlarga mulkchilik xuquqini belgilash talablari, iqtisodiyotga va tabiatdan foydalanishga davlat aralashuvining muvaffakiyatsizligi, tashki ekologik samarani integratsiyalash, ushbu muvaffakiyatsizlikni neytrallashtirish va boshqalar.

Ekologik boshqaruv instrumentlari evolyutsiyasida xalqaro miqiyosda kelishilgan tamoyillarning kuchli ta'sir kursatishi yaqqol sezilib turadi. Shunday tamoyillar qatoriga «ifloslantiruvchi tulaydi» yondashuvi, barqaror rivojlanish va extiyotkorlik talablari, amalga oshirish mumkin bulgan texnologiyalardan eng yaxshilarini qullash va boshqalar.

Ekologik siyosat instrumentlari - ekologik menejment evolyutsiyasi quyidaagi turtta bosqichni uz ichiga oladi:

- 1) Tabiatdan foydalanish va atrof-muxit muxofazasi soxasining shakllanishi (1970-1983 yillar);
- 2) ifloslanishni bartaraf qilishni ragbatlantirish (1984-1989 yillar);
- 3) ekosamarali tadbirlarni ragbatlantirish (1980-1999 yillar);
- 4) barqaror rivojlanishga yondashuvlarni optimallashtirish (2000- yildan xozirgacha).

Ushbu evolyutsiya bosqichlarining xar biri ekologik siyosatning asosiy vazifasi, boshqaruv qarorlari usullari, asosiy instrumentlari bilan bir-

biridan farq qiladi. Ayni paytda ularni birgalikda urganish ekologik menejment nazariyasi va amaliyoti tugrisida yaxlit tasavvur olish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan ushbu evolyutsiya Uzbekistonda ekologik boshqaruv muammolarining makbul echimini topishga xam yordam beradi.

Ekologik tartibga solish va ragbatlantirishning xozirgi mexanizmi ekologik boshqaruvning ma'muriy nazorat instrumentlari; atrof-muxit muxofazasi va tabiatdan foydalanishning iqtisodiy instrumentlari; ekologik menejmentning axloqiy-ma'naviy ta'sir va ishontirish instrumentlaridan iborat.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Umumiy menejment tizimida «Ekologik menejment»ning uziga xosligini nimalar belgilaydi?
2. Umumiy menejmentda kanday yunalishlar shakllangan? Ularda «Ekologik menejment» qanday urinni egallaydi?
3. «Ekologik menejment» nazariyasi va amaliyoti qachon shakllangan? Uning sabablari va manbalarini tushuntiring.
4. Ekologik siyosat va «Ekologik menejment» urtasida qanday bog'liqlik va farklar bor?
5. Ekologik boshqaruv instrumentlari evolyutsiyasi nima?
6. Ekologik siyosat instrumentlari evolyutsiyasi kanday bosqichlarga bulinadi?
7. «Ekologik menejment» instrumentlari kanday guruxlarga bulinadi?
8. Barqaror ekologik rivojlanish kontseptsiyasi xususiyatlari va ularni amalga oshirish yunalishlarini ta'riflang.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” –T.: 2011.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, Z. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Ukuv kullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.
6. http: www.murman.ru <http:G`G`www.murman.ru> (ecology) comitet
7. www. ecology, com.
8. www. ecology and sociaty.org <http:G`G`sociaty.org>.
9. www. ecologycenter.org <http:G`G`ecologycenter.org>.

## **VII-Mavzu. EKOLOGIK MENEJMENTDA UMUMIY QONUNLAR VA TAMOYILLARNING NAMOYON BO’LISHI**

**7.1. «Ekologik menejment»da ilmiy ekologik va umumiyl menejment qonuniyatlarining namoyon bulishi.**

**7.2. Ekologik menejment tamoyillari.**

«Ekologik menejment»da umumiyl ekologik va umumiyl menejment qonuniyatlarining namoyon bulishi. «Ekologik menejment» nazariy-amaliyot fani sifatida uz taqiqalarida «Umumiyl menejment», «Umumiyl

ekologiya», «Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti», «Ekologik iqtisodiyot» va boshqa fanlarning nazariyasiga asoslanadi, ulardan uz vazifalarini bajarishda keng foydalanadi.

Bunda «Ekologik menejment»ning vazifalari qatoriga ushbu reallik soxasining rivojlanishi va ishlab turishni boshqarish qonuniyatlarini aniqlashi xam kiradi. Lekin «Umumiylar ekologiya», «Umumiylar menejment», «Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti», «Ekologik iqtisodiyot» va boshqa tutash fanlarda aniqlangan qonun va konuniyatlardan, tamoyillardan «Ekologik menejment»da foydalanish va shu asosda ekologik boshqaruv qonuniyatlarini aniqlash masalalari tula xal qilinmagan. Ushbu masalalar eng qiyin muammolar qatoriga kiradi.

Masalan, kupchilik ekologiya qonunlarini ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishga tugridan-tugri kuchirib bulmaydi.

Shuningdek, «Umumiylar menejment» qonunlarida xam ekologik munosabatlarni boshqarish xususiyatlari uz aksini topmagan. Shu sababdan tutash fanlarda aniqlangan qonuniyatlarini tabiatdan foydalanish va tabiatni muxofaza qilishni boshqarish nuqtai nazaridan chuqur urganish va ulardan amaliyotda foydalanish yunalishlarini ishlab chiqish talab etiladi.

**Ekologik menejment tamoyillari.** Ekologik menejmentning umumiylar va xususiy qonuniyatlarini amaliyotga jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan raxbariy qoidalar tamoyillar orqali joriy etiladi. «Ekologik menejment» tamoyillari ekologik boshqaruv amaliyotida ob'ektiv qonuniyatlardan ongli yunalishda foydalanishni bildiradi. Ekologik boshqaruvning umumiylar qonuniyati quyidaagi uchta asosiy umumiylar ekologik boshqaruv tamoyilini

belgilaydi: ekologik boshqaruvda tabiatning ustunligini xisobga olish tamoyili, ekologik boshqaruvda tabiatni ijtimoiylashtirishni xisobga olish tamoyili, ekologik boshqaruvda ishlab chiqarishni ekologiyalashni xisobga olish tamoyili.

Ekologik boshqaruvda tabiatning ustunligini xisobga olish tamoyiliga mivoviq tabiat jamiyatning dialektik birligi tabiat qonunlari bilan belgilanadi. Tabiat-jamiyat rivojlanishining tabiiy asosi. Tabiat bilan aloqani buzmaslnk uchun jamiyat ekologik boshqaruvda ularning birligini xisobga olish va boshqaruvni tabiatning ob'ektiv rivojlanishiga asoslanib amalga oshirish kerak. Boshqacha aytganda tabiat bilan jamiyatning uzaro ta'sirini boshqarishning eng muxim tamoyili tabiatning ustunligini xisobga olishdir.

Bu tamoyil jamiyatning tabiatga ta'sirini ekologik boshqarish jarayonlarida tabiat qonunlari moxiyati va ta'sirini xar tomonlama tula xisobga olishni talab qiladi. Bu tamoyilni buzish jamiyat rivojlanishining tabiiy asoslarini. Demak, uning uzining asoslarini xam emirishga olib keladi. Shunday qilib tabiat - jamiyat integral tizimini ekologik boshqarishda tabiat qonunlari birlashtiruvchi bugin rolini bajaradi. Ekologik boshqaruvda tabiatni ijtimoiylashtirishni xisobga olish tamoyili tabiatdan foydalanish va tabiatni muxofazalashda jamiyat manfaatlarini ayrim shaxslar, tarmoqlar, tashkilotlar, mintaqalar va boshqalar manfaatlaridan ustun quyishni taqozo etadi. Unga mivoviq zarur koidalar va me'yorlarga amal qilgan xolda tabiiy resurslardan faqat jamiyat va xalq farovonligi uchun foydalanish lozim. Tabiat ijtimoiy ne'matdir.

Tabiatdan foydalanishni boshqarishni jamiyat nomidan davlat amalga oshirishi kerak. Ekologik boshqaruvda ishlab chiqarishni ekologiyalashni xisobga olish tamoyiliga mivoviq texnologiyani moddiy ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish, ekologik soxada mexnat samaradorligini oshirish asosida tabiiy resurslarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni boshqarishni amalga oshirish talab qilinadi. Ekologik boshqaruv amaliyotida «Ekologik menejment»ning xususiy qonuniyatları talablari boshqaruvda ilmiylik, optimallik, mintaqaviylik, komplekslik resurslarga pul tulash kabi xususiy tamoyillar orqali amalga oshiriladi.

Ekologik boshqaruvning ilmiylik tamoyili tabiatdan foydalanish va tabiatni muxofazalashni boshqarishni tabiat va jamiyat rivojlanishining ob'ektiv qonunlarini chuqur bilishga, fan va texnikaning eng yangi yutuqlariga asoslanib amalga oshirishni kuzda tutadi.

Ekologik boshqaruvning optimallik tamoyili boshqaruvda ekologik manfaatlarni xisobga olib, tabiatdan foydalanishning samaradorligini oshirishni, tabiiy resurslarni ishlab chiqarishning eng yaxshi variantlarini tanlashni, xujalik vazifalarini oqilona amalga oshirishni nazarda tutadi. Ekologik boshqaruvning mintaqaviyligi tamoyiliga mivoviq, tabiatdan fodalanish va tabiat muxofazasini boshqarish doimo ma'lum xududda (ma'muriy-xududiy birliklar buyicha), ularning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari, rivojlanishi istiqbollarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi. Tabiatdan foydalanishni boshqarish mintaqalarning tabiat muxofazasi manfaatlariga mos bulishi kerak.

Ekologik boshqaruvning kompleksligi tamoyili boshqaruvda dastlabki tabiat xom - ashyolaridan ratsional foydalanish va ularni chuqur qayta ishlashni tashkil etishni talab qiladi. Bunda yopiq, chiqindisiz yoki kam chiqindili ishlab chiqarishni tashkil etish boshqarishning asosiy maqsadi va vazifasi xisoblanadi.

Ekologik boshqaruvda tabiiy resurslarga tulovlarni xisobga olish tamoyili boshqaruvda resurslarga pul tulash, ularni tejash, tabiatdan yuqori samarada foydalanishni rivojlantirishga asoslanadi. Ekologik boshqaruvda demokratiyalash, ierarxiya tizimi, yakka xokimlik va mas'uliyat, mexnat taqsimoti, xarakat birligi, tartib intizom, shaxsiy manfaatni korxona manfaatiga buysundirish, ragbatlantirish, markazlashtirish, xaqqoniylilik, qulay iqlim (sharoit), korparativ ruxiy kayfiyat va boshqa tamoyillarga xar tomonlama asoslanish kerak.

### **Qisqacha xulosalar**

«Ekologik menejment» nazariy-amaliyat fani sifatida uz tadqiqotlarida «Umumiy menejment», «Umumiy ekologiya», «Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti», «Ekologik iqtisodiyot» va boshqa fanlarning nazariyasiga asoslanadi, ulardan uz vazifalarini bajarishda keng foydalanadi.

Ekologik menejmentning umumiyligi va xususiy qonuniyatlarini amaliyotga jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan raxbariy qoidalar - tamoyillar orqali joriy etiladi. Ekologik boshqaruvning umumiyligi qonuniyati quyidaagi uchta asosiy umumiyligi boshqaruv tamoyilini belgilaydi: tabiatning ustunligini xisobga olish tamoyili, tabiatni ijtimoiylashtirishni

xisobga olish tamoyili, ishlab chiqarishni ekologiyalashni xisobga olish tamoyili. Xususiy tamoyillariga uzi uchun xos bulgan ilmiylik, optimallik, mintaqaviylik komplekslik, resurslarga pul tulash tamoyillarga ajratiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. «Ekologik menejment»da umumiy ekologik qonuniyatlarni namoyon bulish sabablarini tushintirib bering.
2. «Ekologik menejment»da umumiy menejment qonuniyatlarni namoyon bulishi nimalarga bog'liq?
3. Tabiat bilan jamiyat urtasidagi bog'liqlikni uni boshqarishdagi ishtirokiga nisbatan baxolang.
4. Ekologiya qonunlarini ekologik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishga tugidan-tugri kuchirib bulmasligiga sabab nima?
5. Ekologik menejmentning umumiy tamoyillari nimalardan iborat?
6. Ekologik menejmentning xususiy tamoyillarining namoyon bulishi qanday omillar ta'sirida amalga oshadi?
7. Ekologik boshqaruvi da tabiatning ustunligini xisobga olish tamoyilini asoslab bering.
8. Ekologik boshqaruvning mintaqaviyligi tamoyilini asoslang.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" –T.: 2011.
2. Milliy ma'ruza. -T., O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.

3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, Z. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.
6. http: www.murman.ru <http:G`G`www.murman.ru> (ecology) comitet
7. www. ecology, com.
8. www. ecology and sociaty.org <http:G`G`sociaty.org>.
9. www. ecologycenter.org <http:G`G`ecologycenter.org>.

## **VIII-Mavzu. EKOLOGIK BOSHQARUVNING UMUMIY VA XUSUSIY QONUNIYATLARI**

**8.1. Tabiat va jamiyat urtasidagi ekologik munosabatlarni boshqarish qonuniyatlari.**

**8.2. Ekologik boshqaruvning umumiy qonuniyatlari.**

**8.3 Ekologik boshqaruvning xususiy qonuniyatlari.**

Tabiat va jamiyat urtasidagi ekologik munosabatlarni boshqarish qonuniyatlari tabiat va jamiyat qonunlariga buysunadi. Buning birinchi va zaruriy sharti tabiat va jamiyat yagonaligi bulib, u tabiat qonunlari bilan belgilanadi va tabiatdan foydalanishning umumiy tamoyillarida ifodalanadi. Tabiat va jamiyatning uzaro aloqalarini ekologik boshqarishning mazmuni va natijalari esa umumiy ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv xususiyatlari va qonuniyatlariga bog'liqdir. Shu bilan bir

qatorda ekologik boshqaruv qonuniyatlari tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish qonunlari va ekologik-iqtisodiy soxaning mustaqil faoliyat sifatida uziga xos xususiyatlarga uzviy bog'liq xolda shakllanadi va xarakatda buladi.

Shu nuqtai nazardan tabiatdan foydalanish va uni muxofaza qilishni boshqarish tizimi soxasida ikki xil qonuniyatni ajratish mumkin:

- Tabiat bilan jamiyat urtasidagi uzaro aloqalarni boshqarishning birligini ifodalaydigan umumiy ekologik boshqaruv qonuniyatlari;
**11.2. Inqirozga qarshi choralarini qullahsha korxonalar faolitida ekologik natijarining indikatorlari.**

**11.3. Menejment tizimining ekologik indikatorlari.**

## **11.4. Operatsiya jarayonlarining ekologik indikatorlari.**

## **11.5. Korxona faoliyatining ekologik indikatorlari**

### **Korxonalar faoliyati ekologik natijalarining indikatorlari.**

Korxonalar faoliyati ekologik natijalarining indikatorlari (KFENI) uning axborot ekologik tizimining muxim elementa bulib, ekologik boshqaruvning asosiy muammolari echimini topishga yordam beradi. KFENI korxonalarining atrof-muxitga ta'sirini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish shuningdek ularning tabiat muxofazasi buyicha xarakat usullari xarajatlari va natijalarining muxim vositasi bulib xizmat qiladi. Indikatorlar tizimi quyidaagi ikki guruxga bulinadi:

- Korxona faoliyatining ekologik natijalari indikatorlari;
- Korxona faoliyatining ekologik sharoitlari indikatorlari.

Birinchi gurux uz navbatida, menejment tizimi ekologik indikatorlari va operatsiya jarayonlari indikatorlariga bulinadi. Menejment tizimi ekologik indikatorlariga (MTEI):

- Siyosat va dasturlarni amalga oshirish (erishilgan maqsadli va reja kursatkichlari shu jumladan, bilimlar buyicha; ekologik qayta tayyorgarlikdan utgan, ekologik takliflar bergan, atrof-muxit muxofazasi dasturlarida qatnashadigan xodimlar soni);
- Tartibga soluvchi normalarning bajarilishi (bajarilgan va bajarilmagan normalar soni, ekologik mojarolar soni, ularning xarajatlari; auditor tekshirishlari buyicha rejalarining bajarilishi va boshqalar);
- Moliyaviy natijalar - ekologik xarajatlar (operatsiya va kapital xarajatlar) ekoinvestitsiyalar rentabelligi, resurslarni tejash natijasida

xarajatlarni tejash, tadqiqot ekofondlari, ekomojarolar buyicha ekojavobgarlik ulchami;

- Tashki muxit bilan uzaro aloqalar - ommaviy axborot vositalarida firmaning ekofaolligi tugrisida chiqishlar soni, maxalliy axoli uchun uquv dasturlari, maxalliy ekotashabbusini moliyaviy qullah, shu jumladan, tabiatni asrash buyicha va boshqalar kiritiladi.

Operatsiya jarayonlarining ekologik indikatorlariga – OJEI, taxlil asosida aniqlangan xomashyo, materiallar va energiya oqimlari, shu jumladan:

- Ishlab chiqarish va upakovka uchun materiallar (turlar buyicha dastlabki xom ashyo;

- Umumiyl xajmi va maxsulot birligiga, shu jumladan, suv iste'moli, rejalangan materiallar, upakovka, shundan qayta foydalanilganlari), energiya (turlar buyicha, umumiyl xajmi va foydalanish samaradorligi),

a) maxsulotlar (asosiy va qushimcha) maxsulotlar ishlab chiqarish, shu jumladan qayta davrlanishga qodir bulgan, qayta davrlangan va qayta ishlangan chiqindilar xajmi);

b) korxona qullab-quvvatlanishida ekologik xizmat (masalan, korxona foydalanilgan toksik (zaxarli chiqindilar xajmi).

- Korxonaning quvvati va jixozlari (shu jumladan, ekologik jixozlari quvvati va jixozlari (shu jumladan, ekologik jixozlar quvvati, transport vositalarining yoqilg'i sarfi, shu jumladan zaxarli gazlarni chiqarishni kamaytiruvchi qurilmalar, egallagan maydon va boshqalar).

**Ekologik controlling.** Ekologik controlling «Ekologik menejment»ning nisbatan yangi axborot-taxlil instrumentlari qatoriga kiradi. Xozirgi paytda ekologik controlling firmani boshqarish tizimida axborot bilan ta'minlash va foydalanish jarayonlarini mivoviqlashtirishga yunaltirilgan menejerial vazifani bajaradi. Kontrollingning aniq, instrumentlari maxsus (yoki ayrim) va tappa-tugriga bulinishlari mumkin. Maxsus controlling instrumentlari menejmentning ayrim kichik tizimlari faoliyatini mivoviqlashtiradi, tappa-tugri controlling instrumentlari esa ana shunday bir nechta kichik tizimlarni birlashtiradi.

## 5-jadval

### Strategik va operativ ekokontrolling nisbatlari

	Strategik ekokontrolling	Operativ ekokontrolling
<b>Menejment maqsadi</b>	Korxonaning uzoq, muddat mavjudligini ta'minlash	Emissiya, xavf-xatar va resurs iste'molini
<b>Kontrolling maqsadi</b>	Iqtisodiy muvaffakiyat-ning uzoq, potentsiali uchun zarur resursni ta'minlash	Jarayonlarning ekosamaradorligi
<b>Maqsadli parametrlar</b>	Maxsulot va jarayonning ekologik izchilligi va jamiyatda masalalarining ifodasiga ta'siri	Chiqindilar xajmi, energiya iste'moli, material sigimi
<b>Razmerligi</b>	Imkoniyatlar, xatarlar, ustunlik, zaiflik	Xajmlar, ogirlik, toksiklik
<b>Axborot manbai</b>	Tashqi muxit	Ekologik axborot tizimi

Tappa-tug'ri instrumentlarga, ya'ni barcha asosiy kichik tizimlar va menejmentning kichik vazifasini tizib turadigan, birlashtiradigan va mivofiglashtiradigan instrumentlarga, masalan, ichki firma narxlari kiradi. Bu narxlar korxona kichik tizimlari ishlarining samaradorligini aniqlashda yoki firma bulimlarini tug'ridan-tug'ri boshqarish uchun byudjetlashtirish

tizimida qullanilishi mumkin. Ekokontrolling quyidaagi uchta asosiy vazifani bajaradi:

- axborot ta'minlashini mivoviqlashtirish (atrof-muxit muxofazasi uchun ma'lumotlarni aniqlash va ishslash);
- firmaning rejalarini mivoviqlashtirish (strategiya va operativ tadbirlarni ishlab chiqish).
- nazoratni mivoviqlashtirish (daliliy va reja kursatkichlarini taqqoslash).

Ekokontrolling menejmentni qullab-quvvatlovchi, tappa-tugri mivofiglashtiruvchi, korxona faoliyatini takomillashtiruvchi vazifani bajaradi. Bunda ekokontrolling kup usullarni qullaydi. Bular qatoriga taxlil, chetga chiqishni taxlil qilish, erta aniqlash tizimi, stsenariya taxlili, qiymatning ekologik zanjiri taxlili, ekoaudit, ekologik buxgalteriya xisobi ekobalans, ekologik indikatorlar, nazorat ruyxatlari, ekologik xayotiy davrlar taxlili, ekologik loyixalar uchun loyixalar xisobi va boshqa usullar kiradi.

Atrof-muxit muxofazasi buyicha maqsadlarni ta'riflashda quyidagilarga etibor berish lozim:

- Ekobalans, nazorat listlari, bir maxsulot uchun tuzilgan ekobalans;
- Faktik va reja kursatkichlarini taqqoslash, ekologik xisobot tuzish, ekobalans ma'lumotlarini aktuallashtirish;
- Mezonlar buyicha baxolash, ma'lumotlarni muammoli guruxлага birlashtirish;    - Ekologik masalalar buyicha komissiyaning muntazam

majlisi, ekologik bulim tomonidan qullab-quvvatlash, oliy menejment tomonidan topshiriqlar.

### **Qisqacha xulosalar**

Korxonalar faoliyati ekologik natijalarining korxonalarining atrof-muxshta ta'sirini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish, shuningdek ularning tabiat muxofazasi buyicha xarakat usullari, xarajatlari va natijalarining muxim vositasi bulib xizmat qiladi. Indikatorlar tizimi korxona faoliyatining ekologik natijalari indikatorlari va korxona faoliyatining ekologik sharoitlari indikatorlariga bulinadi.

Birinchi gurux, menejment tizimi ekologik indikatorlari va operatsiya jarayonlari indikatorlariga bulinib, u siyosat va dasturlarni amalga oshirish, tartibga soluvchi normalarning bajarilishi, moliyaviy natijalar ekologik xarajatlar, ekoinvestitsiyalar rentabelligi, resurslarni tejash natijasida xarajatlarni tejash, tadqiqot ekofondlari, ekomojarolar buyicha ekojavobgarlik razmeri va tashqi muxit bilan uzaro aloqalar ommaviy axborot vositalarnda firmanın ekofaolligi tugrisida chiqishlar soni, maxalliy axoli uchun uquv dasturlari, maxalliy ekotashhabbusini moliyaviy qullah, shu jumladan, tabiatni asrash buyicha va boshqalarga ajratiladi.

Operatsiya jarayonlarining ekologik indikatorlariga taxlil asosida aniqlangan xom ashyo, materiallar va energiya oqimlari, korxonaning quvvati va jixozlari va boshqalar kiritiladi. Korxona faoliyatining ekologik sharoitlari indikatorlari tuzilmasi menejment amaliyotining asosan sifat

kursatkichlaridan zamonaviy miqdoriy va sifat kursatkichlariga utayotganligini kursatadi.

Ekologik controlling firmani boshqarish tizimida axborot bilan ta'minlash va foydalanish jarayonlarini mivoviqlashtirishta yunaltirilgan menejerlar vazifani bajaradi. Ekokontrolling maqsad quyish, quyilgan vazifalarni bajarish va ularning bajarilishini nazorat qilish davri jarayonlarini amalga oshiradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Korxonalar faoliyati ekologik natijalari indikatorlarining axborot ekologik tizimida tutgan urnini tushuntirib bering.
2. Korxonalar faoliyati ekologik natijalari indikatorlarining boshqarish va nazorat qilishdagi urniniini izohlang.
3. Indikatorlar tizimining tarkibiy tuzilishini sxematik ifodalang.
4. Menejment tizimi ekologik indikatorlari bilan operatsiya jarayonlari indikatorlarining uzaro farqlarini aniqlang.
5. Menejment tizimi ekologik indikatorlari qanday kursatkichlarni ifodalaydi?
6. Operatsiya jarayonlarining ekologik indikatorlarining asosiy kursatkichlari nimalardan iborat?
7. Ekologik controllingni fuktsiyasini tushuntiring.
8. Ekologik controlling instrumentlari deganda nimani tushunasiz?
9. Ekokontrollingning asosiy uchta vazifasini izoxlang.
10. Ekokontrollingda qullanadigan usullarni va ularni qullanish soxasini tushuntiring.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralari” –T.: 2009.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, Z. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.
6. http: www.murman.ru <http:G`G`www.murman.ru> (ecology) comitet
7. www. ecology, com.
8. www. ecology and sociaty.org <http:G`G`sociaty.org>.
9. www. ecologycenter.org <http:G`G`ecologycenter.org>.

## **XII-Mavzu. MAHSULOT EKOLOGIK XAYOTIY DAVRINI BAHOLASH**

### **12.1. Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholash.**

### **12.2. Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholash usullari.**

**Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholash** (MEXDB) xalqaro amaliyotda keng qullaniladi. Bu instrument asosiy e'tiborni korxonaning ishlab chiqarish va mahsulot iste'moli bilan bog'liq bulgan ekologik ta'siriga qaratadi. Ushbu ta'sir real va potentsial turlarga bulinib, mahsulot

xayotiy davrining xamma kulamida ya'ni xom ashyoni olishdan to mahsulot ishlab chiqarishgacha xamda foydalanish va utilizatsiyagacha taqiq etiladi.

Atrof tabiiy-muxitga ta'sirni baholashning asosiy parametrlari bulib tabiiy resurslardan foydalanish, axoli salomatligiga ta'sir, ekologik oqibatlar xizmat qiladi. Maxsulot ekologik xayotiy davrini baxolashni qullash va usullarining xizmat qilish soxasida quyidaagilar belgilanadi:

- mahsulot xayotiy davrining turli paytida ekologik soxani yaxshilash;
- sanoat, davlat yoki nodavlat tashkilotlarida qaror qabul qilish (masalan, maxsulotlar yoki jarayonlarni strategik rejallashtirishda, muqobilini (ustuvorlikni) aniqlashda, loyixalashda, qayta loyixalashda);
- tegishli ekologik samaradorlik kursatkichlarini, ulchash usullarini qushib, tanlash;
- marketing (masalan, ekologik markirovka tizimi yoki maxsulotning ekologik tozaligi tugrisidagi deklaratsiya bilan bog'liq ekologik da'vo arizalarida).

### **Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholash bosqichlari.**

Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholash bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Uning asosiy bosqichlariga quyidaagilar kiradi:

- foydali qazilmalarni qazib olish jarayoni;
- energiya va xom ashyoni egallash (olish);
- yog'och resurslaridan foydalanish;
- suv va energiyadan foydalanish;

- tashish va u bilan bog'liq bulgan atrof-muxit uchun xavflar yoki resurslardan foydalanishning samaradorligi;
- mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida atrof - tabiiy muxitga turli chiqarmalar;
- xavfli substantsiyalarni ishlab chiqarish;
- yakuniy mahsulot iste'moli jarayonida yuzaga kelishi mumkin bulgan xavflar;
- chiqindilardan qayta foydalanish, qayta davrlashtirish va chiqindilarni joylashtirish.

Mahsulot ekologik xayoti taxlili mahsulot ekologik balansini tuzish bilan yakunlanadi. Bunday balansni tuzishda korxonaning atrof tabiiy muxitga tuzilmaviy aralashuvi quyidaagicha taqiq etiladi:

- maydonlardan foydalanish, foydalanish turi va intensivligi;
- imorat qurmoq, qurinishi va shakli, qurilayotgan erga ta'siri;
- er qazish ishlari, ishlab chiqarish va ma'muriy binolarni qurishda.
- kommunikatsiyalarga qushishda;
- asosiy vositalar;
- ombor zaxiralari;
- atrof tabiiy muxitga uzoq muddatli salbiy ta'sir kursatish (masalan, tuproqning og'ir metall tuzlari bilan ifloslanishi).

Korxonalar tomonidan atrof-muxitga bulayotgan ta'sirni uranishnimiz lozim. Tojikiston alyuminiy zavodining atmosferaga chiqarayotgan zaharli chiqindilari nafaqat ushbu qo'shni mamlakatning

korxonaga yaqin joylashgan tumanlari, balki Surxondaryo viloyati aholisi va atrof-muhitga ham salbiy ta`sir ko`rsatmoqda.

"Ekosan" ekologiya va salomatlik xalqaro tashkilotida bo`lib o`tgan uchrashuvda ana shu haqda so`z bordi. Olimlar tomonidan o`tkazilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, mazkur zavodning havoga chiqarayotgan zaharli chiqindilari Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun va Denov tumanida murakkab ekologik vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Bu aholi salomatligiga o`ta salbiy ta`sir ko`rsatayotgani haqida gapirildi. Zavod chiqindilarining ta`sir hududida joylashgan tumanlarda endokrin va immunitet tizimlari, qon va qon hosil qiluvchi organlar, oshqozon-ichak yo`li, nafas olish organlari, qon aylanish tizimi kasalliklari ro`yxatga olinmoqda.

Bundan tashqari, qishloq xo`jaligiga ham sezilarli zarar etkazilmoqda. Buning natijasida chorva mollari soni, anor va uzum etishtiriladigan maydonlar ancha kamayib ketdi. Boshqa qishloq xo`jalik ekinlari ham zararlanmoqda. Sanitariya, gigiena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot institutining ma`lumotlariga qaraganda, Sariosiyo tumanidan olingan tuproq namunalarida ftorli birikmalar tarkibi ruxsat etiladigan darajadan 27 marta ortiq. Shuningdek, aholi iste`mol qilayotgan qishloq xo`jalik mahsulotlari tarkibida ham ftoritlar ko`rsatkichi ancha yuqori.

Mintaqada yuzaga kelgan o`ta murakkab vaziyat yaqin vaqt ichida yanada yomonlashishi mumkinligi ta`kidlandi. Ommaviy axborot vositalarining ma`lumotlariga ko`ra, Rossiyaning "Russkiyalyuminiy" ochiq aktsionerlik jamiyati bilan Tojikistondagi alyuminiy zavodining

ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish, yana bitta shunday korxona barpo etish to`g`risida memorandum imzolangan. Ushbu rejalar amalga oshadigan bo`lsa, Tojikistonda alyuminiy ishlab chiqarish 2004 yilga nisbatan ikki baravar oshadi va yiliga 700-800 ming tonnani tashkil etadi. Bu esa, o`z navbatida, inson va atrof-muhit uchun zararli fitorli vodorod chiqindilarining ko`payishiga olib kelishi mumkin.

Mutaxassislarning fikricha, alyuminiy ishlab chiqarish natijasida havoga chiqariladigan qo`shimcha zaharli chiqindilar busiz ham ancha zaiflashgan mintaqa ekotizimi muvozanatini buzadi. Bu esa atrof-muhit, shu jumladan o`simplik va hayvonot olami uchun fojiali oqibatlarga olib kelib, aholi salomatligiga ta`sir qiladi.

Tadbirda muammoni hal qilish yo`llari xususida fikr almashildi. Ishtirokchilar bu borada yangi alyuminiy zavodi qurilishidan voz kechish, zavodda zamonaviy tozalash texnologiyalarini keng joriy etish, chiqindilar ta`sirini baholash bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi qator takliflarni bildirdi.

Shu bilan birga, uchrashuvda Surxondaryo viloyati va Tojikiston hududining iqlim, geografik va meteorologik sharoitlari hisobga olingan holda, alyuminiy zavodi uchun atmosferaga chiqindi chiqarishning yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan me`yoriy ko`rsatkichlarini ko`rib chiqishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadigan ekspert guruhini tashkil etish ham taklif etildi.

## **Qisqacha xulosalar**

Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholashda asosiy e'tiborni korxonaning ishlab chiqarish va maxsulot iste'moli bilan bog'liq bulgan ekologik ta'sirga qaratiladi.

Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholash ta'siri real va potentsial bulib, uning xamma kulamida ya'ni xom ashyoni olish, maxsulot ishlab chiqarish, foydalanish va utilizatsiyagacha taqiq etiladi. Atrof-tabiyy muxitga ta'sirini baxolashning asosiy parametrlari bulib, tabiiy resurslardan foydalanish, axoli salomatligiga ta'sir, ekologik oqibatlar xizmat qiladi.

MEXDBni qullash va usullarining xizmat qilish soxasiga:

- maxsulot xayotiy davrining turli paytida ekologik soxani yaxshilash;
- sanoat, davlat yoki nodavlat tashkilotlarida qaror qabul qilish;
- tegishli ekologik samaradorlik kursatkichlarini, ulchash usullarini qushib, tanlash;
- marketing xizmatlari kiritiladi.

MEXDB ning asosiy bosqichlariga foydali qazilmalarni qazib olish jarayoni, energiya va xomashyoni egallash, yog'och resurslaridan foydalanish, suv va energiyadan foydalanish, tashish va u bilan bog'liq bulgan atrof-muxit uchun xavflar yoki resurslardan foydalanishning samaradorligi, mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida atrof- tabiiy muxitga turli chiqarmalar, xavfli substantsiyalarni ishlab chiqarish, yakuniy maxsulot iste'moli jarayonida yuzaga kelishi mumkin bulgan xavflar, chiqindilardan qayta foydalanish, qayta davrlashtirish va chiqindilarni joylashtirish kiritiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholashdan maqsad nima?
2. Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholashda e'tibor nimaga qaratiladi?
3. Mahsulotning ekologik xayotiy davri qaysi darajada baholanadi?
4. Atrof tabiiy muxitga ta'sirni baholashning parametrlari nimalardan iborat?
5. Maxsulot ekologik xayotiy davrini baxolash usullarining xizmat qilish soxasini ajratib bering.
6. Mahsulot ekologik xayotiy davrini baholashning asosiy bosqichlarini tushuntiring.
7. Xavfli substantsiyalarni ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?
8. Mahsulot ekologik xayoti taxlilida nimalar aks ettiriladi?
9. Mahsulot ekologik xayoti taxlilining oxirgi bosqichini tushuntiring.
10. Korxonada sut ishlab chiqarish misolida mahsulot ekologik xayoti taxlilini tayyorlang.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralar” –T.: 2009.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.

5. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002.
6. http://www.murman.ru <http://www.murman.ru> (ecology) comitet

### **XIII-Mavzu. EKOLOGIK BOSHQARUVNING TASHKILIY TIZIMI**

- 13.1. Ekologik boshqaruv tizimining umumiyligini xususiyatlari.**
- 13.2. Ekologik boshqaruv tizimlari.**
- 13.3. Ekologik boshqaruv tizim tamoyillari.**

**Ekologik boshqaruv tizimining umumiyligini xususiyatlari.** Ekologik boshqaruv tizimi tabiiy resurslar, jamiyatning tabiiy yashash muxiti va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi urtasidagi aloqalarga ma'lum darajada ta'sir kursatish va shu maqsadda ushbu munosabatlarni muvozanatlashtirish, yashash muxitini saqlash va takror ishlab chiqarishni aks ettiradi.

Ekologik boshqaruv tanlangan mezonlar buyicha ushbu munosabatlarni bir xolatdan ikkinchi xolatga utkazishni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan ekologik boshqaruv atrof-muxitga xilma-xil ta'sir kursatishning (foydalanish va muxofaza qilish) tashkiliy tuzilmasini, rejallashtirish, mas'uliyatni taksimlash, amaliy usullar, protseduralar, jarayonlar va resurslarni ekologik siyosat yunalishida boshqaruvning kuzlangan maqsad natijalariga erishish va ularni amalga oshirishni uz ichiga oladi.

Ekologik boshqaruv zarur axborotlarga asoslanib amalga oshiriladi va atrof-muxitning boshqariladigan majmui ishlab turishini qullab-quvvatlashga yoki yaxshilashga yunaltiriladi. U quyilgan vazifalarni bajarish uchun belgilangan va izchil xarakatlarni ifodalaydigan rejalar, dasturlar asosida maxsus boshqaruv idoralari yoki boshqa boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bunda tabiiy tizimlarda amal qiladigan uz-uzini boshqarish xususiyatlari xar tomonlama tula xisobga olinishi kerak.

Ekologik boshqaruv quyidaagi qoidalar asosida amalga oshiriladi:

- 1) ma'lum maqsadni amalga oshirishga yunaltirish;
- 2) amalga oshirilgan yoki oshiriladigan tadbirlarning boshqarilayotgan ob'ektlar majmuiga ijobiy va salbiy ta'sirini bilishga qaratish;
- 3) tabiiy-resurs va ekologik-iqtisodiy potentsialning ob'ektiv cheklanishlarini xisobga olish;
- 4) barcha jarayonlarning ijobiy samarasini kuchaytirish asosida ularni kutilgan moddiy energetik teskari aloqalar paydo bulishiga yunaltirishning maqsadga mivoqiqligi;
- 5) ekologik boshqaruv ierarxik tashkil etilishi.

Ekologik boshqaruvning ierarxik tashkil etilishi quyidaagilarni talab qiladi:

- a) quyi bug'in xarakatlari xududiy-vaqt (muddat) ierarxiyasi buyicha yuqori darajani mos xolda tuldirishi;
- b) oliy bug'inlar quyi buginlar ishlashiga xalaqit bermasligi;

- v) boshqaruv bug'inlari eng kam darajaga tushirilishi;
- c) boshqaruvning optimal bulishi;
- d) boshqaruvni unga mos keladigan boshqarish shakllari asosida tashkil etish;
- j) boshqaruv samaradorligi maqsadlariga ushbu tadbirlar va ijtimoiy zarur xarakatlardan kutilayotgan kattalikdagi ijobiy natijalarning yigindisini moslashtirish tartiblarining quyilishi;
- h) boshqaruv qarorlari jismoniy va ma'naviy xarakatlardan xoli bulib, uz vaqtida qabul qilinishi;
- i) boshqaruv doimo bashorat (prognoz) yunalishida buladi va muddat buyicha ekologik ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni xar tomonlama chuqur xisobga oladi va extimol tutilayotgan vaziyatning kup variantli taxliliga asoslanadi;
- k) boshqaruv tizimi moslashgan bulishi, ya'ni tuzilishi va ishslash usullarini tuplangan ish tajribalari va boshqaruvning tashqi sharoitlari va maqsadlari uzgarishlar mivoviq uzgartirishi kerak.

Ekologik boshqaruv tizimi tabiat tizimlarida amalgalashishiga oshiriladigan uz-uzini boshqarish tizimi bilan jonli tabiat tizimining tabiiy boshqarilishi va inson boshqaruv tizimlari va strategiyalari urtasidagi katta farqlar mavjudligi qator ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab buladi. Bular quyidaagilarda uz ifodasini topadi:

- Tabiatdagi jarayonlar xilma-xillik optimumi va biologik maxsulorlikning minimumida oliy biomassaga erishishga yunaltirilgan. Odamlar esa xilma-xillikning (monokultura) va umumiy biomassaning

minimumida (biomassa maksimumi usimliklar va xayvonlarning foydali qismlarida tuplanishi kerak) yoki ikkilamchi biomassaning (uy xayvonlari) ustunligida maksimal foydali maxsulotga (xosildorlikka) intiladilar;

- Tabiat «nuqtai nazaridan» madaniy usimlik navlari yoki uy xayvonlari zotlari tabiat tizimlarining uz-uzini boshqaruvida yuqotib yuborilishi kerak bulgan anomal (normal), genetik uta bir xil va biologik yomon moslashgan individlar majmui xisoblanadi.

- Tabiatdan foydalanishni boshqarishda ushbu xolat xisobga olinishi kerak. Bu konflikt (qarama-qarshilik) madaniylashgan ekotizimlarni parvarishlashning agrotexnik va boshqa usullari va xududlarni ekologik optimallash tadbirlari orqali bartaraf qilinadi va shunga mivoqiq ma'lum darajada tabiiy-antropogen muvozanat saqlab qolinadi.

**Ekologik boshqaruv tizimlari.** Ekologik boshqaruv tizimlari goyat murakkab bulib, ular quyidaagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- boshqaruv tamoyillari va qullaniladigan usullar;
- boshqaruv xarakatlarining barcha qismlari tuplami (tashkil etish, prognozlash, normalashtirish, rejalash, nazorat va tartibga solish, xisob va xisobot, taxlil, axborot tuplash va qayta ishslash);
- boshqaruv tuzilishi;
- boshqaruv xodimlari;
- qabul qilingan normalar va qoidalar;
- texnik vositalar.

Ekologik boshqaruv tizimining asosini ma'lumotlar bankidan iborat bulgan axborotlar tashkil etadi. Masalan, foydali qazilma qonlarining va

foydale qazilma konlarini aniqlanishi extimoli bulgan istiqbolli er qa'ri uchastkalarining davlat resurslari axborotlari mineral xom ashyo bazasini uzlashtrish va yanada rivojlantirish istiqbollarini aniqlash va ularni boshqarish maqsadida tuplanadi.

Ekologik boshqaruv maqsadga mivoviq ta'sir sifatida boshqaruv xarakatlarining ma'lum ketma-ketligi bulib, qator boshqaruv richaglari tizimidan foydalanadi. Boshqaruv jarayonlari uz-uzini tartibga soluvchi tizimlarga xos bulib, ular uzgaruvchan atrof-muxit sharoitida uzlarining asosiy xossalalarini saqlab qolish qobiliyatiga ega buladilar. Boshqaruvning quyidaagi umumiyl elementlarini ajratish mumkin: boshqaruv ob'ekti va sub'ekti, tugri va teskari axborot aloqalari, ekologik va ijtimoiy muxit.

Boshqaruvning ob'ekti va sub'ekti ular urtasida yuzaga keladigan aloqalarning paydo bulishi bilan boshqariladigan uzgaruvchan (dinamik) tizimni tashkil etadi. Atrof tabiiy muxitni boshqarish atrof-muxitga ishlab chiqarish va ishlab chiqariladigan maxsulotlarning zararli ta'sirini cheklaidigan norma va talablarning bajarilishi xamda tabiiy resurslardan ratsional foydalanish, ularni tiklash va takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Bu faoliyat quyidaagi natijalarga erishishga yunaltiriladi:

- Foydale qazilma konlaridan ratsional foydalanish;
- Atrof-muxit elementlari nazorati va boshqaruv tizimlari samarali ishlashi va ularning barcha birlashmalar, korxonalar, firmalar xizmati bilan aloqalari samarasini oshirish;
- Atmosferaning chiqarmalar bilan ifloslanishini tuliq bartaraf etish yoki me'yoriy talablar darajasida yoki undan pastroq bulishiga erishish;

- Suv sarfini kamaytirish;
- Suv ob'ektlari tashlanmalar bilan ifloslanishini tuliq bartaraf etish yoki me'yoriy talablar darajasigacha kamaytirish;
- Tuproq va er osti boyliklari ifloslanishini me'yoriy talablar darajasigacha yoki undan kamroq darajagacha kamaytirish;
- Foydali qazilma konlarini kompleks uzlashtirish va chiqindisiz texnologiyani qullash asosida yuldas, qushimcha maxsulotlar va ikkilamchi resurslardan tuliq foydalanish;
- Foydali qazilmalarning isrof bulishini eng kam darajaga tushirish va ularning kupayishiga yul quymaslik;
- Tog'-kon sanoati korxonalari maxsulotlariga ekologik asoslangan talablarga rioya qilinishini ta'minlash.

Bu tadbirlarning kupchiliginи amalga oshirish iqtisodiy richaglardan tuliq foydalanish bilan uzviy bog'liqdir. Ekologik boshqaruv tizim tamoyillari. Ekologik boshqaruv tizim tamoyillari uziga xos xususiyatga ega bulgan quyidaagi mezonzlarga asoslanadi:

- Bajariladigan vazifalar va vakolatning bulinishi maqsadlarida boshqaruv mexnati taqsimoti.
- Dastlabki axborot oqimlari va boshqariladigan ob'ektlar barcha qismlarini xarakatga keltiruvchi komandani markazlashtirish.
- Xokimiyat mas'uliyatni (javobgarlikni) taqsimlash, farmoyish berish xuquqi va buysunishga majbur qilish idorasi sifatida.
- Kelishimlar, normalar, me'yorlar, standartlarga rioya qilish intizomi.

Bir raxbar va bir xarakat dasturi mavjudligida raxbarlik birligi va ularning boshqaruv tuzilmasining tugri tarkibi va yakkaboshchilik (boshliq- raxbar) bilan ta'minlanishi.

Xususiy manfaatlarni umumiylar manfaatlarga buysundirish. Uz vazifalarini yaxshi bajarganlik uchun ragbatlantirish (ish xaqi, mukofotlar, foyda olishda ishtirok etish). Uzining aniq vazifalari bulgan raxbarlik lavozimlarining oliy buginidan tortib, to quyi buggingacha zarur ierarxiyasi mavjudligi. Tartibning mavjudligi, ya'ni xar bir shaxs uchun ma'lum uringa va xar bir shaxs uchun uzurni bulishiga erishish. Adolatlilik va uning xayrixoxlik vaadolatlilik, xodimlarning uz xizmat vazifalarini bajarishini ragbatlantirish bilan qunshlishi. Uz vazifalarini stabil bajarishni ta'minlaydigan xodimlar tarkibining doimiyligi. Xodimlar faolligi va ularning kasbiy maxorati usishini ta'minlaydigan tashabbuskorlikning mavjudligi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ekologik boshqaruv tizimi tabiiy resurslar, tabiiy muxit va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi urtasidagi alokalarga ma'lum darajada ta'sir kursatish va yashash muxitini saqlash xamda takror ishlab chiqarishni aks ettiradi. Ekologik boshqaruv atrof-muxitga xilma-xil ta'sir kursatishning (foydanish va muxofaza qilish) tashkiliy tuzilmasini, rejalashtirish mas'uliyatni taqsimlash, amaliy usullar, protseduralar, jarayonlar va resurslarni ekologik siyosat yunalishida boshqaruvning kuzlangan maqsad natijalariga erishish va ularni amalga oshirishni uz ichiga oladi.

**Ekologik boshqaruv:**

- ma'lum maqsadni amalga oshirishga yunaltiriladi;
- amalga oshirilgan yoki oshiriladigan tadbirlarning boshqarilayotgan ob'ektlar majmuiga ijobiy va salbiy ta'sirini xisobga olish;
- tabiiy-resurs va ekologik-iqtisodiy potentsialning ob'ektiv cheklanishlarini xisobga olish;
- barcha jarayonlarning ijobiy samarasini kuchaytirish;
- ekologik boshqaruv ierarxik tashkil etilishi;
- boshqaruvning optimal bulishi;
- boshqaruvni unga mos keladigan boshqarish shakllari asosida tashkil etish;
- boshqaruv samaradorligi maqsadlariga ushbu tadbirlar va ijtimoiy zarur xarakatlardan kutilayotgan kattalikdagi ijobiy natijalarning yigindisini moslashtirish tartiblarining quyilishi;
- boshqaruv qarorlari jismoniy va ma'naviy xarakatlardan xoli bulib, uz vaqtida qabul qilinishi;
- boshqaruv doimo bashorat (prognoz) yunalishida buladi va muddat buyicha ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni xar tomonlama chuqr xisobga oladi va extimol tutilayotgan vaziyatning kup variantli taxlili;
- boshqaruv tizimi moslashgan bulishi, ya'ni tuzilishi va ishslash usullarini tuplangan ish tajribalari va boshqaruvning tashki sharoitlari va maqsadlari uzgarishlar mivoiq uzgartirishni nazarda tutadi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Ekologik boshqaruv tizimi nima?

2. Ekologik boshqaruv tizimi qanday maqsadlarga xizmat qiladi?
3. Ekologik boshqaruv qanday qoidalar asosida amalga oshiriladi?
4. Ekologik boshqaruvning ierarxik tashkil etilishini tushuntirib bering.
5. Boshqaruvning optimal bulishi deganda nimani tushunasiz?
6. Ekologik boshqaruv tizimi bilan tabiat tizimlari urtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
7. Tabiatdagi jarayonlar xilma-xillik optimumi va biologik maxsuldarlikning minimumini tushuntiring.
8. Ekologik boshqaruvni tarkibiy tuzilishini sxematik tasvirlang.
9. Ekologik boshqaruv tizimi ma'lumotlar bankini tuzing va tushuntirib bering.
10. Ekologik boshqaruv tizim tamoyillari qanday mezonlarga asoslanadi?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralar" –T.: 2009.
2. Milliy ma'ruza. -T., O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002

## **XIV -Mavzu. EKOLOGIK MONITORING**

- 14.1. Ekologik monitoring**
- 14.2. Ekologik monitoringning axborot maqsadlari**
- 14.3. Ekologik monitoring tizimining ekologik boshqaruv o'rni.**

**Ekologik monitoring.** Ekologik boshqaruv tabiat xolati va unda turli jarayonlar rivojlanishi tugrisidagi ekologik axborotlarni tuplash ishslash, saqlash va ulardan foydalanishni uz ichiga oladi. Monitoring urganilayotgan ob'ektning xolatini tartibga solingan kuzatish majmuasi va unda sodir bulayotgan uzgarishlar dinamikasini tasvirlash, vaziyat rivojini prognozlashni bildiradi.

Ekologik monitoring atrof- tabiiy muxitning kompleks monitoringini tashkil etish xisoblanadi. U inson yashaydigan muxit sharoiti va biologik ob'ektlar (usimlik, xayvonlar, mikroorganizmlar) ekotizimlarni doimiy baxolashni ta'minlaydi, shuningdek tabiiy muxit sharoitlarining noqulay tomonga uzgarishlariga yul quymaydigan tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etadi.

Atrof tabiiy muxit monitoringa Uzbekistan Respublikasi «Tabiatni muxofaza qilish tugrisida»gi (1992 yil) qonuni 28-modtsasiga mivoviq quyidaagi maqsadni amalga oshirishni kuzda tutadi:

“Uzbekiston Respublikasi xududida atrof tabiiy muxitning xolati va uning resurslarini kuzatish, xisobga olish, ularga baxo berish va ularning istiqbolini belgilashni ta'minlash maqsadida atrof tabiiy muxitning davlat monitoringi tizimi tashkil etiladi. Atrof tabiiy muxitning xolati, tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv maxsus vakolat berilgan idoralar,

shuningdek, faoliyati atrof tabiiy muxitning xolatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bulgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan amalga oshiriladi...».

Ekologik monitoringning axborot maqsadlariga quyidaagilar kiradi:

- tabiiy muxit sifati kursatkichlarini olish;
- biosferaning eng kup zararlangan uchastkalarini aniqlash va ularni miqdoriy baholash;
- erta xabardor qilish ko'rsatkichlarini olish.

Ekologik monitoring quyidaagi vazifalarni bajaradi:

- Tabiiy muxit, geotizimlar, tabiat ob'ektlari va ularga antropogen ta'sir kursatuvchi manbatarni doimiy kuzatish va sifat jixatidan baxolashni amalga oshirish.

Tabiat ob'ektlariga sezilarli zarar etkazishdan oldin salbiy ta'sirning sabablari va yunalishini oldindan aniqlash.

- Axoli yashash muxitining ekologik sharoitlari, biologik ob'ektlarning xolati, shuningdek, ekotizimlarning funksional yaxlitligini uzluksiz baholash.
- Salbiy omillarning kuchayib borishida ob'ekt va tizimlarga tuzatish ta'sirini belgilash.
- Ekologik boshqaruvi ekologik monitoring xizmatidan tabiat muxofazasi va ekologik xavfsizlik maqsadalarini uchun quyidaagi ob'ektlar guruxi va ularning uzaro aloqalari tug'risida quyidaagi ishonchli va tuliq, axborotlarni olishi mumkin:
- biotik muxit (usimlik va xayvonot dunyosi);

- abiotik muxit (uzaro bog'liq, tabiat komponentlari, sanoat komplekslari va axoli yashash manzillari);
- antropogen ta'sir ob'ektlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar.

Bu ob'ektlar to'grisidagi axborotlar ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirini xisobga olib, asoslangan ekologik boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bu ob'ektlardan xar birining holatini aniqlash uchun turli asboblardan foydalanish asosida ekologik nazorat amalga oshiriladi.

**Ekologik nazorat va uni amalga oshirish.** Ekologik nazorat Uzbekistan Respublikasi «Tabiatni muxofaza qilish tugrisida»gi (1992 yil) konunning 29-31-moddalariga mivoviq quyidaagi uchta asosiy darajada amalga oshiriladi:

- davlat tabiiy muxit xolatini kuzatib borish xizmati va tabiatni muxofaza qilish soxasidagi davlat nazorati;
- tabiatni muxofaza qilish soxasidagi idoraviy, ishlab chiqarish nazorati;
- tabiatni muxofaza qilish soxasidagi jamoat nazorati.

Davlat atrof tabiiy muxit xolatini kuzatib borish xizmati «tabiiy muxitda sodir bulayotgan fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni, atmosfera xavosi, tuproq, er usti va er osti suvlarining ifloslanish darajasini, ifloslanishning usimlik va xayvonot dunyosiga ta'siri oqibatlarini kuzatib borish, manfaatdor tashkilotlar va axolini atrof-muxitda bulayotgan uzgarishlar xaqida joriy va shoshilinch axborotlar xamda bu muxit xolatiga oid taxminlar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etiladi» (30-modda).

Tabiatni muxofaza qilish soxasidagi davlat nazorati davlat xokimiyati va boshqaruv idoralari, maxsus davlat tabiatni muxofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi(31-modda).

«Vazirliklar, davlat qumitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qumitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muxofaza qilish soxasidagi idoraviy nazoratni amalga oshiradi. Tabiatni muxofaza qilish soxasidagi ishlab chiqarish nazoratini korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmatlari amalga oshiradi, tabiatni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof-tabiiy muxitni sog'lomlashtirish, tabiatni muxofaza qilishga doir qonunlarning talablari yuzasidan dasturlar xamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish maqsadini kuzlaydi» (32-modda).

«Tabiatni muxofaza qilish soxasidagi jamoat nazoratini jamoat birlashmalari, mexnat jamoalari, fuqarolar amalga oshiradilar» (32-modda). Ekologik monitoring tizimini yanada takomillashtirish muntazam kuzatuvlarning texnologik darajasini takomillashtirish (namunalar olish, ulchovlarning aniqligi, taxlillarning sifati va shu kabilar) yulidan xam, monitoring tarmogini kengaytirish va noaniq ifloslantirish manbalarini (kollektor-zovur suvlari, maishiy oqava suvlarini markazlashtirilgan xolda tashlab yuborish, yul transporti) tuliqroq qamrab olish yulidan xam bormogi kerak.

Shuningdek, monitoring uchun, tuproq eroziyasi va erlar buzilishi, sel oqimlari va tog' kuchish xodisalari, erlearning chulga aylanishi va atrof tabiiy muxitga boshqa salbiy ta'sir kursatishga doir ma'lumotlarni tuplash

va taxlil qilish uchun asta-sekin tuzilmalar barpo etish xam zarur bulib, tarmoq va ekologik siyosatini ishlab chiqish vaqtida ularni xisobga olish muximdir.

Mamlakatning xamma tumanlarida suv va gazning amalda sarflanishini schetchiklar yordamida ulchashga utish suv va gazdan foydalanishni ekologiyalash uchun axborot sharoitlarini yaratish soxasidagi eng dolzarb choradir. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzurida tashkil etilgan Davlat kadastrlari yagona xizmati (DKYaX)ni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga aloxida e'tibor berish kerak.

«Uzgeodezkadastr» respublika xududida xamma kadastrlarning (ularning turi esa 30 dan ortiq) yuritilishini mivoviqlashtiribgina qolmay, er kadastro negizida asosiy kadastr axborotining xammasini uzida jamlaydi. Undan foydalanish tabiatdan tula foydalanish, soliq solish va xokazo tizimlarni takomillashtirish imkonini beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ekologik monitoring-tabiat xolati va unda turli jarayonlar rivojlanishi tug'risidagi ekologik axborotlarni tuplash, qayta ishslash, saqlash va ulardan foydalanishni uz ichiga oladi. Monitoring urganilayotgan ob'ektning xolatini tartibga solingan kuzatish majmuasi va unda sodir bulayotgan uzgarishlar dinamikasini tasvirlash, vaziyat rivojini prognozlashni bildirib, atrof tabiiy muxitning kompleks kuzatuvini tashkil etish xisoblanadi. Atrof tabiiy muxit monitoringi atrof tabiiy muxitning xolati va uning resurslarini kuzatish, xisobga olish, ularga baxo berish va ularning istiqbolini

belgilashni ta'minlash maqsadida maxsus vakolat berilgan idoralar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ekologik monitoringning axborot maqsadlari tabiiy muxit sifati kursatkichlarini olish, biosferaning eng kup zararlangan uchastkalarini aniqlash va ularni miqdoriy baxolash, erta xabardor qilish kursatkichlarini olishdan iborat. Ekologik nazorat Uzbekistan Respublikasi «Tabiatni muxofaza qilish tugrisida»gi (1992 yil) qonunning 29-31-moddalariga mivoviq amalga oshiriladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Ekologik monitoring utkazish zaruriyatini tushuntiring.
2. Monitoringning urganish ob'ekti deganda nimani tushunasiz?
3. Ekotizimlarni doimiy baxolashning ob'ekti bulib nima xizmat qiladi?
4. Atrof tabiiy muxitning kompleks monitoringida qaysi komponentlar monitoring ob'ekti bulib xizmat qiladi?
5. Atrof tabiiy muxitning xolati, tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv vakolati kimga berilgan?
6. Ekologik monitoringning axborot maqsadlari nimalardan iborat?
7. Tabiiy muxit sifati kursatkichlarini ekologik monitoringdagi urnini tushuntiring.
8. Ekologik nazorat xizmati vazifalari nimalardan iborat?
9. Davlat ekologik nazorat xizmatiga qanday vakolatlar berilgan?
10. Ekologik nazoratning moliyaviy instrumentlari.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralari” –T.: 2009.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002
6. http://www.murman.ru <http://www.murman.ru> (ecology) comitet.
7. www. ecology, com.
8. www. ecology and sociaty.org <http://www.sociaty.org>.
9. www. ecologycenter.org <http://www.ecologycenter.org>.

### **XVI-Mavzu. EKOLOGIK BOSHQARUVNING TASHKILIY TUZILMASI VA EKOLOGIK BOSHQARUV IDORALARI**

- 15.1. Ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi**
- 15.2. Ekologik boshqaruvning boshqaruv idoralari.**
- 15.3. Maxalliy boshqaruv organlarining ekologik boshqaruvdagi o’rni.**
- 15.4. O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish Davlat Qumitasining roli.**

**Ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi.** Ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish va tabiat resurslaridan foydalanishning ekologik boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va ushbu soxada uz vazifalarini bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli ekologik boshqaruv idoralari va buginlarining majmuidan tashkil topadi. Ekologik boshqaruvning u yoki boshqa vazifalarini bajarish uchun muayyan ekologik idoralar tuziladi.

Ekologik boshqaruv idoralari tizimi boshqaruvning umumdavlat tizimi tarkibiga kiradi va uning ekologik vazifalarini bajaruvchi maxsus va mustaqil tuzilishli bug'ini xisoblanadi. Bunda umumdavlat boshqaruvidagi kabi ekologik boshqaruvda xam quyi idoralarning yuqori idoralarga buysunishi va ular urtasida uzaro aloqa ekologik boshqaruvning tuzilmasi xususiyatini belgilab beradi. Ekologik boshqaruv bosqichlari vazirlik (qumita) birlashma, korxona, sex, uchastka(vertikal buyicha bulinish) va xududiy (maxalliy idoralar) yuqori bug'in (viloyatlar va Toshkent shaxri) quyi bug'in (tuman, shaxar) bosqichlariga (gorizontal buyicha) bulinadi. Uz navbatida, O'zbekistan Respublikasining oliv vakolatli idoralari Respublikaning umumdavlat idoralari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi sud xokimiyati idoralari atrof-muxitni muxofaza qilishni boshqarishning oliv tizimini tashkil etadi.

Xozirgi vaqtida O'zbekistonda atrof tabiiy muxitni boshqarishning quyidaagi ekologik tizimiga amal qilinmokda. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi (parlament) tabiatni muxofaza qilish soxasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlarini belgilaydi, davlat

ekologiya dasturlarini tasdiqlaydi, qonun xujjatlarini qabul qiladi va Tabiatni muxofaza qilish davlat qumitasining faoliyatini mivoqiqlashtirib turadi. Xududlarni favqulodda ekologik falokat va ekologik ofat mintaqalari deb e'lon qiladi, bunday mintaqalarning xuquqiy rejimi va jafo kurganlarning maqomini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ekologik boshqaruvning eng tepasida turadi va ekologiya muammolari yuzasidan strategik qaror qabul qiladi. Atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish soxasida xalqaro xamkorlikning rivojlanishiga raxbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasn davlatning tabiatni muxofaza qilish siyosatini amalga oshiradi, ekologiya soxasidagi davlat dasturlarini qabul qiladi, ularning bajarilishini nazorat qiladi. Tabiiy resurslarni xisobga olish va baxolashni tashkil etadi, tabiatni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish soxasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantiradi.

Davlat xokimiyati va boshqaruvi maxalliy idoralari (viloyatlar, Toshkent shaxri, tumanlar) uz xududida tabiatni muxofaza qilishning asosiy yunalishlarini belgilaydi. Mintaqaning (xududning)ekoloshya dasturini tasdiqlaydi, tabiiy resurslarni xisobga oladi va ularning axvoliga baxo beradi, ekologiya jixatidan zarar bulgan ob'ektlarni ruyxatga oladi. Tabiatni muxofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnik jixatdan ta'minlaydi, tabiiy resurslardan foydalanish xuquqini beruvchi, sanoat chiqindilari yoki ruzg'or chiqindilarini tuplash yoki kumib tashlashga ruxsatlarni belgilangan tartibda beradi yoki bekor qiladi, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun tulovlarni undiradi, tabiatning muxofaza qilinishi

ustidan nazorat urnatadi, atrof-muxitga zarar etkazayotgan maxalliy axamiyatga molik ob'ektlar faoliyati vaqtincha yoki butunlay tuxtatadi va qayta ixtisoslashtirish tugrisida qarorlar qabul qiladi.

O'zbekistonda atrof-muxitni muxofaza qilish buyicha bosh ijro etuvchi idora Tabiatni muxofaza qilish davlat qumitasi bulib, u bevosita Oliy Majlisga buysunadi. Uning vakolatlariga quyidaagilar kiradi: vazirliklar, davlat qumitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, ayrim shaxslar tomonidan er, er osti boyliklari, suv, urmon, xayvonot va usimlik dunyosidan atmosfera xavosidan foydalanish xamda ularni muxofaza qilishga doir qonunlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, davlat ekologik ekspertrizasini utkazadi, atrof-muxit sifatining me'yorini tasdiqlaydi, ifoslantiruvchi moddalarni xavoga chiqarib tashlash va suvga oqizish, shuningdek, chiqindilarni joylashtirishga ruxsatnomalar beradi va ularni bekor qiladi, ekologiya masalalarida xalqaro xamkorlikni tashkil etadi.

Tabiatni muxofaza qilish qumitasi Qoraqalpog'siston Respublikasi va viloyatlarda, ma'muriy tumanlar va shaxarlarda tabiatni muxofaza qilish qumitalari (inspeksiyalari)dan iborat mintaqaviy tuzilmaga ega. Tabiatni muxofaza qilish davlat qumitasidan tashqari tabiat muxofazasi soxasidagi davlat nazoratini sanoat va qonchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, Sog'likni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Qopaqalpoq qishloq va suv xujaligi vazirligi amalga oshiradi.

Tabiatni muxofaza qilish soxasidagi maxsus vazifalarni bajarish Geologiya va mineral resurslar davlat qumitasi, O'zbekistan Respublikasi

Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Gidrometeorologiya bosh boshqarmasi, Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari bosh boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan. Atrof-muxitning xolati xaqida qisqa muddatli va uzoq muddatli istiqbollarni belgilash Iqtisodiyot vazirligi, tabiatdan foydalanishning statistika bazasini rivojlantirish, Statistika davlat qumitasi, er tuzish va erdan foydalanishni nazorat qilish (er monitoringgi) Er resurslari davlat qumitasi zimmasiga yuklatilgan.

Atrof-muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish tuzilmasi takomillashtirish quyidaagilarni talab qiladi. Atrof-muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish tuzilmasini takomillashtirish xar bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish saloxiyati asosida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda atrof-muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanishni takomillashtirish soxasiga quyidaagi talablar quyiladi:

- tabiatdan foydalanish buyicha turli xukumat va jamoatchilik institutlari urtasida javobgarlikni aniq chegaralab quyish xamda maxalliy xokimiyat va jamoatchilikning rolini kuchaytirish;
- atrof-muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish soxasidagi boshqaruva vazifalarini markaziy joylarga berishni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish;
- suv resurslarini muxofaza qilish samaradorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanish maqsadida suv xavzalari buyicha yondashish (xavzalar buyicha inspeksiyalar tashkil etish) tamoyilidan kengroq foydalanish;

- davlat nazoratining ta'sirchanligini oshirish, xuquqni muxofaza qilish faoliyatida ekologik yunalishni rivojlantirish uchun xuquqning amalda qullanishini aloxida soxa qilib ajratish, bunda maxsus ekologik prokuratura xamda ekologik militsiya bulinmalarini rivojlantirish;
- jamoatchilikni qarorlar muxokama qilish, qabul qilish va ayniqsa maxalliy darajada ekologiya chora-tadbirlarini amalga oshirishga jalb etish;
- tabiatni muxofaza qiluvchi idoralarning kadrlar potentsialini takomillashtirish, shu munosabat bilan tabiatni muxofaza qiluvchi idolar xodimlarining ekologiyaga doir qonunlar, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, ekologik ekspertiza utkazish, xatarlar va atrof-muxitga kursatilgan ta'sirlarni baxolash soxasidagi bilimlarini takomil-lashtirishga aloxida e'tibor beriladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish va tabiat resurslaridan foydalanishning ekologik boshqaruv idoralari va bug'inlarining majmuidan tashkil topadi. Ekologik boshqaruv idoralari tizimi boshqaruvning umumdavlat tizimi tarkibiga kiradi va uning ekologik vazifalarini bajaruvchi maxsus va mustaqil tuzilishli bug'ini xisoblanadi. Ekologik boshqaruv bosqichlari vazirlik (qumita) birlashma, korxona, sex, uchastka (vertikal buyicha bulinish) va xududiy (maxalliy idolar) yuqori bug'in (viloyatlar va Toshkent shaxri) quyi bug'in (tuman, shaxar) bosqichlariga (gorizontal buyicha) bulinadi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tabiatni muxofaza qilish soxasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlarini belgilaydi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti ekologik boshqaruvning yuqori bugini bulib, ekologiya muammolari yuzasidan strategik qaror qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi davlatning tabiatni muxofaza qilish siyosatini amalga oshiradi, ekologiya soxasidagi davlat dasturlarini qabul qiladi, tabiatni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish soxasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantiradi.

Atrof-muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish tuzilmasini takomillashtirish tabiatdan foydalanish buyicha turli xukumat va jamoatchilik institutlari urtasida javobgarlikni aniq chegaralab quyish xamda maxalliy xokimiyat va jamoatchilikning rolini kuchaytirish, atrof-muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish soxasidagi boshqaruv vazifalarini markaziy joylarga berishni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish, suv resurslarini muxofaza qilish samaradorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanish maqsadida xavzalar buyicha yondashish (xavzalar buyicha inspeksiyalar tashkil etish) tamoyilidan kengroq foydalanish, bunda maxsus ekologik prokuratura xamda ekologik militsiya bulinmalarini rivojlantirish, jamoatchilikni qarorlar muxokama qilish, qabul qilish va ayniqsa maxalliy darajada ekologiya chora-tadbirlarini amalga oshirishga jalb etish, tabiatni muxofaza qiluvchi idoralarning kadrlar potentsialini takomillashtirish, shu munosabat bilan tabiatni muxofaza qiluvchi idoralar xodimlarining ekologiyaga doyr qonunlar, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, ekologik ekspertiza utkazish, xatarlar va atrof-muxitga kursatilgan ta'sirlarni baxolash soxasidagi bilimlarini takomillashtirishga e'tibor beriladi.

### **Nazorat va muxokama uchun savollar:**

1. Ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini sxematik tasvirlang.
2. Ekologik boshqaruvning vazifalari nimalardan iborat?
3. Ekologik boshqaruv idoralarining vazifalarini tushuntiring.
4. Boshqaruvning umumdavlat tizimi deganda nimani tushunasiz?
5. Umumdavlat boshqaruvi bilan ekologik boshqaruvning farqi nimada?
6. Boshqaruvning yuqori idoralari iborasi nimani nazarda tutadi?
7. Ekologik boshqaruv bosqichlarini sxematik tasvirlang.
8. O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi (parlament)ning tabiatni muxrfaza qilish soxasidagi rolini tushuntiring.
9. Davlat xokimiyati boshqaruvining maxalliy idoralarining vakolatlarini tushuntiring.
10. Tabiatni muxofaza qilish qumitasining vazifalari nimalardan iborat?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralari” –T:. 2009.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002

6. http://www.murman.ru <http://www.murman.ru> (ecology) comitet
7. www.ecology.com.
8. www.ecologyand.sociaty.org <http://www.ecologyand.sociaty.org>.
9. www.ecologycenter.org <http://www.ecologycenter.org>.

## **XVI-Mavzu. KORXONALARING EKOLOGIK MENEJMENTI VA ATROF-MUXIT MUXOFAZASI**

**16.1. Korxona «Ekologik menejment»i tug'risida tushuncha.**

**16.2. Atrof - muxitni boshqarishda korxona ekologik menejmentning tutgan o'rni.**

**16.3. Korxona boshqaruvi.**

**16.4. Steyk-xollderlar nazariyasi.**

**Korxona «Ekologik menejment»i tug'risida tushuncha.** Korxona ekologik menejmenti korxona boshqaruv faoliyatining atrof-muxit bilan bevosita yoki bilvosita uzaro munosabatlarining turli shakllari, yunalishlari, tomonlari va boshqalariga taalluqli bulgan tizimi xisoblanadi. Bunda korxona «Ekologik menejment»i predmeti bulib korxona faoliyatining ishlab chiqarilayotgan maxsulot va kursatayotgan xizmatini ekologik (tabiat muxofazasi, resurs tejash va boshqalar) tomonlari yoki jixatlari xizmat qiladi. Korxona uz faoliyatining ekologik tomonini atrof tabiiy muxit va uning resurslariga boshqarishda ijobiy yoki salbiy ta'sir kursatadi.

Shu sababdan korxona ekologik menejmentining maqsadi biznes faoliyatining atrof tabiiy muxitga salbiy ta'sirini eng kam darajaga tushirish, ishlab chiqarish jarayonlari va iste'molning, korxona ishlab chikarayotgan maxsulot va kursatayotgan xizmatlarining yuqori darajadagi ekologik xavfsizligiga erishishdan iborat. Bunda ushbu vazifalarni amalga oshirish korxonaning boshqa ustuvor maqsadlariga erishishi bilan (shu jumladan, joriy va uzoq muddatli raqobatbardoshligiga erishishni xam qushib) mivoviqlashtirilishi kerak.

Shunday qilib, korxona ekologik menejmenti, uning faoliyatining ekologik soxalari belgilab beradigan, korxonaning raqobatbardoshligini qullab-quvvatlash vazifasini amalga oshiradigan korxona menejmenti tizimining tarkibiy qismi (yoki ma'lum tomoni) deb ta'riflash mumkin. Shu ma'noda korxona ekologik menejmenti boshqaruv faoliyatining chegaralari va maqsadlarini kengaytiradi, u atrof tabiiy muxitini xam shu ma'noda qamrab oladiki, birinchidan, bundan keyin ekologik muammolar biznes faoliyatning boshqa tomonlaridan farq qiladigan tomoni (jixati) sifatida kurib chiqilmaydi va ikkinchidan, ekologik masalalar, oqibatlar, xarajatlar va boshqalar biznesning integral qismiga aylanadi.

Xalqaro standartlar nuqtai nazaridan atrof-muxitni boshqarish tizimi resurslarni joylashtirish, xizmat vazifalarini taqsimlash, usullari, protseduralar va jarayonlar orqali korxonalar, tashkilotlarning uz ekologik masalalari echimi tartibi va izchilligini ta'minlashini bildiradi. Atrof-muxit muxofazasi boshqaruv tizimini korxonalar boshqarushi tizimining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish doimiy xarakterga ega. Bunda ekologik

siyosatni amalga oshirish va maqsadli rejadagi ekologik kursatkichlarga erishish uchun tuzilma, mas'uliyat, usullar, protseduralar, jarayonlar va resurslar boshqa soxadagi ishlar bilan mivoviqlashtiriladi (masalan, ishlab chiqarish, moliya, sifat, mexnat muxofazasi va umumiy xavfsizlikni boshqarish soxalarida).

### **Korxonalar ilmiy menejmenti va atrof-muxit muxofazasi.**

Korxonalar iqtisodiyotiga zamonaviy yondashuvda konstitutsional iqtisodiyot doirasida rivojlanayotgan firmaning menejeral (boshqaruv) nazariyasi, shuningdek steyk-xolder nazariyasi korxonaning ekologik menejment taxlili uchun birinchi darajali axamiyatga ega. Menejeral (boshqaruv) nazariyalari «xokimiyatga asoslanish», «liderlarga asoslanish» nazariyalari bilan birgakida asosiy e'tiborni firmaning (korxonaning) ichki tarkibiga qaratadi. Bu yondashuvlar amaldagi qonunchilik va ekologik xavfsizlik standartlari talablaridan chetga chiqadigan ekologik mas'uliyatlari qarorlarni qabul qilish mexanizmlarini ochib berish imkonini beradi.

Steyk-xolder nazariyasi korxona «Ekologik menejment»ining nazariy amaliy taxlili uchun katta axamiyatga ega. Steyk-xolder tushunchasi (shuningdek, «manfaatdor shaxslar» tushunchasi xam qullaniladi) quyidaagi ma'noga ega: steyk-xolderlar shaxslar (ularning guruxlari) bulib, ular bir tomonidan, uz maqsadlarini amalga oshirish jarayonida firmaga ta'sir kursatish imkoniyatiga ega buladi, boshqa tomonidan esa, firma tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ta'sirini uzlarida sezadi. Steyk-xolderlar (jismoniy va yuridik shaxslar) xuquqiy, iqtisodiy, axloqiy imkoniyatlarga ega bulib, ular firmaga uning utish,

xozirgi va kelajakdagi faoliyati (uning qismlari) buyicha uz xuquqlari yoki manfaatlari tug'isida da'vo qilishi mumkin. Ushbu menejeral yondashuv uchun firmaning ayrim individlari yoki ularning guruxlari bilan uzining (firmaning) ichki va tashki uzaro munosabatlari tug'risidagi tasavvuri nuqtai nazaridan, bu individlarning kuplab va kupchilik janjalli manfaatlarini moslashtirish va boshqarish vazifasini xal etishga xarakat qilish asosiy urinni egallaydi.

Shunday manfaatlar, talablar yoki xuquqqa ega bulgan steyk-xolderlar nisbatan bir xil guruxlarni tashkil etadi va ular boshqa steyk-xolderlardan (ularning guruxlari) farq qiladi. Shunday guruxlarga ega firma maxsuloti xaridorlari, ularning savdo sheriklari (ta'minlovchilari), moliya institutlari (banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari), maxalliy axoli, xokimiyat idoralari, norasmiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar misol buladi.

Steyk-xolderlarning barchasi, qoida tariqasida, ikki asosiy sinfga (klassga) bulinadi:

- korxonaga bevosita ta'sir kursatadigan muxitni shakllantiruvchi dastlabki (birlamchi) steyk-xolderlar; firma ularni xisobga olmasa, yashay olmaydi;
- bilvosita ta'sir muxitini yuzaga keltiradigan ikkinchi darajali (yoki ikkilamchi) steyk-xolderlar.

Dastlabki steyk-xolderlarga odatda mulkdorlar, investorlar, firmaning ishlovchi xodimlari, tayyorlovchilar, xaridorlar va ularning tashkilotlari, raqobatchilari va tabiatning uzini (uning resurslari va assimilyatsiyali)

qushadilar. Bevosita va bilvosita ta'sir muxiti shuningdek, bog'lanish (aloqador) auditoriyasi deb xam ataladi.

Ekologik menejment nuqtai nazaridan steyk-xolderlarning alovida roli shu bilan belgilanadiki, ular biznesning uz qarorlarini (shu jumladan, ekologik qarorlarini) qabul qilishga tabora kuchli (bevosita va bilvosita) ta'sir kursatmoqda. Shu sababdan ular ushbu qarorlarning oqibatlari uchun mas'uliyatni (javobgarlikni) xam bulib olishlari kerak. Steyk-xolderlar taxlili nafaqat ularning faolligiga balki firmani duchor qiladigan xavf-xatar nuqtai xam (xamkorlik extimoli va murakkab muammolar echimini birgalikda qidirishni xam qushib) muximdir. Bu potentsial imkoniyatlarni amalga oshirishning muxim sharti korxona strategik ekologik menejmentni shakllantirish va uning instrumentlaridan keng foydalanish xisoblanadi.

Nemis olimi X.Dyukxoffning steyk-xolderlarning ta'siri potentsiali farqlari va ularning kooperatsiyalashuviga tayyorligini xisobga olib, tavsiya etgan chuqur differentsiyasi katta qizikish uyg'otadi. Steyk-xolderlar nazariyasi korxonalar ekologik menejmenti shakllanishi uchun katta axamiyatga ega bulishiga qaramay, tayyor amaliy tavsiyalarni bermaydi. Shunday steyk-xolderlar guruxlari xam borki. ular firmaning axloqiy muxitidan tashqarida buladilar, lekin ularning salbiy targ'iboti va tashviqoti firmanın biznesini barbos qilishga yordam berib, ular firma uchun salbiy omillar ta'sirini kuchaytiruvchi kuchga aylanadi.

Kupincha aloqador auditoriya vakillari tubdan farq qiladigan manfaatlarining murosaga kelishi imkoniyatlari muammoli bulib qoladi, ularni xal etish qiyinlashadi.

## **Qisqacha xulosalar**

Korxona menejmenti - korxona ekologik raqobatbardoshligini qullab-quvvatlash vazifasini amalga oshiradigan tizimning tarkibiy qismi bulib, unda firmaning menejeral (boshqaruv) nazariyasi, steyk-xolder nazariyasi korxonaning ekologik menejmenti taxlili birinchi darajali axamiyatga ega. Menejeral (boshqaruv) nazariya e'tiborni korxonaning ichki tarkibiga qaratadi.

Steyk-xolder nazariyasi korxona ekologik menejmentining nazariy-amaliy taxlili uchun muxim axamiyatga ega bulib, ular uz maqsadlarini amalga oshirish jarayonida firmaga ta'sir kursatish imkoniyatiga ega, ayni paytda firma tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ta'sirini uzlarida sezadigan shaxslardir. Steyk-xolderlar dastlabki steyk-xolder va ikkinchi darajali (ikkilamchi) steyk-xolderlarga bulinadi.

Korxona ekologik siyosati uning ekologik samaradorligi bilan bog'liq maqsadlari va tamoyillari tugrisidagi bayonotidir. Korxonaning ekologik siyosatini ishlab chiqish korxonaning atrof tabiiy muxitga ta'sirini dastlabki baxolashni tuzishdan boshlanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Korxona ekologik menejmenti bilan korxona boshqaruv faoliyati urtasidagi uxshashlik nimada?
2. Korxona ekologik menejmenti faoliyatining ustuvor yunalishlarini izoxlang.
3. Korxona ekologik menejmentining xalqaro standartlarini tushuntirib bering.

4. Atrof-muxit muxofazasi boshqaruv tizimini korxonalar boshqaruvi bilan aloqadorligini tushuntiring.
5. Korxonalar boshqaruvini ekologik sof maxsulot ishlab chiqarish nuqtai nazaridan baholang.
6. Korxonalar ilmiy menejmentida atrof-muxit muxofazasining tutgan urni.
7. Korxonalar iqtisodiyotining zamonaviy yondashuvida menejeral nazariyaning tutgan urnini tushuntiring.
8. Steyk-xolder nazariyasini amaliy jixatdan taxlil qilib bering.
9. Steyk-xolderlarning sinflanishini izoxlab bering.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralar” –T:. 2009.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002
6. http://www.murman.ru <http://www.murman.ru> (ecology) comitet
7. www. ecology, com.
8. www. ecology and sociaty.org <http://www.ecology and sociaty.org>.

**XVII -Mavzu. KORXONALARING FUNKTSIONAL  
XUSUSNYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK SIYOSATINI  
ISHLAB CHIQISH**

**17.1. Korxonalar strategiyasi**

**7.2. Korxonalar funksional xususiyatlariga kura ekologik menejment tizimida ifodalanishi.**

**17.3. Korxona ekologik siyosatini ishlab chiqish.**

Xozirgi korxonalar iqtisodiyotning turli sektorlariga qarashli bulib, tabora kuproq bozorning ma'lum segmentlariga xizmat kursatadigan servis firmalari sifatida uz vazifalarini bajarayotir. Bu vazifani bajarishning qat'iy yunalishlari ularning strategiyalarida belgilanadi. Umumiyligi bilan bir qatorda eng muxim funksional vazifalarni bajarish uchun firmalar xususiy strategiyalarni xam ishlab chiqayotir. Xususiy strategiyalar qatoriga quyidaagilar kiradi:

- marketing strategiyasi;
- investitsiya strategiyasi;
- ishlab chiqarish strategiyasi va logistika strategiyasi;
- xodimlarni rivojlantirish strategiyasi;
- moliyaviy strategiya. Bu xususiy strategiyalar (umumiyligi bilan xdm) korxo nalarning atrof-muxit muxofazasiga tarafdorligi maqsadlariga mivoviq;
- ekologik yunalishga xam ega buladi.

Xususiy strategiyalar menejmentning turli funktional vazifalari uchun muljal beradi. Shu ma'noda umumiy menejmentning quyidaagi kichikroq turlari qiziqish uyg'otadi.

Marketing menejmenti marketingning kup xil instrumentlaridan foydalanib, tanlangan firma iste'molchilari segmentining aniqdangan extiyojlari, shu jumladan, ekologik extiyojlarini xam qondirishni ta'minlaydi. Investiya menejmenti doirasida marketing asosida aniqlagan uzoq muddatli extiyojlar asosida va tegishli ekspertiza protseduralarini xisobga olib, zarur ishlab chiqarish va xizmat kursatish quvvatlari aniqlanadi va barpo etiladi (shu jumladan, atrof-muxit muxofazasiga bevosita xizmat qiladigan yoki qattiq ekologik normalarga rioya qilishga yordam beradigan quvvatlar xam).

Ishlab chiqarish menejmenti va logistika menejmenti xodimlar, texnologik jarayonlar, xomashyo, materiallar, boshqarish va rejalashtirish tizimi, yordamida ekologik makbul xomashyo va materiallar ta'minoti, ma'lum marketing miqdori va sifatiga ega ishlab chiqarish va maxsulotlar, shu jumladan «yashil» maxsulotlar bilan ta'minlaydi. Xodimlar menejmenti ma'lum xodimlar va menejerlarni ishga tanlash va qabul qilish buyicha, ularning malakasini shakllantirish va oshirish buyicha, xodimlar xarakati buyicha (ekologik sabablarga kura ularni ishdan bushatishni xam qushib) tadbirlarni, shuningdek, xodimlarning tabiat muxofazasi motivatsiyasini ishlab chiquvchi choralarни utkazishga xizmat qiladi.

Moliyaviy menejment firmanın ishchanligini ta'minlashga muljallangan, ya'ni menejmentning boshqa kichik tizimlari belgilangan

ma'lum vazifalarni bajarish, tegishli moliyaviy instrumentlarni tanlash va qullash yuli bilan moliyaviy maqsadlarga erishish, shu jumladan, tabiatni muxofaza qilish choralarini qullab-quvvatlovchi instrumentlarni xam, shuningdek, uz mablaglarini ekologik barqaror biznesga quyishga xoxishi bulgan investorlarni qidirish xam shular qatoriga kiradi.

**Korxonalar ekologik menejmentining strategik xarakterdagи vazifalari.** Menejmentning barcha kursatilgan kichik turlari xam strategik, xam operativ yunalishga ega. Ularning xar biri doirasida ochiladigan strategik xarakterdagи vazifalarga quyidaagilarni asoslash va tanlash kiradi:

- bozorning yangi segmenti;
- yangi investitsiya loyixasi;
- distrib'yutsiyaning (taksimlashning) yangi kanallari;
- xodimlar menejmentining yangi pirintsiplari;
- yangi yirik investorlar.

#### **Operativ vazifalarni echishga quyidaagilar misol buladi:**

- aniq maxsulot uchun reklama shaklini aniqlash;
- loyixa bajarilishi nazorati;
- ma'lum davr uchun ishlab chiqarishni rejalashtirish;
- xodimlarni ma'lum maqsadlar uchun kayta kvalifikatsiyalashning mos shaklini tanlash;
- «yashil» kompaniya aktsiyalariga mablag quyish masalasini echish.

Korxonalarning kursatilgan faoliyatining xar bir soxasi salbiy ekologik ekstrenaliylar paydo bulishiga, ya'ni atrof tabiiy muxitning

ifloslanishiga sabab bulishi, bu salbiy ta'sir quyidaagilarning oqibati bulishi mumkin:

- bozorga ekologik xavfli maxsulotlarning kirib kelishi;
- loyixalarni amalga oshirishda ekologik talablarning e'tiborga olinmasligi;
- ishlab chiqarishda sanitariya-ekologik qoidalarga rioya qilmaslik;
- xodimlarning atrof tabiiy muxit muxofazasiga xurmatsiz munosabatda bulishi;
- ekologiyaga uzining befarq munosabatda bulishi bilan taniqli bulgan kompaniyalarning «shubxali» aktsiyalariga pul mablag'larini quyish.

Shu bilan bir qatorda bu soxalarning xar biri strategiyani ishlab chiqishda va operativ faoliyatda atrof-muxit muxofazasiga ma'lum xissa qushishi mumkin. Korxona ekologik siyosatini ishlab chiqish. Xar qanday korxona, tashkilot xalqaro standart talablariga mivoviq (150 14001) uzlarining ekologik siyosatini ishlab chiqishi, tayyorlashi va qabul qilishi kerak. Umumiylarda korxona ekologik siyosatini uning umumiyligi samaradorligi bilan bog'liq bulgan maqsadlari va tamoyillari tugrisida bayonoti xisoblanadi va u xarakatlar, maqsadli va reja ekologik kursatkichlarini aniqlash uchun asos bulib xizmat qiladi.

Ilg'or tajribalarga mivoviq va xalqaro standart (1S0 14004) tavsiyalariga ko'ra, ekologik siyosatni ishlab chiqishni korxonaning atrof tabiiy muxitiga ta'sirini dastlabki baxolashni (yoki dastlabki ekologik obzorini) tuzishdan boshlash kerak. Bunday dastlabki baholash quyidaagi soxalarni o'z ichiga olishi mumkin:

- qonun xujjatlari va reglamentlari talablarini identifikasiyalash;
- korxona faoliyati uning maxsulotlari yoki xizmatlari ekologik soxalarini identifikasiyalash (atrof tabiiy muxitga sezilarli ta'sir kursatishi mumkin bulgan va javobgarlikka tortishga olib keladigan soxalarini aniqlash);
- atrof-muxitni muxofaza qilishni boshqarishning mavjud tartibi va protseduralari samaradorligini baxolash (ichki mezonlar, tashqi me'yorlar, reglamentlar, qoidalar va raxbariy kursatkichlar tuplami buyicha utkaziladi);
- xarid va aloqa faoliyatiga tegishli mavjud siyosat va protseduralarni identifikasiyalash;
- utmish nomivoviqliklar xollarini urganishdan keyingi teskari aloqalar, raqobat afzalliklari uchun imkoniyatlar, manfaatdor tomonlarning nuqtai nazarlari, korxonada ekologik samaradorlikka yordam beruvchi yoki unga tusiq buladigan boshqa tizimlarning vazifalari yoki operatsiyalari.

Ekologik siyosatni ishlab chiqishda xalqaro standartlarga (ISO 14004) qisman kirgan va bu soxada ilg'or amaliy tajribali umumlashtirishga asoslangan quyidaagi tavsiyalarni xisobga olish foydali buladi. Tashkilotning uz ekologik siyosatini ishlab chiqishda diqqat markazida turadigan savollar ruyxati:

- tashkilotning belgilangan vazifalari, uning qarashlari, asosiy qadriyatlari va umidlari;

- tashkilotning atrof-muxit muxofazasi, resurslarni tejash, ekologik xavfsizlikka munosabati;
- tashkilotning umumiy tabiat muxrfazasi maqsadlari;
- manfaatdor tomonlarning talablarini xisobga olish va ular bilan aloqalar urnatish;
- atrof tabiiy muxitning ifloslanishini bartaraf etish tamoyillariga sodiqlik;
- tashkilotning maxsulotlari, xizmatlari va jarayonlari salbiy ekologik ta'sirini minimallashtirish;
- doimiy yaxshilash kontseptsiyasiga sodiqlik;
- ekologik standartlar, qonunlar, reglamentlarga rioya qilish buyicha majburiyatlar (eng kam darajada);
- auditor tekshiruvlarini utkazish va ekologik xarakatlarning natijalarini baxolash buyicha majburiyatlar;
- maxalliy va mintaqaviy xokimiyat bilan uzaro ta'sir, maxalliy va mintaqaviy sharoitlarni xisobga olish buyicha majburiyatlar;
- ishchilarining salomatligi uchun xavfsiz bulgan mexnat sharoitlarini ta'minlash buyicha majburiyatlar;
- xodimlar va savdo sheriklarini urgatish, uqitish buyicha majburiyatlar;
- energiya bilan ta'minlash, chiqindilar, yerdan foydalanish, suv resurslarini tejash va boshqalar buyicha uziga xos majburiyatlar.

### **Qisqacha xulosalar**

Korxonalar funksional xususiyatlari ularning ekologik soxadagi faoliyatida xam uz aksini topadi. Korxonalarning funksional vazifalari firmanın xususiy strategiyalarını ishlab chiqishga asos bulib xizmat qiladi.

Xususiy strategiyalar marketing strategiyasi, investitsiya strategiyasi, ishlab chiqarish strategiyasi va logistika strategiyasi, xodimlarni rivojlantirish strategiyasi, moliyavii strategiyaga ajratiladi.

Marketing menejmenti marketingning kup xil instrumentlaridan foydalanib, tanlangan firma iste'molchilari segmentining aniqlangan extiyojlari, shu jumladan, ekologik extiyojlarini xam qondirishni ta'minlaydi.

Investiya menejmenti uzoq muddatli extiyojlar asosida va tegishli ekspertiza protseduralarini xisobga olib zarur ishlab chiqarish va xizmat kursatish quvvatlarini aniqlash va barpo etishga xizmat qiladi:

- Ishlab chiqarish va logistika menejmenti xodimlar, texnologik jarayonlar, boshqarish va rejalashtirish tizimi yordamida ekologik maqbul xom ashyo va materiallar ta'minoti va maxsulotlar bilan ta'minlaydi.
- Xodimlar menejmenti xodimlar va menejerlarni ishga tanlash va qabul qilish buyicha tadbirlarn shuningdek, xodimlarning tabiat muxofazasi motivatsiyasini ishlab chiquvchi choralarini utkazishga xizmat qiladi.
- Moliyavii menejment firmaning ishchanligini ta'minlashga muljallangan moliyavii instrumentlarni tanlash va qullash uchun xizmat qiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Korxonalar funktsional xususiyatlari iborasini tushuntiring.
2. Korxonalar umumiylar strategiyasi bilan xususiy strategiyasi urtasidagi farqni tushuntirib bering.
3. Xususiy strategiyalarning tarkibiy tuzulmasini sxematik usulda tasvirlang.

4. Xodimlarni rivojlantirish strategiyasining maqsad va vazifasi nimalardan iborat?
5. Investitsiya strategiyasi bilan moliyavii strategiyaning uxshashlik va farqli jixatlarini tushuntiring.
6. Ishlab chiqarish strategiyasining ekologiyaga ta'sirini tushuntirib bering.
7. Moliyavii menejmentning vazifasi nimalardan tashkil topgan?
8. Korxonalar ekologik menejmentining strategii xarakterdagi vazifalarini tasniflang.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralari” –T:. 2009.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.
4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G’ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002
6. http://www.murman.ru <http://www.murman.ru> (ecology) comitet.
7. www. Ecology. com.

### **XVIII- Mavzu. STRATEGIK EKOLOGIYA MENEJMENTI**

#### **18.1. Strategik ekologiya menejmenti tug’risida tushuncha.**

## **18.2. Strategik ekologiya menejmentining taxlil usullari.**

## **18.3 Firma ekologik strategiyasining mazmun moxiyati.**

## **18.4. Firmanın ekologik strategiyası va türkumlanishi.**

**Strategik ekologiya menejmenti tugrisida tushuncha.** Ekologik boshqaruvda strategiya «xarakatlar rejasi» bulib, u qachon, qanday, nega va nima qilish kerak degan savollarga javob topishga yunaltiradi. Strategik ekologiya menejmenti atrof-muxitni muxofaza qilish, resurslarni tejash, ekologik tadbirkorlik xatarlarini kamaytirish chuqur uylangan va samarali choralarни tizimli amalga oshirish, raqobat ustunligini egallash va qullab-quvvatlash buyicha kompaniyalarning strategik manfaatlariga mos keladi.

Doimiy ravishda yuzaga keladigan ekologik imoniyatlar va xatarlar xar qanday firma oldiga chuqur asoslangan strategik maqsadlarni quyish va ularga erishish imkonini beradigan boshqaruv mexanizmlarini qullahni taqozo etadi. Bular strategik ekologiya menejmentining (SEM) mazmuni va eng muxim vazifalarini belgilab beradi.

Strategik ekologiya menejmenti korxona muvafaqqiyati uchun atrof-muxitni muxofaza qilish, resurslarni tejash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash soxalarida boshqa korxonalar bilan raqobatda ekologik xarakterdagi potentsial, shuningdek uning faoliyati bilan bog'liq bulgan ekologik xatarlarni aniqlash va shu asosda kompaniyaning uzoq muddatli maqsadini belgilashi va ularni chuqur uylanib tuzilgan choralar va instrumentlar vositasida amalga oshirishni ta'minlashi lozim.

Strategik ekologiya menejmentining shakllanishi quyidaagilarni amalga oshirishni talab qiladi:

- Korxonaning vazifasi (missiyasi) tug'risida kontseptual ishlanmalar va qarorlar qabul qilish.
  - Korxonaning tashqi muxiti (urab turuvchi muxiti) va ichki potentsiali (imkoniyatlari) taxlili.
  - Korxonaning vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladigan maqsadlar va strategiyani ishlab chiqish.

**Strategik ekologiya menejmentining taxlil usullari.** Strategik ekologiya menejmenti taqiqotlarida xilma-xil usullardan foydalilanadi. Korxonaning ichki muxitini taqiq etish uchun korxonalar, masalan, SWOT - taxlil (inglicha SWOT -Strengths) usulini, ya'ni kompaniyaning kuchli, kuchsiz tomonlari, uning imkoniyatlari va xavf-xatarlari taxlili usulini qullashlari mumkin. SWOT - usuli korxona potentsialini tizimli urganish va baxolashning samarali vositasi bulib, firmaning ekologik vazifasi (missiyasi) va shunga mos maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. Ekologik SWOT-taxlil quyidaagi xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi:

- Ekologik SWOT-taxlil. Kompaniyaning:

Kuchli tomonlari: ekologik kupay jarayonlar va maxsulotlar, «yashil» imidjning mavjudligi, xodimlarning reglament va majburiy talablarga rioya qilishga tayyorligi, «yashil» maxsulotlar va texnologiyalar uchun ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari potentsiali. Kuchsiz tomonlari: qayta davrlashtirilmaydigan maxsulotlar upakovka materiallari, butilkalar va xokazolar, «iflos» texnologiya, toksik (xavfli) chiqindilar, «ifloslantiruvchi» imidji, xodimlar reglament va talablarga rioya qilmaydilar. Imkoniyatlari: Yangi bozorni egallah, ekologik xavfsiz

maxsulotlarni ishlab chiqarish va etishtirish, «yashil» imidjini shakllantirish xisobiga kompaniyaning uzoq muddat omon qolishini ta'minlash, tabiat muxofazasi choralarining natijalilagini atrof-muxit muxofazasi, resurelar va xarajatlarni tejash buyicha tadbirlarni «yuqori» maqsadlarni quyish yuli bilan ta'minlash.

Xavf-xatarlari: Ekologik standart uta talabchanligining oshishi, davlatning aralashuvi va nazoratning kuchayishi, «yashillar» va boshqa ijtimoiy guruxlarning norozilik namoyishi, raqobatchilarning bozordagi «yashil» maxsulot sektorini qulga olishi, malakali xodimlarning firmaning vaqtinchalik bozor va boshqa qiyinchiliklari, muvaffakiyatsizligi tufayli kelishi, urta muddatli istikbolda kompaniya omon qolishining xavf-xatarlari va boshqalar bilan bog'liq bulgan qushimcha investitsiyalarning zarurligi.

Yaxshi natijalarga erishish uchun mutaxassislar umumiyligi strategik menejmentda xam qullaniladigan «qiymatning ekologik zanjiri» usulidan foydalanishni tavsiya etadilar.

Qiymatning ekologik zanjiri uziga xos mikroskop bulib, uning vositasida kompaniyaning strategik tabiat muxofazasi maqsadlariga erishishda uning faoliyatining xilma-xil, lekin bir-biri bilan uzaro aloqa va uzaro bog'liq bulgan turlarning xissalari (yoki ularning yuqligi) aniqlanadi va baxolanadi.

Ushbu xissani baxolash asosida navbatdagi korxonaga tuzilmasini ratsionallash buyicha tavsiyalar ishlab chiqiladi, ularda «kam axamiyatli bug'inlar»ni tugatish (qayta qurish) masalalari xam quyiladi. Bu usulning

asosiy g'oyasi shundaki, u kompaniyaning strategik vazifalarini qiymatning barcha zanjiri orqali, xam birlamchi faoliyat turlarini (xomashyo etkazib berish, ishlab chiqarish buyicha ishlarni bajarish, maxsulotni sotish (utkazish), marketing va sotish, sotishdan keyingi xizmat kursatish), xam qullab-quvvatlovchi turlarini (firmaning infratuzilma, mexnat resurslarini boshqarish, texnologiya va logistikani rivojlantirish) qushib, amalga oshirishni ta'minlashga asoslanadi.

Korxona ichki muxiti taxlilida 7 S usulidan (Structure, system, Strategy, Statf, Skillk Shared values Foreen ethnics) ham foydalanish mumkin. 7 S shunga mos xolda -Struktura(tuzilma), Sistema (tizim), Strategiya, Stil (uslub), Personal (xodim), Kvalifikatsiya (malaka) bulib, ular qiymatlar sistemasi (tizimi) (ekologik etika) bilan uzaro bog'langan, kompaniya personali (xodimi) bilan bulinadi. Bu usul firma potentsialining muxim tarkibiy qismlarini kompaniya ishlab chiqqan va qabul qilgan ekologik va etika tamoyillar nuqtai nazaridan baxolash uchun uziga xos ichki imkoniyatni hisobga olish imkonini beradi. Tashqi muxit (urab turuvchi muxit) taxlili siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va ekologik omillar, shu jumladan global darajada xam ta'sirida shakllanadigan korxonaning extimol tutilgan bozor imkoniyatlari va xavf-xatarni (tavakkalchilikni) urganishni uz ichiga oladi. Firma tomonidn ishlab chiqilgan va qabul qilingan qaror ekologik axborot tizimiga asoslanishi kerak.

Korxona uchun ekologik ma'lumotlar infratuzilmasini barpo etish aloxida axamiyatga ega. Firmaning ekologik strategiyasi va ularning

turkumlanishi. Ekologik strategiya strategik darajada «Ekologik menejment»ning asosiy elementlaridan biridir. Ekologik strategiya me'yoriy ekologik siyosat va operativ ekologik dasturlar urtasida bog'lovchi zveno (bugin) xisoblanadi. Bu uzaro aloqani mutaxassislar urtasida keng tarkatilgan Sankt-Gal «Ekologik menejment» integral modeli orqali tularoq, tushunib olish mumkin.

Strategik menejment firmaning uzoq, muddatli raqobatbardoshlik vazifasini mavjud va shakllanadigan ya'ni samaradorligi potentsiali vositasida (imidj, kompetentsiya (vakolat), bozordagi xissa va boshqalar) amalga oshiradi. Xozir firmaning biznes strategiyasi asosan xarajatlarni kamaytirish, maxsulot sifatini oshirish, etkazib berishda liderlik qilish va biznes talablari uzgarishini tezlikda sezishga yunaltirilgan. Biznes uchun ekologik va ijtimoiy omillar axamiyatining oshib borishi bilan uning muvaffaqiyati potentsialini belgilaydigan va firmaning strategiyasini ishlab chiqishda xisobga olish zarur bulgan an'anaviy iqtisodiy va texnik parametrlar doirasi sezilarli darajada kengaydi.

Birinchi xilda ishlab chiqarishning strategik dasturlari ularning ekologik talablariga mosligini aniqlash nuqtai nazaridan taqiq etilishi kerak va zarur xollarda ular kompaniya uchun ustuvor ekologik muammolarning echimi buyicha strategik maqsadlar bilan tuldirilishi lozim. Ikkinci xolda kompaniya mustaqil maqsadli yoki kursatma sifatida strategik ekologik potentsialni shakllantirish va kupaytirish mumkin (samarali ekologik pozitsiyalar vositasida). Ammo xar ikki xolda iqtisodiyot va ekologiya urtasidagi UZARO munosabatlarni doimiy optimallash, korxonanining

iqtisodiy va ekologik manfaatlari uning steyk-xolderi va umuman jamiyat urtasidagi tutash nuqtalarni kupaytirish markaziy punkt bulishi kerak.

Strategiyalar ekologik talablar va normalarni xisobga olish darajasiga bog'liq xolda passiv va aktiv (faol) strategiyaga bulinadi. Passiv ekologik strategiya mavjud ekologik qonunlar, standartlar, me'yirlarni bajarish bilan cheklanadi. Firmaning aktiv ekologik siyosati va unga mos strategiyasida iqtisodiyot va atrof-muxit muxofazasi urtasida ziddiyatlar chuqur darajada echiladi, tabiat muxofazasi imperativlari maxsulotni, texnologiyani uzgarish, xodimlarning kompetentsiya darajasii kutarish va boshqalarning imkoniyati sifatini kurib chiqiladi va xal etiladi. Umuman korxonani boshqarish jarayoni shunday tashkil qilinadiki, unda xam bozor, kompetentsiya va tabiat muxrfazasi maqsadlari, xam ijtimoiy maqsadlar mivoviqdashtirilgan bulishi kerak. Aynan ana shunday aktiv asosda ilgor xorijiy biznes ekologik boshqaruvi amalga oshirmokda. Xorijiy mamlakatlarning ekologik strategiya menejmenti tajribalari va ulardan foydalanish.

Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa Evropa mamlakatlarida biznesni barqaror rivojlantirish kontseptsiyasi talablariga javob beradigan ekologik strategiya menejmenti soxasida kuplab ijobiy tajribalar tuplangan. Shunday ekologik strategiyalarga «yashil» firmalarning asosiy strategiyalarini misol qilib kursatish mumkin. «Yashil» firmalarning asosiy ekologik strategiyalariga quyidaagilar kiradi:

- dematerializatsiya strategiyasi, ekologik samaradorlik strategiyasi, toza ishlab chiqarishga, tsirkulyarlikka (aylanmalilik), kooperatsiyaga utish

strategiyalari va boshqalar. Bu strategiyalar zamonaviy «Ekologik menejment» tamoyillariga javob beradi, kontseptual jixatdan ularni barqaror rivojlanish innovatsiyasi goyalari bilan birlashtiradi. Aynan barqaror rivojlanish innovatsiyasi (va unga mos keladigan strategiya) uzining xarakteriga kura radikal xisoblanadi va u uzida ekologik muammolarni echishda yorib utish samarasi potentsialini olib yuradi.

Barqaror rivojlanish tamoyillaridan kelib chiqadigan asosiy ekologik strategiyalar quyidaagi xususiyatlar bilan ta'riflanadi:

- etarlik strategiyasi - iste'molni ixtiyoriy cheklash va tegishli yashash tarzini uzgartirish;
- toza ishlab chiqarish strategiyasi - ayrim korxonaning atrof tabiiy muxitga salbiy ta'sirini texnologiyani (toza ishlab chiqish), ishlab chiqarilayotgan maxsulot nomeklaturasi va qullanilayotgan xomashyo va shu kabilarni uzgartirish orqali minimallashtirishni ta'minlash;
- eko-samaradorlik strategiyasi - xomashyo resurseridan foydalanish koeffitsienti va barcha texnologik jarayonlarining foydali xarakati koeffitsientini jiddiy darajada kupaytirish; (mutaxassislarining xisobotlariga kura xozirgi usullar texnologik jarayonlarning foydali xarakati koeffitsientini turt martadan un martagacha kutarish imkonini beradi);
- tsirkulyarlilik (aylanmalilik) strategiyasi chiqindilarni minimallashtirish va korxonalar urtasida xomashyo va chiqindilar oqimining aylanishini amalga oshiradigan va tabiatning assimilyatsiyalash potentsialiga mos keladigan uziga xos industrial ta'minot zanjirini shakllantirish orqali tabiatga nagruzkani (ta'sir kuni) kamaytirish;

- kooperatsiyalash strategiyasi - tabiiy muxit xolatiga salbiy ta'sirni uzaro kelishib olingan xolda kamaytirishni, ekologik muammolar, resurslar bilan ta'minlash va chiqindilarni minimallashtirishni bir-birlari bilan kooperatsiyalashgan qator korxonalar guruxi tomonidan birqalikda echish.

Barqaror rivojlanishning innovatsiya strategiyalariga munosabatni ishlab chiqishda korxonalar qushimcha ravishda quyidaagilarni xisobga olishlari kerak:

- ushbu strategiyalar kompaniyaning raqobatbardoshligi mustaxkamlashning katta potentsialiga ega bulib, ularni unikal, aloxida va qayta ilab chiqarish (nusxalash) qiyin bulgan kompetentsiyalar bilan qurollantiradi;
- ularni amalga oshirish an'anaviy ishlab chiqarishning faqatgina ishlab chiqarish-texnologik asoslarinigina emas, balki uning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini xam radikal uzgartiradi, shu jumladan yangi bozor sektorlarining (eskilarining tugatilishining xam), ularning yangi talablari va ularni ta'minlash usullarining paydo bulishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda ular yuqori darajada noaniqlik va xatarlar bilan boglangan;
- barqaror rivojlanish innovatsiya strategiyalarining amalga oshirilishi sharoitlari tug'ridan-tug'ri steyk-xolderlar va korxona uchun tashqi steyk-xolderlar doirasi tomonidan extimol tutilgan reaktsiyani xam taxlil qilishni taqozo etadi;
- jamoatchilikning ekologik muammolarga tashvishlanishining usib borishini xar tomonlama xisobga olish kerak, ularni inkor etish korxonalar uchun yuqori xavf-xatarlar bilan bog'liq.

Tsirkulyarlilik va kooperatsiyalash strategiyalari ekologik muammolarni xal etishda ayrim korxonalarning imkoniyatlari va resurslaridan tashqariga chiqish, kontsentratsiya (tuplanish) va markazlashtirish afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi. Bu strategiyalar ekologik muammolarni korxonalar guruxi (ishlab chiqarish-texnologik zanjirini tashkil etuvchi tarmoq korxonalari guruxi yoki mintaqaviy asosda birlashgan korxonalar guruxi) tomonidan kelishilgan va moslashuvchan yunalishda echishini ta'minlash imkonini beradi.

Ushbu innovatsiya tashkiliy qarorlariga, echimlari tartiblariga ishlab chiqarish tenologik innovatsiyalari xam javob berishi va mos tushishi kerak.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish korxonalar iqtisodiy strategiyalarining quyidaagi tamoyillarga asoslanishini takozo etadi:

- dematerializatsiya va resurelarni tejash - iqtisodiy jarayonlarda tsirkulyarlilikni amalga oshirish asosida dastlabki resurslar iste'molini sezilarli qisqartirish;
- energiyani tejash - ishlab chiqarish va maxsulotning energiya iste'moli xajmini kamaytirish va ekologik toza energiya resurslari va yoqilgini qullash yuli bilan energiyani tejash;
- mintaqalashtirish - lokal (maxalliy) resurelardan, mintaqalarning lokal potentsiallaridan foydalanish mintaqaviy kelishilgan ishlab chiqarish, iste'mol va chiqindilarni qayta ishslash va ulardan ikkilamchi foydalanish tizimlarini barpo etish;

- Adaptatsiya (moslashish) - iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini ekologik tizimlar evolyutsiyasi tezligi va ritmlari (maromlari) bilan mivoviqlashtirish;
- Extiyorkorlik - tabiiy muxit ifloslanishini bartaraf etishga xizmat qiladi;
- Chiqindilarni minimallashtirish.

Ishlab chiqarishning ekologik strategiyasini ishlab chiqishda, uning ustuvor yunalishlarini belgilashda firmalar quyidaagi turt ekologik xarakat doirasida ish olib borishlari kerak: maxsulot, ishlab chiqarish, xodimlar va kommunikatsiya. Ishlab chiqarishni taxlil qilish, ishlab chiqarish emissiyalarini kamaytirish, foydalaniladigan resurslarni tejash va shu kabilar vositasida atrof tabiiy muxitga nagruzkani kamaytirish e'tibor maxsulotning barcha xayotiy davri davomida bevosita atrof atrof-muxitga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratiladi. Xodimlarning ekologik xarakatlarining tarqatuvchisi sifatidagi xulqi va motivatsiyasi (asoslanishi) navbatdagi xarakat doirasida predmeti xisoblanadi.

Korxona turli kommunikatsiya strategiyalaridan xam foydalanishi mumkin, ular vositasida korxona ichida va uning tashqarisida atrof-muxit muxofazasi soxasidagi muammolar va xarakatlar buyicha teskari alokalar urnatish va konstruktiv suxbatlarni tashkil etish mumkin. Bu ibratli tajribalar Uzbekistonda ekologik strategiyani shakllantirish va rivojlantirishga ilmiy amaliy asos bulib xizmat qilishi mumkin.

### **Qisqacha xulosalar**

Ekologik boshqaruvida strategiya «xarakterlar rejasi» bulib, u qachon, nega va nima qilish kerak degan savollarga javob topishga yunaltiriladi.

Strategik ekologiya menejmenti atrof-muxitni muxofaza qilish, resursslarni tejash, ekologik tadbirkorlik xatarlarini kamaytirish buyicha samarali choralarni tizimli amalga oshirish, raqobat ustunligini egallash va qullab-quvvatlash buyicha kompaniyalarning strategik manfaatlariga mos keladi. Strategik ekologiya menejmenti taqiqotlarida xilma-xil usullardan foydalaniladi.

Ular qatoriga SWOT-taxlil, «qiymatning ekologik zanjiri», 7S va boshqalar kiradi. Ekologik strategiya va me'yoriy ekologik siyosat va operativ dasturlar urtasida boglovchi xalqa xisoblanadi. Strategik «Ekologik menejment» firmaning uzok; muddatli raqobatbardoshligi vazifasini mavjud shakllanadigan yangi-yangi samaradorligi potentsiali vositasida amalga oshiradi. Strategiyalar aktiv va passiv strategiyalarga bulinadi. Passiv strategiyalar ekologik strategiya mavjud ekologik qonunlar, standartlar, me'yorlarni bajarish bilan cheklanadi. Aktiv strategiyada iqtisodiyot va atrof-muxit urtasidagi ziddiyatlar chuqr darajada bartaraf qilinadi, tabiat muxofazasi imperativlari maxsulotni, texnologiyani uzgartirish, xodimlarning kompetentsiya darajasini kutarish imkoniyati sifatida kurib chiqadi va xal etadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Strategik ekologiya menejmenti nima?
2. Strategik ekologiya menejmentning axamiyati va asosiy xususiyatlarini ta'riflang.
3. Strategii ekologiya menejmentining shakllanishi nimalarga bog'liq?
4. Strategik ekologiya menejmenti kanday usullardan foydalanadi?

5. SWOT-taxlil «qiymatning ekologik zanjiri», 7S usulning xususiyatlari va qullanilishini ta'riflang?
6. Firmaning ekologik strategiyasi nima?
7. Firma ekologik strategiyasining axamiyati va asosiy xususiyatlarini tushuntiring.
8. Integral «Ekologik menejment»ning Sankt-Gal modeli doirasida asosiy elementlarining uzaro aloqalarini bilib oling.
9. Passiv va aktiv strategiya nima? Ularning farqi, foydalanish yunalishlarini ta'riflang.
8. Xorijiy mamlaktlarning ekologik strategiya menejmenti soxasida qanday ibratli tajribalari bor?
9. Etarlik, toza ishlab chiqarish, ekosamaradorlik, sirkulyarlilik, kooperatsiyalash strategiyalari nima?
10. Ekosamaradorlikning ma'nosi, mazmuni, qullanish yollarini tushunib oling.
11. Korxonalar uz iqtisodiy strategiyalarida qanday tamoyillarga asoslanadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yullari va choralar” –T.: 2009.
2. Milliy ma’ruza. -T., O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish qumitasi 2008-2009.
3. Paxomova N., Endres A., Rixter K. Ekologicheskiy menejment. Uchebnoe posobie. -M.: Spb.: Piter, 2003.

4. T.Jumaev, 3. Xoshimov, O. Ruziev. Ekologik menejment. Uquv qullanma. T.: 2004.
5. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -T., 2002
6. http://www.murman.ru <http://www.murman.ru> (ecology) comitet.
7. www.ecology.com.
8. www.ecologyand.sociaty.org <http://www.ecologyand.sociaty.org>.
9. www.ecologycenter.org <http://www.ecologycenter.org>.

### **Fan buyicha nazorat va muhokama savollari:**

1. «Menejment» tushunchasi qanday ma'noga ega?
2. Boshqarish san'ati deganda nimani tushinasiz?
3. «Ekologik menejment» fani nimani urganadi?
4. Uning menejmentning boshqa tarmoqlaridan asosiy farqi nima bilan belgilanadi?
5. «Ekologik menejment»ning ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari urtasidagi aloqadorligini tushintiring.
6. Ekolog-menedjerlarning vazifasi nimadan iborat va ularni tayyorlash zaruriyati nimada?
7. «Ekologik menejment»ning predmeti, ob'ekti, sub'ekti va ular bir biridan qanday farq qiladi?
8. Ijtimoiy-iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayonining turtta fazasini asoslab bering.

- 9.Ekologik-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning muxdm yunalishlari nimalardan iborat.
- 10.Ekologik menejmentni turlarga ajrating.
- 11 .Tarmoq ekologik menejmenti nimani taqiq qiladi?
12. «Ekologik menejment»ning fundamental asosini tashkil etuvchi fanlarni ayting.
13. «Ekologik menejment»ning asosiy ilmiy-tadqiqot usullarini ta'riflang.
14. Boshqarishni ekologiyalash nima?
15. Bozor iqtisodiyotiga utish sharoitida «Ekologik menejment»ning maqsadi va vazifalarini ta'riflang.
16. Menejer-ekologlarga kasbiy tayyorgarlik va vakolatlar buyicha qanday talablar quyladi?
17. «Ekologik menejment» ning samarali usullari deganda nimani tushinasiz?
18. Boshqaruv jarayonining ekologik monitoringi nima?
19. Boshqaruv jarayonida axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning zaruriyati nimada?
19. Boshqaruv jarayonida tabiiy-ekologik, tabiatdan foydalanish va tabiat muxofazasi qonuniyatlarini xisobga olish zaruriyatini izoxlab bering.
20. Atrof-muxit sifatini oshirish, biologik xilma-xillikni asrash, tabiiy resurslarni muxofazalashning iqtisodiy aspektlarini tushintirib bering.
21. Menejment nazariyasi va amaliyotining rivoqlanishi qaysi davrlarga tug'ri keladi?

22. Menejmentning rivojlanish yunalishlarini ajrating.
23. Ilmiy menejmentning shakllanish zaruriyati nimalarda namoyon buladi?
24. Ilmiy menejment asoschilarini xizmatlarini tushintirib bering.
25. Mumtoz yoki ma'muriy menejmentning ilmiy menejmentdan farqli jixatlari nimada?
26. Insoniy munosabatlar maktabi kimlar tomonidan shakllantirilgan?
27. Menejmentning tizimli yondoshuv printsipi uning qaysi yunalishlarida ilmiy jixatdan asoslangan?
28. Zamonaviy menejment qanday yondoshuvlarga asoslanadi?
29. Ekologik menejmentning umumiyligi menejmentdan farqli jixatlarini asoslab bering.
30. Ekologik menejmentning shakllanish jarayoni qanday omillar ta'siri ostida kechgan?
31. Ekologik menejmentning asoschilarini kimlar va ularning xizmatlari nimada?

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003.
2. Atrof-tabiyyi muxitni muxofaza qilish. Qonunlar va normativ xujjatlar. - T.: Adolat, 2002.
3. "Xususiy korxona to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrdagi qonuni. –O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. № 3 - T.: Adolat, 2004.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari**

4. "Bozor isloxitlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish soxasidagi ustuvor yunalishlarni amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Xalq so'zi» gazetasi, 2005yil 15 iyun.
5. "Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qushimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Xalq so'zi» gazetasi, 2005yil 20 iyun.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari**

6. "Maxsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori O'zbekiston Respublikasi Xukumatining qarorlari to'plami, 1999. № 54. b. 1999 yil. B. 15-20.

#### **IV. O'zbekiston Respublikasi Prezident asarlari**

8. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 21.01.2011y. Xalq so'zi.
9. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" -T.: 2011.
10. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yellari va choralar. - T.: Ўzbekiston, 2009 Xalq so'zi. - 2009.
11. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustaxkamlash faoliyatimiz mezoni bo'lishi darkor. "Xalq so'zi" gazetasi, 2006 yil 25 fevral.
10. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustaxkamlab, yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim. "Xalq so'zi" gazetasi, 2006 yil 11 fevral.
11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005- 92 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.

#### **V. O'zbekiston Respublikasi Vazirliklari me'yoriy-xuquqiy xujjatlari**

13. Atrof-tabiiy muxitni muxofaza qilish. qonunlar va normativ xujjatlar. - T.: Adolat, 2002.

13. Oxrana prirodo` . Attestatsiya ekologicheskix laboratoriy Respublikи Uzbekistan. Goskomprirodo` RUz .Tashkent, 2008.
14. Tabiatni muxofaza qilish soxasida standartlashtirish tizimi. Asosiy qoidalar. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish davlat qo'mitasi T., 2008.

## **VI. Darsliklar**

15. Alekseev V.S. Ekologiya: Uchebnoe posobie. - M.: Izdatelstvo RIOR, 2005-160 s.
16. Ekologiya: Uchebnik. G` L.V. Peredelskiy, V.I. Korobkin, O.E. Prixodchenko. - M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. - 512 s.
17. Jumaev T. Ekologiya iqtisodiyoti. - T., 2004,-280 b.
18. Ergashev A. Ekologiya. -T.: O'zbekiston, 2003,- 457 b.
19. Stepanovskix A.S. Prikladnaya ekologiya. Oxrana okrujajuhey sredo`. - M.: YuNITI-DANA, 2003, - s. 350

## **VII. O'quv qullanmalar**

20. Atrof-muxitni muxofaza qilish. Xakimov N.X. Umumiy taxriri ostida. - T.: TDIU, 2006, - 280 b.
23. Xakimov N.X, Jumaev T.J., Xoshimov Z.Y., Islomov A.A. Ekologik menejment. - T.: TDIU, 2005. - 268 b.
24. Egorenkov L.I., Kochurov B.I. Geoekologiya: Uchebnoe posobie. - M.: Finansoyo statistika, 2005. - 320 s.
25. Gorelov A.A. Ekologiya: Posobie dlya sdachi ekzamena. - M.: Vo`shee obrazovanie, 2005. - 191 s.

26. Bashkin V.N. Upravlenie ekologicheskim riskom-M.:Nauchnoy mir, 2005 - 368 s.
27. Alekseev V.S. Ekologiya: Uchebnoe posobie. - M.: Izdatelstvo RIOR, 2005-160 s.
28. Abirqulov Q. N., Rafiqov A., Xojimatov A.N. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004, - 119 b.
29. Abirqulov Q. N., Xojimatov A., Rajabov N., Atrof muxit muxofazasi. - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004, - 127 b.
30. Jumaev T. Tabiatdan foydalanishni strategik rejalashtirish. - T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004, - 95 b.
31. Jumaev T. Ekologik ekspertiza-T.:Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004-121 b.
32. Denisov V.V. Ekologiya. - M.: Mart, 2004. -300 s.

### **VIII. Ilmiy - amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plamlari.**

33. XIX Mejdunarodno`e Plexanovskiy chteniya: obrazovanie i sotsialno-ekonomiceskoe razvitiye v nachale tretego tosyacheletiya. Tezisov dokladov. - M., 2006.
34. Mintaq tabiiy resurslaridan foydalanishning bozor mexanizmi va uni takomillashtirish muammolari. Ilmiy-amaliy konferentsiya ma'ruzalar tezislari. - T.: TDIU, 2005.

### **IX. Statistik ma'lumotlar to'plamlari**

35. Doklad o chelovecheskom razvitiu. - T., Uzbekistan, 2004, 2005.

36. Ekonomika Uzbekistana. Analiticheskiy obzor za 2004. SEEP, 2005, №8.
37. Regiono Uzbekistana. 2003. Statisticheskiy ejegodnik. -T., 2004.
39. Uzbekistan v sifrax. 2003. Statisticheskiy ejegodnik.
40. International financial statistic. IMF Economic Reviews. World Economic outlook database. N. - IMF. 1998-2003.
- 41 The stastical review of world energy. -N. -Y . UN 1998-2003.
42. Statistical yearbook for Asia and the Pacific. - Bangkok: UN., 1993-2003.
43. Statistical yearbook for Latin America and the Caribbean.-N.-Y. UN. 1993-2003.

## **X. Internet saytlari.**

44. www. bp.com <http:G`G`www.bp.com->
45. www. cia.gov.cia.publications.factbook
46. www. copper.org
47. www. eia.doe.gov.emeu.international
48. www.minerals.er.usgs.gov
49. www.unctad.org <http:G`G`www.unctad.org>
50. www.usgs.gov
51. www.worldbank.som
52. www. wto.org

## **TAYANCH TUSHUNCA VA IBORALAR**

**EKOLIGIK STANDARTLASHTIRISH** - vakolatli davlat organlarining ekologik standartlarni belgilash, ularga rioya etish ustidan nazoratni olib borish buyicha faoliyati xisoblanadi. Ekologik standartlashtirishda xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO ( ISO) muxim urinni egallaydi. 1993 yili ushbu tashkilot tizimida «Ekologik boshqarma» (yoki «Atrof muxitning sifati boshqarmasi») texnik qumitasi (ISO TK 207) tashkil etilgan. Ushbu qumita tarkibida oltita kichik qumita va ikkita ishchi gurux tashkil etilgan.

Qumita uz faoliyatini ekologik tizimni yaratish, ekologik audit, ekologik belgilarni berish, ekologik nuqtai nazardan bezararligi tavsiflarini baxolashga qaratgan. Ushbu qumita faoliyati natijasida ISO 14000 turkumdagagi xalqaro standartlar ishlab chiqilgan. ISO-14000, 19000 turkumdagagi standartlarga asos soluvchi va me'yorlashtiruvchi standartlarni uz ichiga oladi. ISO 14001 «Atrof muxitni muxofaza qilish soxasida boshqaruvin tizimi. Qullash uchun raxbarlik» asos soluvchi standarti va ISO 14004 «Atrof muxitni muxofaza qilish soxasida boshqarish tizimi.

Tamoyillar, tizimlar va texnologiyalar buyicha umumiyl raxbarlik» standarti korxona xujjalarda baxolanishidan tortib to ruyxatga olish va sertifikatlashtirishgacha atrof muxitni muxofaza qilishni boshqarishni tashkil qilish buyicha tavsiyalarni uz ichiga oladi. Me'yoriy standartlar atrof muxitni muxofaza qilish buyicha boshqarish tizimini aniq choralarini yuzasidan belgilanadi. ISO 14000 turkumidagi standartlar universal tusga ega. Ular ishlab chiqarish va xizmat kursatish soxasida iqtisodiyotning

davlat va xususiy sektorida qullanilib, atrof muxitni muxofaza qilishni boshqarishning uslublari xar bir xolatda uzgacha qullanilishi mumkin.

**EKOLOGIK AUDIT** - ekologik auditorlar tomonidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda utkaziladigan, atrof tabiiy muxit xolatiga salbiy ta'sir kursatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa ob'ektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishdir. Ekologik auditning xuquqiy maqomi “Auditorlar tugrisida”gi qonun bilan emas, balki “Ekologik ekspertiza tug’risida”gi qonun me'yorlari bilan tartibga solinadi. Sababi shuki, ekologik audit ekologik ekspertizaning tarkibiy qismi bulib xisoblanadi. Ekologik audit tashkilotlar, muassasalar va tadbirkorlik sub'ektlarining qaroriga muvofiq utkaziladi. Bu faoliyat ekologik auditorlar tomonidan amalga oshiriladi ya'ni uning faoliyati qaratilgan ob'ekt tabiat va uni muxofaza qilish talablari tashkilotlar, muassasalar va tadbirkorlik sub'ektlar tomonidan bajarilayotganligini tekshirish va asosli xulosa berishdir.

**EKOLOGIK KO’RSATKICH** - atrof tabiiy muxitni sifat normativlarining kursatkichi bulib, ekologik me'yorlar orqali usimlik va xayvonot dunyosini saqlanib qolishi ta'minlanishidir. Birinchidan, ekologik me'yorlarni belgilashda atrof tabiiy muxitni saqlab qolish maqsadi tursa, ikkinchidan, ekologik me'yorlarni bajarish zararli ta'sir kursatuvchi ob'ektlarga ega bulgan yuridik va jismoniy shaxslarning imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Eng avvalo, ekologik normativlarni belgilashdan maqsad ekologik inqirozlarni oldini olish.

**EKOLOGIK MADANIYAT** - atrof-muxitdan tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab etgan, xamda inson faoliyati ta'sirining yaqin va uzoq kelajakdag'i oqibatlarini inobatga olgan xolda foydalanish; E.m. - umuminsoniy madaniyatning moddiy va ma'naviy mexnat maxsuli sifatida aks etgan tarkibiy qismidir. E.m. taraqqiyoti kasbiy ekologik ta'llim va tarbiya xamda xaqqoniy ekologik ma'lumotlarni ommaga etkazish bilan chambarchas bog'liqdir.

**EKOLOGIK ME'YOR** -bu atrof tabiiy muxitni muxofazasi yuzasidan belgilangan aniq bir talabdir. Ekologik me'yorlash esa, ushbu talabni belgilash buyicha jarayonni anglatadi. Atrof tabiiy muxit normativlari bizning fikrimizcha quyidagi kursatkichlarni belgilashga qaratilgandir.

**EKOLOGIK ME'YORLAR** - tabiiy resurslarning sifat va son kursatkichlarini belgilab, ulardan foydalanish va muxofaza qilishni tashkil etishda asosiy talablarni uzichiga oladi. Shu jumladan, ekologik me'yorlar foydalanishni rejalashtirish, uchun ruxsatnomalar berish, tulov undirish, nazorat qilish, javobgarlikka tortishda asos bulib xisoblanadi. Ekologik me'yorlar tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muxitga zararli ta'sir kursatishni tartibga soluvchi xuquqiy axamiyatga ega bulgan texnik kursatkich xisoblanib, xar xil shakllarda uz aksini topadi. Ekologik me'yorlash esa ushbu kursatkichlarni belgilash, tasdiqlash va joriy qilish bilan bog'lik bulgan davlat organlarning faoliyatidir.

**EKOLOGIK ME'YORLASh** - davlat organlarining atrof tabiiy muxit sifatini, tabiiy resurslardan foydalanish xajmini va boshqa kursatkichlarini belgilash buyicha faoliyatidir. Ushbu faoliyat vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilib, sertifikatlashtirish, standartlashtirish va boshqa me'yorlarlarni belgilashda namoyon buladi. Ekologik me'yorlash ikkita yunalishda amalga oshirilib, birinchidan, xuquqiy norma axamiyatiga ega bulgan kursatkichlar(standartlar)dan va ikkinchidan, xuquqni qullovchi xujjatlarda belgilanib, ma'lum bir ob'ekt uchun qullaniladi.

Birinchi xolatda belgilangan ekologik me'yorlar barcha sub'ektlarga taalluqli xisoblanadi. Masalan, avtomobil dvigatellaridan chiqariladigan tutunni sifatini belgilash buyicha standartlar xam ishlab chiqarilayotgan xam foydalanishda bulgan transport vositalariga taalluqli xisoblanadi. Ikkinci guruxdagi ekologik me'yorlar alovida bir tabiiy resurslardan foydalanuvchi yoki atrof tabiiy muxitga zararli ta'sir kursatuvchi shaxslarga taalluqli xisoblanadi. Ekologik me'yorlashning ob'ekti bulib atrof tabiiy muxit, uning sifat va son kursatkichlari, tabiiy resurslarning sifat va son kursatkichlari xisoblanadi.

Ekologik me'yorlar orkali atrof tabiiy muxit sifati va uning ob'ektlaridan oqilona foydalanish va muxofaza qilinishi ta'minlanadi. Ekologik me'yorlashning sub'ektlari bulib davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar xisoblanadi. Ekologik me'yorlash bilan faqat vakolatli davlat organlari shugullanishlari mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslar ekologik me'yorlarni belgilashda manfaatdor shaxs sifatida qatnashishlari

mumkin. Masalan, «Atmosfera xavosini muxofaza qilish tug'risida»gi Qonunning atmosfera xavosiga statsionar manbaalardan chiqariladigan yul quyiladigan doiradagi normativlari xar bir ifloslantiruvchi moddalar yoki biologik organizmlar buyicha korxona, muassasa va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilib, tabiatni muxofaza qilish davlat organlari tomonidan tasdiqlanadi.

### **EKOLOGIK ME'YORLASH BO'YICHA XUQUQIY**

**MUNOSABAT** – qonunda belgilangan talablarga asosan vujudga keladi. Uz moxiyatiga kura ushbu munosabatlar davlat boshqaruvi munosabatlariga taalluqlidir. Chunki, ekologik me'yorlash munosabatlarning tarafi bulib, xar doim davlat organi qatnashadi. Ikkinchidan, ekologik me'yorlash tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muxitga zararli ta'sir kursatishga ruxsat berishning alovida bir elementi xisoblanadi. Masalan, atmosfera xavosiga fizikaviy omillar zararli ta'sir kursatishning yul quyiladigan doiradagi normativlari Sog'likni saqlash vazirligi organlari tomonidan tasdiqlangandan sung shunday ta'sir kursatishga ruxsat etiladi.

**EKOLOGIK ME'YORLASH MUDDATLARI** - amal qilish muddati buyicha ekologik me'yorlash muddatsiz yoki ma'lum bir muddatga muljallangan me'yorlarga bulinadi. Ekologik standartlar, atmosfera xavosida yoki suvlarda ifloslantiruvchi moddalar va biologic organizmlarning inson va tabiiy muxit ob'ektlari uchun yul quyiladigan tuplanish darajalari muddatsiz belgilanadi. Suvdan foydalanish limitlari, xayvonot dunyosi buyicha kvotalar faqat muddatli xisoblanadi, chunki ular odatda bir yilga muljallab tasdiqlanadi. Umuman olganda, ekologik

me'yorlar fan va texnika rivojlangan sari uzgarib turishi lozim. Samaradorli tozalash usullari, qurilmalar, asbob-uskunalar yaratilishi va joriy qilinishi natijasida ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar va chiqindilarni chiqarish, tashlash, qayta ishlash kursatkichlari uzgarib, ularni atrof muxitga chiqarish miqdorlari keskin uzgaradi.

Buning natijasida ekologik me'yorlarni qayta kurib chiqish imkoniyati yaratilib ishlab chiqirish va uzga faoliyatga nisbatan yanada qattiqroq ekologik talab belgilanishi mumkin. Bundan tashqari, ifloslantiruvchi doimiy manbaani joylashtirish natijasida atmosfera xavosida yoki suvlardagi ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va tabiiy muxit ob'ektlari uchun yul quyiladigan tuplanish darajalari buzilishiga olib keladigan bulsa, ularning atmosfera xavosiga yoki suv xavzalariga chiqarish (tashlash)ni yul quyiladigan doiradagi normativlari qayta kurib chiqilishi lozim.

**EKOLOGIK ME'YORLASH OB'EKTLARI** - buyicha tabiiy ob'ektlarning sifat va son kursatkichlarini belgilovchi me'yorlarga bulinadi. Xar bir tabiiy ob'ektni sifat va son kursatkichlari uziga xos kursatkichlari buyicha aniqlanadi. Ushbu kursatkichlarni belgilash va aniqlash usullari xam uziga xos xususiyatlariga ega. Masalan, xayvonot dunyosi buyicha ularning kamayib ketishini oldini oladigan me'yor, ya'ni kvota belgilanadi. Kvota bir yula xayvonot ob'ektlari turlarini foydalanish miqdorlarini uz ichiga oladi. Atmosfera xavosi buyicha me'yorlar belgilanganda faqat uning sifat kursatkichlari e'tiborga olinadi. Suvlar buyicha me'yorlar esa ularni xam sifat kursatkichlari xam son kursatkichlarini belgilaydi. Suv

xavzalaridagi ifloslantiruvchi moddalarning yul quyiladigan doiradagi me'yorlari suvlarning sifatiga taalluqli bulsada, suvdan foydalanish limitlari esa suvlardan foydalanishning xajmlarini belgilaydi.

### **EKOLOGIK**

### **ME'YORLASH**

### **TURLARI**

**(KLASSIFIKATSIYASI)** - atrof tabiiy muxitni sifat normativlari uchta guruxga bulinadi. Birinchi guruxga sanitar-gigienik me'yorlar kiradi. Ularga zararli kimyoviy moddalar va biologik organizmlarning yul kuyiladigan doiradagi chegaralangan miqdorlari, atrof tabiiy muxitga fizikaviy ta'sir kursatishning yul quyilgan darajadagi chegaralangan miqdorlari, sanitar, muxofaza tegralarni me'yorlari va boshqalar. Bunday me'yorlarning maqsadi atrof tabiiy muxitning sifatini inson salomatligiga nisbatan (uning bezararligini) aniqlashdan iborat. Atrof tabiiy muxitni shunday sifat me'yorlari eng kup tarqalgan va kup qullaniladigan me'yorlaridir.

Atrof tabiiy muxitni sifat me'yorlarining ikkinchi guruxini ishlab chiqarish-xujalik me'yorlar tashkil qiladi. Bunday me'yorlar atrof tabiiy muxitga zararli ta'sir kursatuvchi manbaalarga nisbatan belgilanib, ularni faoliyatini ma'lum bir eng yuqori yul quyiladigan zararli darajasini belgilaydi va zarar bulgan xollarda zararli faoliyatni cheklaydi. Bu guruxdagi me'yorlarga atmosfera xavosiga va suvlarga zararli moddalar va biologik organizmlarni tashlash (chiqarish)ning yul quyiladigan darajadagi miqdorlari xamda chiqindilarni joylashtirish buyicha me'yorlar kiradi.

Bu toifadagi me'yorlar kuchar va kuchmas zararli ta'sir kursatuvchi manbaalarga nisbatan atrof tabiiy muxitni va inson salomatligini muxofaza

qilish maqsadida belgilanadi. Bundan tashqari, ushbu toifadagi me'yorlarga, shuningdek, atrof tabiiy muxitni muxofazasi buyicha ma'lum bir ekologik talablarni uz ichiga olgan texnologik, qurilish, shaxarsozlik qoidalarini kiritsak buladi.Uchinchi guruxdagi me'yorlarga kompleks tariqasidagi, uz ichiga birinchi va ikkinchi guruxdagi me'yorlarning xususiyatlarini olgan me'yorlarni keltirsak buladi. Masalan, tabiiy muxitga antropogen ta'sir kursatishning yul quyiladigan doiradagi me'yorlari yaxlit xududlar buyicha belgilanib, barcha tabiiy resurslarni sifatini ta'minlashga qaratilgandir.

**EKOLOGIK ME'YORLAshNING SUB'EKTLARI** - buyicha quyidagilarga bulinadi:

1) xamma sub'ektlarga taalluqli me'yorlar, masalan, ekologik standartlar atmosfera xavosida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va tabiiy muxit ob'ektlari uchun yul quyiladigan tuplanish darajalari, suvlarda ifloslantiruvchi moddalar va biologic organizmlarning inson va tabiiy muxit ob'ektlari uchun yul quyiladigan tuplanish darajalari va boshqalar. Xamma sub'ektlarga taalluqli me'yorlar umumiylar, bular respublika yoki ayrim xududlar yoxud ma'lum bir xalq xujaligi soxasi buyicha belgilanadi, masalan, atmosfera xavosiga transport vositalaridan chiqariladigan zararli gazlar buyicha ekologik standartlar transport vositalarini ishlab chiqaruvchi, ularni respublika xududidga olib keluvchi yoki ta'mirlovchi xamda ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga taalluqlidir; 2) ma'lum bir sub'ektga taalluqli me'yorlar, masalan, atmosfera xavosiga doimiy manbaalardan

ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar yul quyiladigan doiradagi normativlari.

Ushbu turdag'i ekologik me'yorlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi bilan boshqa ekologik me'yordan farqlanadi. Odatda, ushbu ekologik me'yorlar manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqilib, tabiatni muxofaza qilish, sanitary nazorati va boshqa tegishli organlar tomonidan tasdiqlanadi. Bundan tashqari ma'lum bir ekologik me'yorlar bir yula xamma sub'ektlarga va ma'lum bir sub'ektlarga tegishli bulishi mumkin. Masalan, suvdan foydalanish limitlari suv xavzalari, tumanlar va viloyatlar, xalq xujaligi tarmoqlari va xar bir suvdan foydalanuvchi buyicha belgilanadi.

**EKOLOGIK ME'YORLAshNING TIZIMI** - ikki xil ma'noda urg'u bersak buladi. Birinchidan, keng ma'noda tashkiliy-xuquqiy qurinishda shu soxani tartibga soluvchi normativ-xuquqiy aktlar va ularni amalga oshirishni ta'minlovchi davlat organlarining tizimi tushunilishi lozim. Ikkichidan, bu tizim tor ma'noda, ya'ni faqat tashkiliy tizimni tashkil etuvchi vakolatli davlat organlarning tizimi sifatida tushunilishi lozim. Ekologik me'yorlash tizimiga ekologik standartlarni belgilovchi, sertifikatlashtiruvchi, boshqa ekologik me'yorlarni tasdiqlovchi vakolatli davlat organlari va ularning faoliyatini shu soxada tartibga soluvchi qonunlar va boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlar kiradi. Bularga Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, maxalliy davlat xokimiyati organlari, Tabiatni muxofaza qilish davlat qumitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi kimyoviy komissiya, Uzstandart agentligi,

Sanoatda va qonchilikda ishlarni bexatar olib borish ustidan nazorat davlat inspeksiysi, Geologiya va mineral resurslar davlat qumitasi va boshqa organlar kiradi, Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrı davlat qumitasi, ushbu organlarning vakolatini belgilovchi va faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar, qarorlar va nizomlar kiradi.

**EKOLOGIK ME'YORLAShNING TURLARI** - ma'lum bir tabiiy ob'ektning muxofazasi yoki foydalanishini tartibga soluvchi, me'yorning ob'ekti, shakli, maqsadi, belgilangan kursatkichlari bilan farqlanuvchi ekologik me'yorning ma'lum bir guruxi tushuniladi.

**EKOLOGIK ME'YORLAShNING ShAKLI** - ekologik me'yorlar qaysi shakllarda belgilashi nazarda tutilishi lozim. Masalan, standart, yul quyiladigan darajadagi ifloslantiruvchi moddalarni tashlash miqdorlari, chiqindilarni joylashtirish limitlari, xayvonot dunyosidan foydalanish limitlari va boshqalar. Ekologik me'yorlarning shakllari qonunda belgilangan shartlarga binoan ma'lum bir turdag'i xujjatlarda aks ettirilishiga bogliqdir. Ekologik me'yor shakli uning qaysi ob'ektga va qaysi sub'ektga taalluqligidan kelib chiqib aniqlanadi. ular belgilagan xujjat orqali namoyon buladi. Ekologik me'yorlashning shakllari - shunday me'yorning ma'lum bir xujjatda belgilanishi tushunilish lozim, ya'ni xuquqiy tusga ega bulgan texnik kursatkichlar qandaydir xujjatda aks ettiriladi. Bunday xujjatlar xilma-xil bulib xar bir tabiiy resurs buyicha me'yor uzbekcha shaklda uz aksini topadi. Ekologik me'yorlar standartlar, limitlar, yul quyiladigan doiradagi tuplanish yoki tashlash (chiqarish)

me'yorlari, yul quyiladigan doiradagi zararli ta'sir kursatish darajalari, kvotalar va foydalanish me'yorlari shakllarida belgilanadi.

**EKOLOGIK SERTIFIKAT** - umumiy sertifikatning tarkibiy qismi sifatida yoki aloxida mustaqil ravishda utkaziladi. Ekologik sertifikatning shakli Uz davstandart tomonidan tasdiqlanadi va davlat reestriga kiritiladi. Ekologik sertifikatlarni xuddi shunday maxsulot ishlab chiqaruvchi, xizmatlarni (ishlarni) bajaruvchi boshqa shaxslarga berish man qilinadi. Ekologik sertifikat xar bir turdag'i chiqindi uchun aloxida beriladi. Ekologik sertifikatlashtirish buyicha bir necha organ mavjud bulsa yuridik va jismoniy shaxslar xoxlaganiga murojaat qilishlari mumkin. Sertifikatlashtirish tug'risidagi arizada maxsulot va chiqindining turi, uning xususiyatlari, ekologik xavflilik darajasi, xajmi va ogirligi kursatiladi.

**EKOLOGIK SERTIFIKATLASHTIRISH** - maxsulot, ishlarni atrof tabiiy muxitni xolatiga zararli ta'sir kursatmaslik darajasini aniqlaydigan uslub xisoblanadi. Sertifikatlashtirish ishlab chiqarilgan maxsulot yoki bajarilayotgan ishlarni belgilangan standartlar va boshka me'yorlarga mos kelishini aniqlaydigan jarayon. Shu nuqtai nazardan ekologik sertifikatlashtirishda ishlab chiqarilayotgan maxsulot bajarilayotgan xizmatlarni xamda ishlab chiqarish jarayonlarini belgilangan ekologik talablarga mosligini aniqlash buyicha davlat organlarini yoki ular vakil qilgan shaxslarni faoliyati xisoblanadi. Ekologik sertifikatlashtirishda sertifikatlashtirish ob'ektini asosan belgilangan standartlarga mosligini aniqlashdan iborat. Ekologik sertifikatlash jarayoni Uzbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrdagi «Maxsulot va xizmatlarni

sertifikatlashtirish tug'risida» gi, «Tabiatni muxofaza qilish tug'risida» gi, «Chiqindilar tug'risida» gi Vazirlar Maxkamasi qarorlari xamda idoraviy me'yoriy xujjatlar, shu jumladan sertifikatlashtirish qoidalari bilan tartibga solinadi. «Tabiatni muxofaza qilish tug'risida»gi Qonunning 46-moddasiga asosan ekologik sertifikatsiz xom ashyo va materiallarni ishlatish, texnologik jarayonlarni joriy etish va maxsulotlar ishlab chiqarish man etiladi.

Ekologik sertifikatlashtirish asosan ekologik xavfli maxsulot, jarayonlar uchun qullaniladi. Masalan, xavfli chiqindilarni Uzbekiston xududiga olib kirish, Uzbekiston xududida tashish ekologik sertifikatsiz man etiladi. Bunday talab Uzbekiston Respublikasining «Chiqindilar tug'risida» gi Qonunida belgilangan bulib, u xavfli chiqindilar tug'risidagi Bazel konventsiyaga muvofiq tadbiq etilgan. Ushbu masala buyicha Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 19 apreldagi 151-sonli qarori bilan ekologik sertifikatlashtirish buyicha tartib belgilangan. Ekologik sertifikatlashtirish atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish mexanizmlaridan biri bulib xisoblanadi.

Ekologik sertifikatlashtirishni boshqa sertifikatlashtirishlar kabi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Uzbekiston davlat standartlashtirish markazi boshqaradi. Ekologik sertifikatlashtirish quyidagi turlarga: ob'ekti buyicha maxsulotlar, bajarilayotgan xizmatlar (ishlar), ishlab chiqarish jarayonlari, chiqindilarni ekologik sertifikatlashtirishga, majburiyligi buyicha, majburiy va ixtiyoriy ekologik sertifikatlashtirishga bulinadi.

## **EKOLOGIK SERTIFIKATLASHTIRISHNING OB'EKTI** - bulib

ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar, bajarilayotgan xizmatlar (ishlar), ishlab chiqarish jarayonlari, chiqindilar xisoblanadi. Ekologik sertifikatlashtirish ob'ektlarini xar birini jarayoni uzbekcha xususiyatlarga ega. Masalan, chiqindilar sertifikatlashtirilganda ularni ma'lum bir standartlarga mosligi tekshirilmay balki ularning toksik va boshqa zararli xususiyatlari xar bir xolatda aniqlanadi va atrof tabiiy muxitga zararli ta'sir kursatish darajasi belgilanadi. Maxsulotlarni sertifikatlashtirishda ular oldindan belgilangan ekologik standartlarga mosligi aniqlanadi. Ishlab chiqarish jarayonlari ekologik sertifikatlashtirilganda ushbu jarayonlarning ekologik ekspertiza asosida ma'qullangan loyixa xujjatlariga mosligi tekshiriladi.

## **EKOLOGIK SERTIFIKATLASHTIRISHNING SUB'EKTLARI**

- bulib ekologik sertifikatlashtirish davlat organlari, ekoanalitik labaratoriylar, ekologik sertifikatlashtirish ob'ektlariga ega bulgan yuridik va jismoniy shaxslar xisoblanadi.

**EKOLOGIK STANDART** - uxshash ob'ektlarni ular bilan taqqoslash (solishtirish) uchun qabul qilingan andozalar, etalonlar, modellar. Ularning texnik va boshqa kursatkichlari me'yoriy-texnik xujjatlarda aks ettiriladi. Ba'zi xollarda standart deganda me'yoriy-texnik xujjat tushuniladi. Ekologik standart ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarni ekologik xavfsizlik darajasini belgilaydi. Ushbu xavfsizlik darajasi maxsulotlarni ayrim texnik kursatkichlari buyicha aniqlanadi. Uzbekiston Respublikasida ekologik standartlar utgan asrning 70 - yillaridan boshlab joriy qilib kelingan.

Masalan, «Tabiatni muxofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash soxasida standartlar tizimi» 17.00.01-76 DAVST standarti joriy qilingan. Ushbu standart ekologiya soxasida standartlashtirishning bosh standarti xisoblanib, boshqa standartlar esa undan kelib chiqib belgilanishi lozim. Dastlabki ekologik standartlarga qayd etilgan standartdan tashqari quyidagi standartlarni kursatsa buladi: «Tabiatni muxofaza qilish. Atmosfera ifloslanishning manbalari va meteorologik omillari.» 17.2.1.04-77 DAVST; «Tabiatni muxofaza qilish. Gidrosfera. Suvlardan foydalanish va muxofaza qilish. Asosiy terminlar va tushunchalar.» 17.1.01-77 DAVST.

**EKOLOGIK STANDARTLASHTIRISHNING TIZIMI** - uchta asosiy yunalishdan iborat. Birinchi yunalishdagi standartlar atrof tabiiy muxitga zararli ta'sir kursatishning yul quyiladigan ekologik me'yorlarini belgilash tartibi va shartlarini uz ichiga oladi. Ikkinci yunalishdagi ekologik standartlar atrof tabiiy muxitni muxofaza qilinishini tashkillashtirishga taalluqli talablarni belgilaydi. Masalan, axoli punktlarida xavoning sifatini nazorat qilish qoidalari 17.2.3.01-77DAVST bilan belgilangan. Uchinchi yunalishdagi standartlar atrof tabiiy muxitni muxofazasiga taalluqli tushunchalarni yagona talablarini belgilaydi. Masalan, 17.1.1.04-80 DAVST bilan er osti suvlarini foydalanish turlariga qarab klassifikatsiyasi belgilangan.

Ekologik standartlar ustivor ravishda texnik qoidalarni belgilab, ular xuquqiy akt xususiyatlariga egadir. Lekin, shu bilan birga, ular qonunlar va qonunosti xujjalardan quyidagilar bilan farqlanadi.

Birinchidan, davlat ekologik standartlari qonun xujjaligiga nisbatan yordamchi vazifani bajaradi. Ikkinchidan, ekologik standartlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solmaydi, ular atrof tabiiy muxitni, uning ob'ektlarini yoki maxsulotlarni ma'lum bir sifat kursatkichlariga mos kelishi lozimligini belgilaydi. Uchinchidan, standartlashtirish bir xil xususiyatlarga ega bulishi lozim bulgan tipik ob'ektlar buyicha belgilanishi lozim. Turtinchidan, butunlay atrof tabiiy muxit yoki uning ob'ekti ekologik standartlashtirilmaydi, balki ularni ma'lum bir xususiyatlari, funktsiyalari standartlashtiriladi.

**EKOLOGIK SUG'URTA** - Ekologki surortalash - atrof-muxitni muxofazalashning yangi xuquqiy chegarasi. Ekologik sug'urtalash uzida jismoniy shaxs va korxonalarni mulklaridagi manfaatlarini ekologik xavf-xatar xodisalarida maxsus sug'urta jamgarmalari xisobiga sug'urtalanish munosabatini namoyon etadi. Ekologik sug'urtalash ob'ektlariga Uzbekiston Respublikasi qonunchiligidagi zid bulmagan mulkchilik manffatlari tegishli bulgan.

**EKOLOGIK TARTIBLASHTIRISHNING IQTISODIY USULLARI** - tabiatdan foydalanish va atrof-muxitni muxofaza qilishni boshkarishda iqtisodiy omil va dastaklarni qullash: vazifa va maqsadga qarab rag'batlantiruvchi mexanizmlarga (subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va sug'urtalar va x.k.) va majbur etuvchi mexanizmlarga (ifloslantirganlik yoki nooqilona foydalanganlik uchun tulovlar, soliqlar, jarimalar, va x.k.) tiklaydigan yoki qoplaydigan mexanizmlar (ifloslantirishga qarshi qurashadigan maxsus jamg'armalar, davlat,

mintaqalar, xududlar, korxonalar, tashkilotlarga va ayrim kishilarga atrof-muxit ifloslanganligidan zarar kurganliklari uchun moddiy kompensatsiyalar)ga ajratiladi.

**EKOLOGIK XAVFSIZLIK** - tabiiy muxit va axoli salomatligiga xavf-xatar etkazilmaydigan xolat. E.x. atrof-muxitga salbiy antropogen ta'sirni kamaytirishga yunaltirilgan tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali erishiladi.

**EKOLOGIK XALOKAT** - xususiy parametrlarning va gyoki tashqi uzgaruvchan kursatkichlarning keskin nomuvozanatli va nostatsionar uzgarishi natijasida tabiatdagi barqarorlikning (muvozanatning) yuqotilishi, atrof-muxitda notug'ri xolatning vujudga kelishi.

**EKOLOGIK XUQUQBUZARLIK** - atrof-muxitga va tabiiy resurslarga ekologik zarar keltirish, amaldagi qonunlarni va xuquqni buzish. Ekologik xuquqbazarlik (ma'lum shartlarga kura) 2 yunalishda kurib chiqiladi:

1) iqtisodiy - tabiat ob'ektlarini yuk qilish, ularga zarar keltirish, ifoslantirish va kamaytirish natijasida mulkiy manfaatlarning poymol qilinishi;

2) ekologik - tabiat ob'ektlarining tabiiy xolati yomonlashishi, ularning ekologik aloqa va funktsiyalarining zaiflashishi, uz-uzini tozalash va uz-uzini tiklash qobiliyatlarining kamayishi, tabiatning (shu jumladan insonning) ximoyaviy xususiyatilarining zaiflashishi.

**EKOLOGIYA SOXASIDA IDORAVIY NAZORAT**  
respublikamizdagi faoliyati tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatni

muxofaa qilish bilan bog'lik barcha vazirlik, davlat qumitalari, idoralari tizimi doirasida olib boriladi. Barcha vazirlik, davlat qumita va idoralarda ushbu faoliyat bilan maxsus shug'ullanuvchi ekologiya xizmati tuzilmalari mavjud bulib, tegishli vazirlik ichki tizimi doirasida tabiatni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonining ekologik qoidatalablariga mosligini kuzatish, tekshirish, chora-tadbirlarni belgilashdan iboratdir.

**EKOLOGIYA XUQUQI** - tabiat bilan jamiyat urtasida paydo buladigan ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy tomondan tartibga solishni urganuvchi fonddir. Ekologiya xuquqi bugungi kunda Uzbekiston Respublikasining mustaqil xuquq tizimida uzurni va saloxiyatiga ega bulgan aloxida yunalish va xususiyatlarga ega bulgan xuquq soxasi xisoblanadi. Ekologiya xuquqi xam tabiat-jamiyat tizimidagi global axamiyatga ega bulgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda birinchi navbatda ekologik umum majburiy axamiyatga ega bulgan tamoyil, usul va qoida-talablardan foydalanadi, ikkinchidan, ushbu murakkab ekologik muammolarni xal qilish, ularning xuquqiy tartibotini ta'minlashda uzaro bog'lik bulgan xuquqning boshqa soxalarining kuch va imkoniyatlaridan foydalanadi. Chunki, ekologiya xuquqi xal qilishga qaratilgan ekologik muammo va vazifalarning kulami kengligi, murakkab va axamiyatligi sababli faqatgina jamiyat xayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy jabxalarida mavjud bulgan barcha vosita chora-tadbirlarni safarbar qilish orqali ekologik munosabatlarni tartibga solish mumkin.

**EKOLOGIYA** -tirik organizmlar uzaro va ularni yashash muxiti bilan buladigan munosabati xaqidagi fan, deb yuritiladi. Bu ma'no uning grekcha atamasidan kelib chiqqan tarzda ifoda etilgan. Chunki grekchada «oikos»-uy, yashash joyi, yashash muxiti, «logos»-ta'lilot degan tushunchani anglatadi. Uni birinchi bulib fanga nemis tabiatshunos olimi Ernest Gekkel 1866 yilda chop etilgan uzining «Organizmlarning umumiyl morfologiyasi» degan kitobi orqali olib kirdi. Uning ta'rifiqa kura, «Ekologiya-tabiatni iqtisodiy jixatdan tadqiq qilish orqali xamma tirik organizmlarning organik va noorganik muxit unsurlari bilan birga, uning ta'sir doirasida turgan antagonistik va noantagonistik aloqadorlikda bulgan usimlik va xayvonot dunyosi urtasidagi munosabatlarni ochib berishi»dir.

**EKOLOGIK XAVFSIZLIK** tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha izoxlanadi. Ularning ayrimlarida tushuncha moxiyati tuliq ochib berilsa, ayrimlarida munozaraga sabab buluvchi fikrlar xam uchraydi. Masalan, N.F. Reymers ekologik xavfsizlikka ikki xil yondoshgan: 1) tabiat ob'ektlari, aloxida inson va insoniyatning bevosita yoki bilvosita xayotiy muxim elementlarini zararlanishlariga (yoki bu zararlanishdan keladigan xavflarga) olib kelmaydigan faoliyat, vaziyat va jarayonlar uygunligi; 2) Er shari va uning turli mintaqalarida insoniyatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, texnogen va siyosiy tayyorgarligi (jiddiy bulmagan talofatlarga moslashishi) darajasida ekologik muvozanatni ta'minlovchi vaziyat, jarayon va faoliyatlar majmuasi.

**EKOLOGIK ONG** -bu xar bir insonning xayoti va faoliyatida atrof tabiiy muxit uning yashash makoni ekanligini anglash darajasi. Ekologik

ongli insonni xar doim xam ekologik madaniyatli, deb bulmaydi. Chunki ekologik barqarorlik zaruriyatini anglash xali uni inson uz faoliyatida tadbiq qildi, degan suz emas. Insonlarning Ona-tabiatga nisbatan ekologik ongli faoliyatlari ularning ekologik madaniyatlarini belgilaydi.

**EKOLOGIK MADANIYAT** - esa xozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik muammolarning echimini topish va ekologik xavfsizlikka erishish xar bir inson xayotida ulkan mas'uliyat ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritishdir. U muayyan davlat va jaxon madaniyatining rivojlangan bosqichi xamda tarkibiy qismidir.

**EKOLOGIK MUNOSABAT** tabiatni muxofaza qilish, uni sog'lomlashtirish, yaxshilash va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishda kelib chiqadigan, kishilarning xarakat yoki xarakatsizliklarini belgilovchi ijtimoiy munosabat turi. Ekologik munosabat milliy qonun va qonun osti me'yoriy xujjalarda (yuridik xarakterdagi), axloq-odob qoidalarida (ijtimoiy xarakterdagi), xalqaro xuquq me'yorlarida (siyosiy xarakterdagi) uz aksini topgandir.

**EKOLOGIK INQIROZ** bu ekologik tizimda modda va energiya almashinuvining tabiiy xolatda kechishining buzilishi yoki modda va energiyaning kichik va katta aylanish jarayonlarining ma'lum bir bosqichdagi uzelishidir. Masalan, dexqonchilik madaniyatining fan talablari darajasida bulmasligi, tuproq unumdorligining pasayishi va undagi mikroorganizmlarning qirilib ketishi oqibatida erga tushadigan organik moddalarning usimlik dunyosi uchun ozuqa bulgan mineral moddalarga aylanmasligi sodir buladi. Natijada tuproq ekologiyasi buziladi va

inkqirozli xolat yuzaga keladi. Orol dengizining qurib borishi natijasida Orol buyi xududlarida iqlim resurslari, tuprok unumдорligi, atmosfera xavosi, er osti va er usti suvlari, usimlik va xayvonot olamida ruy berayotgan uzgarishlar va salbiy jarayonlar ekologik inqirozga misol buladi. Ekologik inqirozli xududlarning ekologik tizimlarida modda va energiya almashuvining ekologik xavfsiz darajada tiklash juda murakkab va uta kup chiqimli tadbirdir. Shuning uchun xam ekologik xavfning oldini olish chora-tadbirlari birlamchi, unga qarshi kurash esa ikkilamchi axamiyat kasb etishi darkor.

**EKOLOGIK TANGLIK** -xalqaro xamjamiyat, davlat va jamiyat tomonidan global, maxalliy va regional miqyosdagi ekologik muammolar echimini topishning qiyinlashuvidir. Ushbu qiyinchilik iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy imkoniyatlarning yuqligidan yoki etishmasligidan xam kelib chiqishi mumkin.

**EKOLOGIK BARQARORLIK** -inson faoliyati va tabiat «injiklik»lari (zilzila, toshqin, sunami va x.k.)ning atrof muxitga salbiy ta'sir etmaydigan darajasi, ya'ni ma'lum bir xudud, kenglik va mintaqada ekologik xavfsiz muxit xolatining bir me'yorda ushlab turilishi. Ekologik barqaror bulgan joylarda ekologik tizimdagi modda va energiya almashinuvining tabiiy xolatda kechuvi saqlanib turiladi, ekotizimlarda tirik organizmlarning «immun» (qarshi turish) qobiliyati yuqolmaydi xamda ularning kupayish va tiklanish jarayoni tabiiy xolda kechadi.

**EKOLOGIK OMILLAR** -deganda tirik organizmlarning yashash muxitini belgilovchi va unga ta'sir etuvchi komponentlar tushuniladi. Ular

tabiat, ta'sir doirasi, darajasi va sharoiti, kelib chiqish vakti va davriyiliga kura tasniflanadi. Masalan, tabiiy omillarni kelib chiqishiga kura-kosmik, abiotik, biotik, biogen, biologik, antropogen omillarga ajratish mumkin. Kupgina adabiyotlarda ekologik omillar guruxga: abiotik (jonsiz) va biotic (jonli) omillarga ajratilgan. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, kishilik sivilizatsiyasi davrida ekologik omillar kelib chiqishi jixatidan sof biotik yoki sof abiotik bulmasligi xam mumkin, ya'ni ular oraliq – bog'lovchi omillar (masalan, tabiiy-antropogen)dan xam iborat bulishlari mumkin. Antropogen omilni biotik omillar toifasiga kiritish mumkin, chunki odam xam tabiatning bir jonli, lekin juda faol bulagidir.

**EKOLOGIK TIZIM -EKOTIZIMDIR.** U tabiat qonuniyatlariga monand ravishda uzaro uzviy funktsional bog'langan tirik organizmlar va ularning yashash muxiti elementlari yigindisidir. Ushbu abiotik va biotik omillar (jumladan inson xam) modda va energiya almashinushi jarayonida «yagona zanjir» bulib xisoblanadi. Masalan, ut-ulanylarni utxur xayvonlar eydi, ular uz navbatida yirtqichlar uchun, ulgan yirtqichlar esa, qushlar yoki tuproq tarkibidagi kuzga kurinmas mikroorganizmlar uchun ozuqa vazifasini utaydi. Mikroorganizmlar tuproqda organik moddalarni parchalab, mineral moddalar (anorganik tuz, suv va karbon-oksidlari)ga aylantiradilar. Ut-ulanlar esa, aynan mikroorganizmlar parchalab bergen mineral moddalardan oziqlanadilar va rivojlanadilar. Ularni utxur xayvonlar iste'mol qiladilar va xokazo. Shu tariqa modda va energiya almashinish jarayonida uzlusiz tizimli xarakat («ozuqa zanjiri») davom etadi. «Ozuqa zanjiri»da energiya, suv, mineral modda va gazlar ishtirok

etmasa xech qanday xarakat yuzaga kelmaydi. Shuning uchun xam uzaro uzviy bog'langan tabiat «zanjir»-«Ekotizim» deb ataladi. Zanjirning biron bir joyda «uzilib qolishi» ekologik inqirozga olib keladi.

**EKOLOGIK MONITORING** -bu Yer kurrasi, muayan mintaqa, mamlakat yoki xududda atrof muxit xolatini maxsus vakolatli idoralar, tashkilotlar va organlar yordamida kuzatib borish. Ushbu kuzatuvni amalga oshirishda, ya'ni monitoring tizimida: tabiiy ob'ekt va resurslarni xisobga olish, ularni baxolash, istiqbolini va ularga ta'sir etuvchi salbiy xodisa va jarayonlarning oldini olish chora-tadbirlarini belgilash kerak buladi. Ekologik monitoring kuzatuv maydoniga kura: global, (kurraviy), regional (mintaqaviy) va lokal (maxalliy) turlarga ajratiladi xamda statsionar(doimiy) va xarakatdagi kuzatuv shaxobchalari orqali amalga oshiriladi. Uzbekiston Respublikasida Ekologik monitoring tuzilmasi, mazmuni va amalga oshirilish tartibi Tabiatni muxofaza qilish davlat qumitasi tomonidan ishlab chiqiladi va Vazirlar Maxkamasining tasdigiga binoan Uzboshgidromet, Er resurslari davlat qumitasi, Uzgeodezkadastr, Tabiatni muxofaza qilish davlat qumitasi kabi maxsus vakolatlangan davlat organlari tomonidan va tegishli idoralar kumagi orqali olib boriladi.

**EKSPERTIZA** -lotincha «exrertus»-tajribali degani. Ekologik ekspertiza xujalik faoliyatining atrof tabiiy muxit xolatiga xamda jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash talablariga rioya etilishini mutaxassislar tomonidan xulosalashdir. Ekologik ekspertiza kim tomonidan tashkil etilganligi yoki vakolatlanganligiga kura-davlat, soxa, jamoat, ilmiy va audit turlariga ajratiladi. U maxsus vakolatlangan va

tegishli soxa mutaxassisasi yoki mutaxassislar guruxining xulosasi bilan yakunlanadi. Ekologik ekspertiza ob'ektlari-qonun xujjatlari, rejalar, loyixalar, moddalar va insonlarning atrof muxitga ta'sir etuvchi yoki uning ta'sir etish extimoli bor boshqa faoliyat turlaridir. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan va shu yilning 1 iyulidan kuchga kirgan «Ekologik ekspertiza tugrisida» gi Uzbekiston Respublikasi qonunining 1-moddasiga kura «Ekologik ekspertiza-rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xujalik va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash xamda ekologik ekspertiza ob'ektini ruyobga chiqarish mumkinligini aniqlashdir».

**EKOLOGIK KONTSEPTSIYA** -deb tabiat va jamiyat urtasidagi uzaro munosabat shakllarini e'tirof etuvchi ma'lum bir dunyoqarashlar tizimiga aytiladi. Quyidagilardan ekologik kontseptsiyalar juda keng avj olganlar: naturalistik, iste'- molchilik, ekologik inqiroz sabablari, usish chegarasi va organik rivojlanish, ekologik inqiloblar, muxofaza qilish va rivojlanish, sotsialistik, xarakatlar strategiyasi, alarmizm. Masalan, Alarmizm (nemis va ingliz tillarda «alarm»-vaxima, tashvish, xavotir) kontseptsiyasi namoyandalari Er kurrasida ekologik inqiroz yaqinlashib kelayotganligi xaqida xavotirga tushgan jamoat xarakatidir.

**EKOLOGIK SOLIQ** -tabiiy ob'ektlaridan foydalanganliklari, shuningdek atrof muxitni ifloslantirganliklari uchun jismoniy va yuridik shaxslardan doimiy, muddatli yoki bir marotabalik tulovlarning undirilishi. Ushbu moliyaviy mablag'lar tabiatga etkazilgan zararni qoplash, tabiiy

xudud yoki ob'ektlarni tiklash va qayta ishlab chiqarish maqsadida yig'iladi.

Ekologik soliqqa:

- ekologiya solig'i
- er solig'i
- er ostidan foydalanganlik uchun soliq
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soli'lar kiradi.

Uzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining IX bulim 35-bobiga binoan Ekologiya solig'I tovarlar ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmatlar kursatuvchiyuridik shaxslarning ishlatib chiqarish tannarxidan 1% miqdorda olinadi. Ekologiya solig'idan «Nuroniy» jamgarmasi va uning korxonalari, ishlovchilarining umumiyligi soni kamida 50% nogironlardan iborat bulgan, xamda savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanmaydigan yuridik shaxslar ozod qilinadilar.

**«EKOSAN»** -ekologiya va salomatlik atamalarining birinchi bug'inlar yigindisidan (ekosan) olingan atama. Ekosan 1992 yil Toshkent shaxrida tuzilgan nodavlat, notijorat tashkiloti-xalqaro jamgarmadir. Jamgarmaning asosiy maqsadi Er kurrasida, xususan Markaziy Osiyodagi global va mintaqaviy (regional) ekologik va sanitar-gigienik muammolar echimini topish uchun sarmoya jamgarish va ularni ushbu maqsadlarga muvofiq ishlatishdan iborat. Ekosan jamgarmasi qoshida «Rim klubii» ning filiali «Toshkent klubii» tashkil etilgan. Ekosanning xozirgi kunda 3

milliondan oshiq a'zosi bulib, 34 tadan oshiq mamlakatda 70 ga yaqin bulimlari va vakolatxonalari faoliyat yurgazmoqda.

## **MUNDARIJA:**

	<b>Kirish</b>	4
1	«Ekologik menejment» fanining predmeti, ob'ekti va turlari	6
2	«Ekologik menejment» fanining boshqa fanlar bilan aloqalari, tadqiqot usullari va vazifalari	14
3	Menejment umumiy nazariyasida «Ekologik menejment» ning o'rni va xususiyatlari	23
4	Ekologik boshqaruv instrumentlari	30
5	Ekologik menejment instrumentlarining tarkibiy tuzilishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari	41
6	Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jarayonida barqaror ekologik rivojlanish va ekologik menejment	53
7	Ekologik menejmentda umumiy qonuniyatlar va tamoyillarning namoyon bo'lishi	65
8	Ekologik boshqaruvning umumiy va xususiy qonuniyatlar	71
9	Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ekologik menejment instrumentlari va ekologik balans tutgan o'rni	85
10	Ekologik xisob va ekologik auditning ekologik menejment tizimida tutgan o'rni	95
11	Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korxonalar faoliyati ekologik natijalarining indikatorlari va ekologik controlling	106
12	Maxsulot ekologik xayotiy davrini baxolash	113

13	Ekologik boshqaruvning tashkiliy tizimi	120
14	Ekologik monitoring	129
15	Ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi va ekologik boshqaruv idoralari	136
16	Korxonalarning ekologik menejmenti va atrof muxit muxofazasi	143
17	Korxonalarning funksional xususiyatlari va ularni ekologik siyosatini ishlab chiqish	150
18	Strategik ekologiya menejmenti	158
	<b>Adabiyotlar ro'yxati</b>	172
	<b>Tayanch tushunca va iboralar</b>	177

## СОДЕРЖАНИЕ:

	<b>Введение</b>	4
1	Типы, объекты и предмет науки «Экологического менеджмента»	6
2	Взаимосвязь «Экологического менеджмента» и с другими науками, исследовательские методы и задачи.	14
3	Общая теория менеджмента роль и характеристика экологического менеджмента.	23
4	Инструмент экологического управления.	30
5	Содержание и характеристика как инструмент экологического менеджмента.	41
6	В период мирового финансово-экономического кризиса устойчивое развитие экологического менеджмента.	53
7	В экологическом менеджменте развитие общих законов и принципов.	65
8	Экологическое управление общие законы.	71
9	В период мирового финансово-экономического кризиса инструмент экологического менеджмента и роль экологического баланса.	85
10	Экологический расчёт и экологический аудит роль и место экологическом менеджменте.	95
11	В период мирового финансово-экономического кризиса в деятельности предприятий экологических индикаторов и экологических контролинг.	106

12	Оценивать экологической жизнь период продукции.	113
13	Внешняя структура экологического управления.	120
14	Экологический мониторинг.	129
15	Внешняя структура экологическое управление и конторы экологическое управление.	136
16	Защита среды экологического менеджмента в предприятие.	143
17	Разработать экологического политика и функциональная характеристика предприятия.	150
18	Стратегия экологического менеджмента.	158
	<b>Использование литературы.</b>	172
	<b>Глоссарии</b>	177

## CONTENTS:

	<b>Introduction</b>	4
1	Types, objects and subject of the science "Ecological management"	6
2	Intercoupling "Ecological management" and with the other science, exploratory methods and problems.	14
3	The General theory of management role and feature of ecological management.	23
4	The Instrument of ecological management.	30
5	The Contents and feature as instrument of ecological management.	41
6	At the period world financial-economic crisis firm development ecological management.	53
7	In ecological management development general laws and principle.	65
8	Ecological management general laws.	71
9	At period world financial-economic crisis instrument ecological management and role of the ecological balance.	85
10	The ecological calculation and ecological audit the role and place ecological management.	95
11	At period world financial-economic crisis in activity enterprise ecological indicator and ecological controlling.	106
12	Value the ecological life a period to product.	113
13	The external structure of ecological management.	120

14	Ecological monitoring.	129
15	The External structure ecological management and offices ecological management.	136
16	Protection of the ambience of ecological management in enterprise.	143
17	Develop the ecological policy and functional feature of the enterprise.	150
18	The Strategy of ecological management.	158
	<b>Use the literature</b>	172
	<b>The Glossary</b>	177